

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA
SURISHTIRUV

Ma’ruzalar kursi

Toshkent–2017

Mualliflar jamoasi:

yuridik fanlar nomzodi, dotsent B. N. Rashidov – so‘zboshi, I, III boblar;
yuridik fanlar doktori A. R. Akilov – VI bob;
yuridik fanlar nomzodi, dotsent B. B. Murodov – II bob;
yuridik fanlar nomzodi B. A. Rajabov – IV bob;
yuridik fanlar nomzodi Sh. A. Qulmatov – V bob;
N. Toshtemirov, D. I. Raimov – VII bob

Taqrizchilar:

Toshkent Davlat yuridik universiteti kriminalistika kafedrasini mudiri,
yuridik fanlar doktori, dotsent **G. Z. To‘laganova;**
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A. A. Matchanov**

Rashidov B. N.

I-94 **Ichki ishlar organlarida surishtiruv:** Ma‘ruzalar kursi /
Rashidov B.N., Akilov A.R., Murodov B.B. va boshq.; Mas‘ul
muharrir yuridik fanlar doktori, professor M.A.Rajabova. – T.:
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 129 b.

Ma‘ruzalar kursida «Ichki ishlar organlarida surishtiruv» kursining predmeti va asosiy tushunchalari, ichki ishlar organlarining surishtiruv organi sifatidagi maqomi, jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va hal etish tartibi, tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish va surishtiruvchining tergov-tezkor guruhi tarkibida faoliyat yuritishi, jinoyat ishini qo‘zg‘atish va surishtiruvning boshlanishi, surishtiruv jarayonida kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini o‘tkazish, surishtiruvni tamomlash, surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlari bajarilishi yoritilgan.

IIV Akademiyasi tinglovchi va kursantlari, yuridik oliy o‘quv yurtlari talabalari va shu soha bilan qiziquvchi katta ilmiy xodim-izlanuvchilar hamda amaliyot xodimlariga mo‘ljallangan.

KBK 67.99 (5Y) 93я73

SO‘ZBOSHI

So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat hokimiyati organlari tizimi, faoliyati yangidan shakllantirildi va ularning oldidagi vazifalarga mos ravishda o‘zgartirildi. Shu jumladan ichki ishlar organlari faoliyatida ham to‘b o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan shaxs, davlat va jamiyatning huquq va qonuniy manfaatlarini g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan himoya qilish, jamoat tartibini va jamiyat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa jinoyatlarning oldini olish, jamiyatdagi turli shakllardagi mulkchilikni qo‘riqlash va daxlsizligini ta‘minlash vazifalarining sifatli va to‘liq bajarilishini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirishga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» mamlakatimiz ta‘lim tizimining tubdan isloh qilinishi bilan birga zamon talablariga mos keluvchi yangi darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashni yoki ularni vaqt o‘tishini hisobga olgan holda yangilash va qayta ishlab chiqishni talab qiladi. Ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning huquqiy tayyorgarligi darajasi doimiy ravishda yuqori darajadagi ahamiyat kasb etgan masalalar qatorida bo‘lib, tezlik bilan o‘zgarayotgan zamonda ichki ishlar organlari xodimlarining etuk, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega, huquqiy madaniyat sohibi, ma‘naviyatli va boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan mutaxassis bo‘lib shakllanishlarini talab etmoqda. Albatta, huquqshunos mutaxassis huquqni qo‘llovchi organlar, ularning faoliyat yo‘nalishlari, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari haqida etarli darajada ma‘lumotlarga ega bo‘lishi, shuningdek ushbu vazifalarni samarali ado eta olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur.

Mazkur «Ichki ishlar organlarida surishtiruv» ma'ruzalar kursi O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining bir guruh tajribali pedagog-olimlari tomonidan tayyorlangan. Unda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining surishtiruv faoliyatiga taalluqli barcha asosiy tushunchalar va institutlar mazmuni ochib berilgan. «Ichki ishlar organlarida surishtiruv» kursining predmeti va asosiy tushunchalari, ichki ishlar organlarining surishtiruv organi sifatida maqomi, jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hal etish tartibi, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish va surishtiruvchining tergov-tezkor guruhi tarkibida faoliyat yuritishi, jinoyat ishini qo'zg'atish va surishtiruvning boshlanishi, surishtiruv jarayonida kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazish, surishtiruvni tamomlash, surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlari bajarilishi xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

I bob. ICHKI ISHLAR ORGANLARINING SURISHTIRUV ORGANI SIFATIDA MAQOMI

Surishtiruv faoliyati mazmuni va vazifalari

Jamiyat taraqqiyotining muayyan rivojlanish darajasiga erishishda davlatning o'рни beqiyosdir. Ijtimoiy tuzilma sifatida davlat zimmasidagi eng muhim vazifa bu jamiyatni yanada taraqqiy ettirish, Vatan ozodligi va obodligi, erkin va farovon hayotni ta'minlash hisoblanadi. Mazkur vazifalarni ado etishda davlat huquqiy me'yorlar joriy etadi va uning amal qilishini ta'minlash uchun majburlov kuchidan foydalanadi. Majburlash faoliyati davlat nomidan amalga oshirilib, huquqni muhofaza qilish mazmuniga ega bo'ladi va jamiyatda qonuniylik hamda xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek huquq-tartibotni mustahkamlashga qaratiladi. Qonuniylikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, qonunbuzilishining oldini olish va unga chek qo'yish, huquqbuzarliklar va jinoyat uchun javobgarlikni hal etish mexanizmi orqali amalda oshadi. Qonunni amaliyotda bekamu-ko'st qo'llash tartibi protsessual qonun hujjatlarida o'z ifodasini topgan.

Sud-huquq tizimida o'ta muhim va ulkan mas'uliyat talab etadigan faoliyat jinoyat-protsessi (surishtiruv, dastlabki tergov)da mujassamlashgan. Jinoyat-protsessi amaldagi qonunga xilof ravishda sodir etgan jinoyati orqali fuqaro, jamiyat va davlat huquq va qonuniy manfaatlariga zarar etkazgan shaxslarga nisbatan davlat tomonidan belgilanadigan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari tayinlash va uni ijro etishga qaratish bilan bog'liq tegishli davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilash barobarida ushbu faoliyatning majburiy tarzda amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Soddaroq qilib aytganda, jinoyat sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortishga qaratilgan faoliyat jinoyat-protsessual faoliyat bo'lib, jinoyat ishlarini yuritishga vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jinoyat-protsessual faoliyat uni amalga oshiruvchi subyektlarning huquqiy maqomi va vazifalarining xususiyatlariga ko'ra tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov, nazorat, sudlov, ijro etish kabi hamkorlikdagi faoliyatdan tashkil topadi.

«Ichki ishlar organlarida surishtiruv» maxsus kursi jinoyat-protsessual faoliyatning bir qismi sifatida surishtiruv faoliyatini o'rganadi. Ushbu kursning predmeti jinoyat-protsessi fanining tarkibiga kiruvchi ichki ishlar tizimidagi surishtiruv organlarining jinoyat haqidagi ariza va

xabarlarini qabul qilish, ro‘yxatga olish, tekshirish, hal etish, jinoyatlarini tez va to‘la ochish, haqiqatni aniqlash maqsadida ishning sinchkovlik bilan to‘liq, har tomonlama va xolisona tergov qilinishiga hamda jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining boshqa vazifalarini ado etishga sharoit yaratishga qaratilgan kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini o‘tkazish faoliyati – surishtiruvning tartibi va xususiyatlariga oid bilimlar majmuidan iborat. «Ichki ishlar organlarida surishtiruv» maxsus kursining asosiy tushunchalariga ichki ishlar organlari, surishtiruv organlari, surishtiruv organlari tizimi, surishtiruv, surishtiruvning vazifalari, tergovga qadar tekshiruv, jinoyat ishini qo‘zg‘atish sabab va asoslari, jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish asoslari, jinoyat ishi qo‘zg‘atish yoki qo‘zg‘atishni rad etish tartibi, kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari, tergov harakatlari-ning tartibi, tergovchining topshiriqlari kabilar kiradi.

Surishtiruv deganda, jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini bajarishga qaratilgan, Jinoyat-protsessual kodeks bilan tartibga solingan, surishtiruv organlari tomonidan jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish, jinoyat tufayli etkazilgan moddiy zarar qoplanishini ta’minlash uchun jinoyat ishi bo‘yicha kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini o‘tkazish faoliyatidan iborat dastlabki tergov bosqichining alohida shakli tushuniladi.

Surishtiruv faoliyati sodir etilgan jinoyatni aniqlash, qo‘zg‘atilgan ish bo‘yicha jinoyat sodir etgan shaxsni topish va uni jinoiy javobgarlikka tortish uchun surishtiruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan jinoyat-protsessual faoliyat bo‘lib, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishini tez va to‘liq, xolisona va har tomonlama tergov qilinishi va adolatli hukm chiqarilishi uchun zarur sharoit yaratishga yo‘naltirilgan.

Surishtiruvni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 38-moddasida ko‘rsatilgan organlar amalga oshiradilar va ushbu faoliyat jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining maqsadiga erishish, ya’ni odil sudlovni ta’minlashga xizmat qiladigan quyidagi vazifalarga ega:

1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritish;

2) dalillarni to‘plash va saqlash uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritish;

3) jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish uchun kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini yuritish;

4) jinoyat tufayli etkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish.

Jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish deganda jinoyat sodir etilayotganligi aniqlanganda tezkorlik bilan muayyan tadbir yoki tergov harakatini o'tkazish orqali ushbu jinoyatning salbiy oqibatlari kelib chiqishidan avval qilmish sodir etilishini to'xtatish tushuniladi.

Dalillarni to'plash va saqlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish deganda esa sodir etilgan jinoyatni, ayniqsa unga daxldor bo'lgan izlarni va ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar, narsalar va hujjatlar yo'qolib ketishi yoki yaroqsiz holga kelishiga yo'l qo'ymaslik uchun ushbu ma'lumotlar, narsalar va hujjatlarni qonunda belgilangan tartibda olish yo'li bilan to'plash, rasmiylashtirish, ishonchli tarzda saqlanishi uchun vakolatli shaxslarga topshirish yoki dalillarni to'plash va saqlash uchun sharoit yaratish tushuniladi.

Jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish vazifasi ikki yo'nalishda tashkil etiladi. Birinchisi jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni *ushlash*, ya'ni jinoyat sodir etilayotgan paytda yoki jinoyat sodir etgandan keyin darhol yoxud ish qo'zg'atilganidan so'ng jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni harakatlanishini cheklab, uni shaxsiy tintuv qilish, ichki ishlar organiga olib kelish va vaqtincha saqlash hibsonasiga joylashtirish, uning shaxsini va jinoyatga aloqadorligini tekshirish. Ikkinchisi yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni *qidirib topish*, ya'ni ishga jalb etilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tergov yoxud suddan yashiringanda uning qaerdaligini aniqlash, uni yashiringan joyida ushlab, tergov yoki sudga majburiy tarzda keltirishdan iboratdir.

Jinoyat tufayli etkazilgan moddiy zarar qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yuritish, bunda jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zarar miqdorini aniqlash, moddiy zarar miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda ayblanuvchi yoki fuqaroviy javobgarning mol-mulkini yoki jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni aniqlash va uni xatlash choralari ko'riladi. Surishtiruv organlari zimmasidagi sanab o'tilgan vazifalarni bajarishda ma'lum bir tezkor-qiliruv tadbirlari yoki tergov harakatlarini, misol uchun mol-mulkni xatlashni o'tkazadilar.

Surishtiruv organlari jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, Jinoyat-protsessual kodeksning talablariga muvofiq

tekshirib chiqilganidan soʻng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin boʻlgan maʼlumotlarni aniqlash va toʻplash maqsadida ilmiy-texnik vositalarini qoʻllagan holda zarur choralarni koʻrish vakolatiga ham ega. Ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati organlari va Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi boʻlinmalari bu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini oʻtkazishga ham haqlidirlar.

Shu bilan birga, qonunda jinoyat ishi qoʻzgʻatilgandan soʻng surishtiruv organi tomonidan sodir etilgan jinoyatning holatlarini aniqlashga yordam beradigan tergov harakatlari (soʻroq qilish, koʻzdan kechirish, tintuv oʻtkazish, guvohlantirish, ekspertiza tayinlash, eksperiment va h.k.) oʻtkazish nazarda tutilgan. Surishtiruv organlari (surishtiruvchilar) jinoyatni ochish va aybdorlarni fosh etish, etkazilgan zararining qoplanishini taʼminlash, jinoyat sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan sabablarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida muayyan izchillikda amalga oshiriladigan tergov va protsessual harakatlar majmui, shuningdek ular qabul qiladigan protsessual qarorlar surishtiruv faoliyatining mazmunini tashkil qiladi. Koʻp hollarda surishtiruv organlari kechiktirib boʻlmaydigan tergov harakatlarini oʻtkazadilar. Taʼkidlash joizki, qonunda «kechiktirib boʻlmas tergov harakatlari» tushunchasi ham, ularning roʻyxati ham aks ettirilmagan. Fikrimizcha ish holatlariga koʻra har qanday tergov harakati muayyan vaziyatda kechiktirib boʻlmas ahamiyatga ega boʻlishi mumkin.

Umuman olganda, surishtiruv organlarining faoliyati oʻziga xos xususiyat kasb etgan. Surishtiruv faoliyati yuklatilgan vazifalarni ijro etishda jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi, shu bilan birga tezkor-qidiruv faoliyati bilan birga va tergovchilar bilan hamkorlikda boʻlishi mazkur faoliyatning yanada samarali boʻlishiga xizmat qiladi.

Surishtiruv organlari faoliyatining mazmuni va tizimi

Surishtiruv organlari – huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan shugʻullanuvchi va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida qonun hujjatlarida belgilangan xizmat vazifalarini amalga oshirish bilan bogʻliq, sodir etilgan jinoyat haqidagi ariza yoki xabar kelib tushganligi munosabati bilan protsessual faoliyatni, yaʼni tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni amalga oshirishga vakolatli boʻlgan davlat organlaridir.

Surishtiruv organlari faoliyati deganda ushbu organlarning qonun hujjatlariga ko‘ra belgilangan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq muayyan yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan huquqni muhofaza qilish faoliyati tushuniladi. Surishtiruv organlari faoliyati inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, jamiyat va davlat manfaatlarini har qanday tajovuzlardan himoya qilish, milliy, iqtisodiy xavfsizlikni qo‘riqlash, tinchlikni, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek qonuniylik, huquqiy targ‘ibot va qonun ijodkorligi kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Huquqni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirishning bir shakli bu surishtiruv bo‘lib, surishtiruvni faqat jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan vakolatli organlar amalga oshiradi.

Surishtiruv organlarining faoliyati nafaqat jinoyat-protsessual, shuningdek tezkor qidiruv funksiyalarini bajarishga qaratilganligi bilan o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘z navbatida, surishtiruv organlarining jinoyat-protsessual faoliyati quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jinoyatlar haqidagi ariza (xabar)larni ko‘rib chiqish va hal qilish; jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun boshqa sabablar mavjud bo‘lganda tergovga qadar tekshiruv yoki surishtiruv o‘tkazish; tergovchilarning topshirig‘i bo‘yicha tezkor qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini amalga oshirish; tergovchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ayrim tergov harakatlarini o‘tkazishda ko‘maklashish.

Surishtiruvchi tergovchining tergov va qidiruv harakatlarini bajarish to‘g‘risidagi topshiriqlarini ijro etish shartlari, tartibi va muddatlari xususidagi ko‘rsatmalariga muvofiq bajarishi shart. Topshiriqni belgilangan muddatda bajarish imkoniyati bo‘lmasa, surishtiruvchi bu haqda tergovchini xabardor qiladi va bajarish muddatini uzaytirishni yoki ijro etish shartlari va usullarini o‘zgartirishni iltimos qiladi. Tergovchining talabiga asosan surishtiruvchi tergov harakatlarini yuritishda unga yordam berishi, shuningdek jinoyat ishi uchun daliliy ahamiyatga ega bo‘lishi ehtimol tutilgan hujjatlar va boshqa materiallarni tanishib chiqish yoki ishga qo‘shib qo‘yish uchun taqdim qilishi shart. Tergovchi o‘zining barcha topshiriqlari, ko‘rsatma va talablarini surishtiruvchiga surishtiruv organining boshlig‘i orqali yuboradi (JPKning 343-m.)

O‘zbekiston Respublikasida quyidagilar surishtiruv organlari hisoblanadi:

- 1) militsiya;
- 2) harbiy qismlar, qo‘shimlarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o‘quv yurtlarining boshliqlari;
- 3) milliy xavfsizlik xizmati organlari;

4) O‘zbekiston Respublikasi IIV jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari hamda turmalarning boshliqlari;

5) davlat yong‘indan nazorat qilish organlari;

6) chegarani qo‘riqlash organlari;

7) olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

8) davlat bojxona xizmati organlari;

9) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari;

10) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari;

11) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari.

Ichki ishlar organlari tizimiga kiruvchi surishtiruv organlariga militsiya, davlat yong‘indan nazorat qilish organlari, jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsonalari hamda turmalarning boshliqlari (tezkor xizmatlari) kiradi.

Militsiya ichki ishlar organlarining asosini tashkil etuvchi xizmatlar, ya‘ni asosan jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, turli shakllardagi mulkni qo‘riqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog‘liq vazifalarni bajaruvchi bo‘limlarni o‘ziga qamrab oladi. Bularga IIVning jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash, huquqbuzarliklarning oldini olish, patrul-post va jamoat tartibini saqlash, yo‘l harakati xavfsizligi, xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish, qo‘riqlash, shaxsiy tarkib bo‘yicha maxsus inspeksiya, tergov, ekspert-kriminalistika va boshqa yordamchi xizmatlarni kiritish mumkin. Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi va uning quyi tizimidagi organlar asosiy surishtiruvni amalga oshiruvchilar bo‘lib, Jinoyat-protsessual kodeksning 345-moddasida belgilangan prokuratura (Jinoyat kodeksining 97–103, 141–149, 175, 184¹, 192¹–192¹¹, 205–212, 215, 218–221, 230–236, 241¹, 242, 265-moddalarida nazarda tutilgan, shuningdek ayrim toifadagi mansabdor shaxslarning jinoyatlari) va ichki ishlar organlarining (Jinoyat kodeksining 104–140, 164–166, 168–173, 183,

186–186², 193–204, 213, 214, 216–217, 222, 224–229², 243, 244, 245, 247–264, 266–278⁶-moddalarida nazarda tutilgan, shuningdek voyaga etmaganlar sodir etgan barcha jinoyatlar) tergoviga tegishli va boshqa surishtiruv organlariga yuklatilmagan barcha jinoyatlarga oid ishlar bo‘yicha surishtiruvni to‘liq amalga oshiradilar. Bunda ular to‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini ham o‘tkazishga haqli.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va uning quyi tizimiga kiruvchi xizmatlar asosan profilaktika inspektorlari ularga biriktirilgan ma‘muriy hududda har qanday jinoyat turlari sodir etilishining oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash uchun surishtiruvni amalga oshiradilar.

Patrul-post va jamoat tartibini saqlash tizimiga kiruvchi xizmatlar jamoat joylarida, ko‘chalarda sodir etiladigan barcha jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab borasida surishtiruvni amalga oshiradilar.

Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati avtomobil yo‘llarida sodir etiladigan yo‘llarda harakatlanish qoidalariga amal qilish, avtomobil transportidan foydalanish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni ushlab, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar.

Shaxsiy tarkib bo‘yicha maxsus inspeksiya ichki ishlar organlari tizimida xodimlar tomonidan sodir etiladigan yoki ularga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganlarni ushlab, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar. Ushbu xizmatlar ham to‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishlari mumkin.

Xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari pasport tizimi, xorijga chiqish-kelish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash borasida qisman surishtiruvni amalga oshiradilar.

Qo‘riqlash xizmati davlat va xalq xo‘jaligining turli obyektlarida, shuningdek fuqarolarning mol-mulkiga tajovuz qilish, uni nobud qilish yoki talon-toroj qilinishi bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash sharoitlarini yaratish borasida qisman surishtiruvni amalga oshiradilar.

Militsiyaga kiruvchi tergov, ekspert-kriminalistika va boshqa xizmatlar surishtiruv organi hisoblanmaydi.

Harbiy qismlar, qo‘shimalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o‘quv yurtlarining boshliqlari o‘zlariga bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilar, shuningdek o‘quv mashqlari o‘tkazilayotgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari xodimlarining xizmat majburiyatini bajarish bilan bog‘liq jinoyatlar yoki qism, qo‘shilma, muassasa yo o‘quv yurti joylashgan erda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash sharoitlarini yaratish borasida qisman surishtiruvni amalga oshiradilar.

Milliy xavfsizlik xizmati organlari Jinoyat-protsessual kodeksning 345-moddasida belgilangan milliy xavfsizlik xizmati (Jinoyat kodeksi-ning 150–163, 182, 223, 246-moddalarida nazarda tutilgan, shuningdek ayrim toifadagi mansabdor shaxslarning jinoyatlari) tergoviga tegishli jinoyatlarga oid ishlar bo‘yicha surishtiruvni to‘liq amalga oshiradilar. Bunda ular to‘liq tezkor-qidiruv tadbirlarini ham o‘tkazishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi IIV jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov hibsxonalari hamda turmalarning boshliqlari (tezkor xizmatlari) shu muassasalar xodimlari tomonidan xizmatni o‘tashning belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlar, mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganlarni ushlab, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar. Bunda ular tezkor-qidiruv tadbirlarini ham o‘tkazishga haqli.

Davlat yong‘indan nazorat qilish organlari yong‘inlarga doir va yong‘inga qarshi qoidalarni buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash uchun sharoit yaratish borasida surishtiruvni amalga oshiradilar.

Chegarani qo‘riqlash organlari davlat chegarasini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganlarni ushlab, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar va tezkor-qidiruv tadbirlarini ham o‘tkazishga haqlidirlar.

Olis safarda bo‘lgan dengiz kemalarining kapitanlari kemada sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha surishtiruvni amalga oshiradilar.

Davlat bojxona xizmati organlari bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganlarni ushlab, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar va tezkor-qidiruv tadbirlarini ham o‘tkazishga haqlidirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo‘linmalari soliq va valyuta to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotganlarni ushlab, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar va tezkor-qidiruv tadbirlarini ham o‘tkazishga haqlidirlar.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta‘minlash departamenti hamda uning hududiy boshqarmalari voyaga etmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, ota-onani moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlash, sud qarorini bajarmaslik, shuningdek band solingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘limlari bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalariga oid jinoyatlarning oldini olish yoki ularga yo‘l qo‘ymaslik, dalillarni to‘plash va saqlash, jinoyat natijasida etkazilgan moddiy zararni aniqlash va qoplanishini ta‘minlash borasida surishtiruvni amalga oshiradilar.

Ichki ishlar organlarining surishtiruv organi sifatidagi vazifalari va vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi *Ichki ishlar vazirligi* va uning tuzilmalari murakkab tuzilishga ega. Ichki ishlar vazirligi, uning boshqarma va

bo'limlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat.

Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri o'z vakolatlari doirasidagi ishlar bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni o'tkazish, tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar hamda milliy xavfsizlikni saqlash bo'yicha boshqa tadbirlarning o'tkazilishiga ko'maklashadilar.

Ichki ishlar organlari ishining muhimligi huquqiy davlatni shakllantirish, O'zbekiston Respublikasida huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish zaruriyati, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha qat'iy tadbirlar ko'rish munosabati bilan oshib bormoqda.

II Olari o'z huquqi doirasida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoiy va boshqa g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qiladi, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari tizimi:

1. Ichki ishlar vazirligi;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
3. Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi, viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, transportdagi ichki ishlar boshqarmasi, Jazoni ijro etish bosh boshqarmasi;
4. Alohida bosh boshqarmalar va boshqarmalar (Jinoyat qidiruv va terrorizmga qarshi kurash bosh boshqarmasi, Tergov bosh boshqarmasi, Post-patrul xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklarning oldini olish bosh boshqarmasi, Yo'l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi, Xorijga chiqish, kirish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi, Respublika «Quriqlash» birlashmasi va boshqa boshqarmalar, markazlar va bo'limlar);
5. Tumanlar, shaharlar, tarmoq ichki ishlar boshqarma va bo'limlari, ularga tenglashtirilgan maxsus ichki ishlar bo'limlari, markazlar, jazoni ijro etish muassasalari, ichki ishlar organlarining o'ta muhim va toifalangan obyektlardagi bo'linmalari, ichki ishlar organlarining shaharcha bo'limlari, bo'linmalari va tayanch punktlari;
6. IIVga qarashli ta'lim, sport va tibbiyot muassasalari;

7. Ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etiladigan boshqa bo‘linmalar va tashkilotlar.

Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari:

– fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilish;

– konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish;

– qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlash;

– huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining vazifalariga qonuniylikni muhofaza qilish va qonun ustuvorligini ta’minlash; jamiyat va davlat manfaatlarini jinoyiy va boshqa g‘ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish; jamoat tartibini saqlash; jamoat xavfsizligini ta’minlash; jinoyatchilikka qarshi kurash; jinoyatlarni to‘la va o‘z vaqtida fosh qilish; aholiga ijtimoiy va huquqiy yordam ko‘rsatishda qatnashish; ma’muriy, jinoyiy javobgarlikka tortish, jazolarni ijro etish va boshqa vazifalarni bajaradilar.

Ichki ishlar vazirligining vazifalari:

ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlikning oldini olish, kadrlar bilan ishlash va qonuniylikni mustahkamlash borasidagi ishlariga umumiy rahbarlik qiladi va bu ishlarni muvofiqlashtiradi, metodik jihatdan ta’minlaydi;

jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash respublika dasturini tayyorlaydi va amalga oshiradi, mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha respublika dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

huquq-tartibot masalalari yuzasidan respublika qonunchiligini ishlab chiqishda takliflar kiritadi va qatnashadi;

o‘z huquqi doirasida ichki ishlar organlari faoliyatini huquqiy jihatdan ta’minlaydi;

jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlash bo‘yicha respublika tadbirlarini o‘tkazishni kuchlar va vositalar bilan boshqaradi;

ichki ishlar organlarida rejalashtirish, nazorat qilish va axborot-analitik faoliyatning yagona tizimini belgilaydi, tashkil etadi va ta’minlaydi;

republika ma’lumotnoma-axborot fondlarini, operativ-qidiruv va kadrlarni hisobga olishni shakllantiradi, respublika kriminalistik hisobot-axborot tizimini tuzadi, ichki ishlar organlari faoliyati masalalari yuzasidan davlat statistika hisobotini olib boradi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan transport ichki ishlar organlariga, ichki ishlar organlari o‘quv yurtlariga rahbarlikni amalga oshiradi;

jinoyatlar hamda jamiyatga qarshi boshqa xatti-harakatlarning o‘z vaqtida oldini olish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi, vazirlik, idoralar, muassasalar va tashkilotlarga jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi va boshqa huquq-tartibotni buzish hollarining sabablarini hamda ana shu xatti-harakatlarni sodir qilishga sabab bo‘luvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi;

fuqarolar, davlat, jamoat, kollektiv, qo‘shma, kooperativ hamda boshqa korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning iqtisodiy manfaatlarini g‘arazli jinoiy xurujlardan himoya qilishni hamda ular tufayli etkazilgan zararining o‘rni qoplanishini, jinoiy jazo beriladigan chayqovchilikka, poraxo‘rlikka, soxta pul yasashga va valyuta operatsiyalari qoidalari-ning buzilishiga qarshi kurashni ta‘minlaydi;

operativ-qidiruv ishlarini tashkil etadi va amalga oshiradi;

qonunchilik tomonidan ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan jinoyatlar haqidagi dastlabki so‘roq va tergovni ta‘minlaydi;

tergov va suddan yashirinib yurgan ayblanuvchi, hukmni ijro etish va jazoni o‘tashdan bo‘yin tovlab yurgan jazoga tortilgan shaxslarni, bedarak yo‘qolgan va qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslarni qidirish ishlarini tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasi hududida qidiruv e‘lon qilingan jinoyatchilarni va boshqa shaxslarni qidirishda ishtirok etadi;

Ichki ishlar vazirligining harbiy va maxsus temir yo‘l yuk tashishlarini, hukm qilinganlarni havo, temir yo‘l tarmoqlari orqali tashishda soqchilik qilishni va etapdan etapga etkazishni tashkil etishni amalga oshiradi.

boshqa davlat va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda bolalarning nazoratsiz qolishining oldini olish hamda balog‘atga etmaganlar tomonidan huquq buzishlarga qarshi kurash ishlarini olib boradi;

sudlarning ajrimlari, prokurorlarning qarorlari va tergovchilar va dastlabki tergovni olib borgan shaxslar qarorlarining, shuningdek, qonunchilik tomonidan ichki ishlar organlari zimmasiga ijro etish yuklatilgan majbur etishning boshqa choralarini qo‘llanishi haqidagi boshqa qarorlarning ijrosini ta‘minlaydi;

hibsga olinganlar va ushlanganlarni qo‘riqlab va kuzatib borishni tashkil etishni ta‘minlaydi;

ozodlikdan mahrum etishga, hamda qonunchilik tomonidan ichki ishlar organlarining zimmasiga ijro etish yuklatilgan jazoning boshqa turlari bo'yicha hukm qilingan shaxslarga nisbatan sud hukmlarining ijro etilishini tashkil etishni ta'minlaydi;

jazoga hukm etilganlar axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash ishlarini belgilangan tartibda tashkil etadi, qonun tomonidan belgilangan jazoni o'tash rejimiga qat'iy rioya qilinishini, jazoga hukm etilganlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, ular bilan siyosiy-tarbiyaviy ishlar olib borishni tashkil etadi, manfaatdor vazirliklar va muassasalar bilan birgalikda jazoga hukm etilganlarga umumiy ta'lim va hunar-texnika ta'limi berishni tashkil etadi va amalga oshiradi, sodir etilgan jinoyatning xarakteri va ijtimoiy xavfiligini, jazoga hukm etilganning shaxsiyati, shuningdek, uning xulq-atvori va mehnatga munosabatini hisobga olgan holda jazoga hukm etilganlar axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash vositalarini tanlashda yakka tartibda ish olib borishni ta'minlaydi, bunda pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar sohasida erishilgan yutuqlardan keng foydalanadi;

ozodlikdan mahrum etilgan joylardan bo'shatilgan shaxslarning ishga joylashishiga va turmushda o'z o'rnini topishiga ko'maklashadi;

ozodlikdan mahrum etilgan joylardan bo'shatilgan shaxslarni qonunchilikka muvofiq ma'muriy nazorat qilib turadi, shuningdek, qonun tomonidan belgilangan hollarda shartli ravishda jazoga hukm etilgan va shartli ravishda jazoni o'tashdan ozod etilgan shaxslarni nazorat qilib boradi;

respublika hududida pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlaydi, chegara qo'shinlari bilan birgalikda fuqarolarning chegara rejimi qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda chet elga chiqish va O'zbekistonga kelish uchun ruxsatnoma beradi, chet ellik va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida ular uchun belgilangan yashash va ko'chish qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qilib boradi;

qonunchilikka muvofiq o't ochish va sovuq qurollar, o'q-dorilar, portlovchi moddalar, kuchli ta'sir etuvchi zaharli, narkotik va radioaktiv moddalarni sotib olish, saqlash va tashishni, o'q otish tirlari va otishma joylarini, qurol-yarog'larni tuzatish va pirotexnika korxonalarini, ov va sport qurollari bilan savdo qiluvchi magazinlarni ochishni va ularning ishlashini nazorat qilib boradi;

belgilangan tartibda poligrafiya hamda shtempel-gravyura korxonalarini ochish va ularning ishini, shuningdek, poligrafiya asbob-uskunalarini sotib olish, saqlash hamda muhr va shtamlarni tayyorlashni nazorat qilib boradi;

respublikada davlat yong'in nazoratini amalga oshiradi, aholi yashaydigan joylar va xalq xo'jaligi obyektlarini yong'indan saqlashni ta'minlaydi, boshqa vazirliklar va idoralarning yong'indan saqlash bo'linmalari ishini nazorat qiladi va boshqaradi, respublika yong'indan saqlash tashkilotlarining birgalikda ish olib borish tartibini belgilaydi;

tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda holatlar ro'y berganda odamlarni va mol-mulkni qutqarishda qatnashadi, bunda jamoat tartibi saqlanishini ta'minlaydi, mol-mulkni muhofaza qilishni tashkil etadi, bunday ishlarga aholini, shuningdek, transport hamda korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga tegishli vositalarni qutqaruv ishlarini va kechiktirib bo'lmaydigan avariya – qayta tiklash ishlarini o'tkazishga jalb qilishga ko'maklashadi;

huquqbuzarlikdan va baxtsiz hodisalardan zarar ko'rgan hamda jamoat joylarida og'ir ahvolda qolgan shaxslarga shoshilinch yordam ko'rsatishni tashkil etadi;

shaharlarda va aholi yashaydigan boshqa joylarda yo'l harakatini va avtomobil yo'llarida qatnovni boshqarishni tashkil etadi, vazirliklar, idoralar va transport tashkilotlarining avtomototransport hamda shahar elektr transporti avariylarining oldini olish chora-tadbirlarini o'tkazishlarini nazorat qiladi;

korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga tegishli avtomototransport vositalarini ro'yxatga oladi va hisobga olib boradi, shuningdek, ana shu transport vositalarining texnika ahvolini nazorat qilib turadi;

ko'chalar, avtomobil yo'llari va ulardagi yo'l inshootlarining bexatar harakat qilishni ta'minlaydigan ahvolda bo'lishini nazorat qilib boradi, ulardan foydalanish sharoitlarini yaxshilash tadbirlarini ko'radi, avtotransportdan foydalanish harakat xavfsizligiga tahdid solgan hollarda ko'chalar va avtomobil yo'llarining ayrim uchastkalarida avtotransport hamda piyodalar qatnovini belgilangan tartibda cheklaydi va taqiqlaydi;

korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa obyektlarni, shuningdek, fuqarolarning uylarini belgilangan tartibda muhofaza qilishni tashkil etadi va amalga oshiradi, idoraviy qo'riqlashni inspeksiya qiladi, qo'riqlashning ishonchliligini va bu ishlarga xarajatlarni kamaytirish choralari ko'radi;

o'ta xavfli davlat jinoyatchiligiga qarshi kurashda hamda davlat xavfsizligini saqlashga doir boshqa tadbirlarni o'tkazishda yordam beradi;

respublika va mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hisobiga Vazirlik tizimi organlari, bo'linmalari, muassasalari va tashkilotlarini belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlaydi;

ichki ishlar organlari shaxsiy sostavining kasb malakasini oshirish va intizomini mustahkamlash tadbirlarini amalga oshiradi, shaxsiy sostav tomonidan ichki ishlar organlari faoliyatini reglamentlovchi xizmatni o'tash haqidagi nizomlar, ustavlar va yo'riqnomalar talablarining bajarilishini ta'minlaydi;

belgilangan tartibda va o'z huquqlari doirasida ichki ishlar organlari shaxsiy sostaviga maxsus unvonlar beradi;

ichki ishlar organlariga ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda faol ko'maklashgan Vazirlik tizimining alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarini va fuqarolarni belgilangan tartibda ko'krakka taqiladigan nishonlar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlaydi, shuningdek, rag'batlantirishning boshqa turlarini qo'llaydi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda ko'chalar, hovlilar va aholi yashaydigan boshqa joylar hududini, shuningdek, mehnatkashlar dam oladigan shahardan tashqari joylar va cho'miladigan joylarda sanitariya qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilib boradi;

epidemiya va epizootiyalarga qarshi kurashda, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda, brakonerlikka hamda ov va baliqchilik qoidalarining buzilishiga qarshi kurashda karantin tadbirlari va choralari amalga oshirishda tegishli idoralarga yordam beradi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida sanitariya nazoratini tashkil etadi, davolash-profilaktika va sanatoriya-kurort muassasalarida ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibiga tibbiy va sanatoriya-kurort xizmati ko'rsatishni ta'minlaydi;

ichki ishlar organlari tizimida bug' qozonlari nazorati inspeksiyasi ishini tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi o'z huquqi doirasiga taalluqli masalalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar va boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qiladi;

jamoat birlashmalari, tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda ish olib boradi;

«Postda» «Na postu» gazetalarini nashr etadi;

o'z huquqi doirasida harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqarolar mudofaasi tadbirlarini amalga oshiradi;

fuqarolardan tushgan takliflar va arizalarning o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

respublikalarning ichki ishlar organlari bilan yozma va boshqa aloqalar o'rnatadi;

ikki tomonlama va ko‘p tomonlama bitimlarning shartlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshiradi;

xavfli yuklar, qurol-yarog‘lar, harbiy texnika, harbiy mol-mulklar, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek, harbiy tarkiblar tranziti chog‘ida qonunchilikka muvofiq xulosalar beradi va nazoratni amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlari faoliyatining huquqiy asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi va boshqa qonunlari;
- O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan shartnomalari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki ishlar organlari faoliyatiga oid farmonlari va qarorlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ichki ishlar organlari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari.

II Olari faoliyatining asosiy prinsiplari:

- qonuniylik;
- yagonalik;
- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ushbu huquqlar, erkinliklar va qonuniy manfaatlarni hurmat qilish;
- ochiqlik va shaffoflik.

Ichki ishlar organlarining surishtiruv organi sifatidagi vazifalari va vakolatlari ularning huquqlari va majburiyatlarida bevosita namoyon bo‘ladi. Surishtiruv organi sifatida ichki ishlar organlarining vakolatlari quyidagilar kiradi:

jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar va hodisalar to‘g‘risidagi arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni, shu jumladan elektron shakldagi shunday arizalarni, xabarlarni va boshqa axborotni qabul qilishi hamda ro‘yxatga olishi, murojaat etuvchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda keyinchalik xabar bergan holda ular bo‘yicha o‘z vaqtida choralar ko‘rishi;

jinoyat, ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyga, hodisa joyiga darhol etib kelishi, g‘ayriqonuniy qilmishlarga chek qo‘yishi, fuqarolarning xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etishi, jinoyat, ma‘muriy huquqbuzarlik

sodir etilganligi holatlarini, hodisa holatlarini hujjatlashtirishi, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, hodisa izlarining saqlanishini ta'minlashi;

jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyda yoki hodisa joyida jabrlangan fuqarolarga, shuningdek nochor ahvolda qolgan fuqarolarga birinchi tibbiy yordam yoki boshqa xil yordam ko'rsatilishini tashkil etishi;

o'z vakolatlari doirasida jinoyatlar faktlari bo'yicha jinoyat ishlarini qo'zg'atishi, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritishi;

jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash, ularga chek qo'yish va ularni fosh etish, shuningdek ularni tayyorlash va sodir etishga aloqador bo'lgan shaxslarni aniqlash hamda topish choralarini ko'rishi;

ayrim protsessual harakatlarni bajarishda surishtiruv va tergov organlariga, sudga O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda yordam berishi;

jinoyat ishlari bo'yicha, zarur bo'lgan hollarda esa jinoyat ishi qo'zg'atilguniga qadar, ekspertizalarni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha ekspertizalarni, shuningdek tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish maqsadida narsalar va hujjatlarni tekshirishni tayinlashi hamda o'tkazishi;

shaxsi tanib olinmagan murdalarning shaxsini aniqlashi;

chaqiruv bo'yicha kelishdan bo'yin tovlayotgan shaxslarni majburiy keltirish to'g'risidagi sud ajrimlarini, prokurorning, tergovchining va surishtiruvchining qarorlarini bajarishi;

uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasining ijro etilishini nazorat qilishni amalga oshirishi;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi, ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashi hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rishi;

qonunda nazarda tutilgan shaxslarning profilaktik hisobini yuritishi;

profilaktika tadbirlarini rejalashtirish va o'tkazish maqsadida jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning, ularni sodir etgan shaxslarning, huquqbuzarliklardan jabrlanganlarning, qidiruv e'lon qilinganlarning, bedarak yo'qolganlarning, o'qotar qurolga ega bo'lganlarning hisobini yuritishi, ushbu ma'lumotlarning tahlilini amalga oshirishi;

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarni aniqlashi va ular bilan yakka tartibda profilaktika ishlarini olib borishi;

voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishi;

xavf tahdid solgan taqdirda, sudyalarning, prokurorlarning, tergovchilarning, surishtiruvchilarning, jabrlanuvchilarning, guvohlarning hamda jinoyat-protsessi boshqa ishtirokchilarining, shuningdek ular oila a'zolarining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki himoya qilinishini ta'minlash choralarini ko'rishi;

ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxslardan olib qo'yilgan, shuningdek topilgan va ichki ishlar organlariga topshirilgan hujjatlar, qimmatbaho buyumlar, ashyolar va boshqa mol-mulkning saqlanishini ta'minlashi, ularni qonuniy egalariga qaytarish yoki tegishli davlat organlari yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ixtiyoriga topshirish choralarini ko'rishi;

fuqarolar va mansabdor shaxslardan qalbakilik belgilari bo'lgan hujjatlarni, shuningdek tegishli asoslarsiz ularda bo'lgan, muomalada bo'lishi taqiqlangan yoki cheklangan narsalarni bayonnoma tuzgan hamda uning ko'chirma nusxasini mazkur fuqarolarga va mansabdor shaxslarga bergan holda olib qo'yishi;

topib olingan va ixtiyoriy ravishda topshirilgan sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallar, pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari, alyumin kukunlari va qurumlarining tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan qabul qilinishi hamda saqlanishi, shuningdek ularning realizatsiya qilinishi yoki yo'q qilib tashlanishini ta'minlash choralarini ko'rishi;

xizmatga doir axborotning, shuningdek xizmat majburiyatlarini bajarishi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiylikini va saqlanishini ta'minlashi;

huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida, shuningdek boshqa sohalarda ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyatni amalga oshirishi, o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda fan va texnologiyalar yutuqlarini rivojlantirishi hamda ulardan foydalanishi, yangi usullarni, texnik va boshqa vositalarni joriy etishi;

ma'lumot-axborot fondlarini shakllantirishi, kriminalistik hisob-axborot tizimini yaratishi, tezkor-qidiruv va kadrlarga oid hisoblarni, davlat statistika hisobotini va boshqa statistika hisobotini yuritishi;

fuqarolardan qonun hujjatlariga rioya etishni, g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni tugatishni talab qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda esa majburlov choralarini qo'llash;

o'z xizmat majburiyatlarini amalga oshirish chog'ida fuqarolarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarini tekshirish, agar ularda qurol, o'q-dorilar, portlovchi, radioaktiv yoki zaharli moddalar, portlatish qurilmalari, pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari yoxud muomalada bo'lishi taqiqlangan yoki cheklangan boshqa narsalar bor deb hisoblashga asoslar mavjud bo'lganda esa, fuqarolarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni, ularning ashyolarini, qo'l yukini, bagajini ko'rikdan o'tkazishni amalga oshirish hamda mazkur narsalar, vositalarni va moddalarni olib yurish hamda saqlash uchun qonuniy asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda ularni olib qo'yish;

agar tergovga qadar va tergov harakatlarini, tezkor-qidiruv va qidiruv tadbirlarini o'tkazish, jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik, hodisa holatlarini hujjatlashtirish yoki jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik izlarini, hodisa holatlarini saqlab qolish uchun zarur bo'lsa, fuqarolardan jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyni, hodisa joyini tark etishni talab qilish;

sodir etilayotgan jinoyatlarga chek qo'yish, shuningdek ularni sodir etayotgan shaxslarni ta'qib qilish hamda ushlab uchun, agar buning kechiktirilishi fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini, jamiyat va davlat xavfsizligini tahdid ostiga qo'yishi mumkin bo'lsa, tashkilotlar va fuqarolarning hududiga, turar joylariga va boshqa binolariga, er uchastkalariga, transport vositalariga sutkaning istalgan vaqtida to'sqinliksiz kirish (oshib tushish);

fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan yoki qidiruvda bo'lgan shaxslarni aniqlash hamda ushlab maqsadida fuqarolarga tegishli bo'lgan turar joylarda va boshqa binolarda, ularga qarashli er uchastkalarida fuqarolarning roziligi bilan, tashkilotlar joylashgan hududda va binolarda ularning ma'muriyati ruxsati bilan yoki mulkdorning roziligi bilan bo'lish;

jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvni amalga oshirish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish, jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar va hodisalar haqidagi arizalar hamda xabarlarini ko'rib chiqish doirasida davlat organlariga va boshqa tashkilotlarga kirish, zarur hujjatlar va materiallar bilan tanishish, shuningdek davlat organlaridan, boshqa tashkilotlardan hamda fuqarolardan ma'lumotlarni va boshqa zarur hujjatlar hamda materiallarni so'rash va olish;

terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilayotgan zonada jismoniy shaxslarni shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni, ulardagi ashyolarni, transport vositalarini hamda olib o'tilayotgan yuklarni ko'rikdan o'tkazishni, shu

jumladan nazorat qilishning texnik va boshqa vositalarini qoʻllagan holda koʻrikdan oʻtkazishni amalga oshirish;

ichki ishlar organlari yurituvidagi ishlar va materiallar boʻyicha fuqarolarni, mansabdor shaxslarni ichki ishlar organlariga chaqirtirish, ulardan zarur tushuntirishlar, maʼlumotlar, hujjatlar, maʼlumotnomalarni va ularning koʻchirma nusxalarini olish;

fuqarolarni ularning roziligi bilan hamkorlikka jalb etish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini taʼminlashda ichki ishlar organlariga yordam bergan hamda alohida xizmat koʻrsatgan fuqarolarni taqdirlash;

tashkilotlar va fuqarolardan ichki ishlar organlarining faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan axborotni bepul olish, bundan qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilangan hollar mustasno;

huquqbuzarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish toʻgʻrisida davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga bajarilishi shart boʻlgan taqdimnomalar kiritish;

jinoyatlarning va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularni fosh etish maqsadida zarur maʼlumotlar bazalariga ega boʻlgan axborot tizimlarini texnik va maxsus vositalardan foydalangan holda yaratish;

jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarni, shuningdek oʻziga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushlab, ichki ishlar organlariga olib borish va qamoqda saqlash;

jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan harbiy xizmatchilarni ular harbiy patrulga, harbiy komendantga, harbiy qismlar komandirlariga topshirilguniga qadar ushlab turish;

qamoqda saqlanayotgan shaxslarni, shaxsini aniqlash imkoni boʻlmagan taqdirda boshqa ushlab turilgan shaxslarni, shuningdek qonunga muvofiq oʻzga shaxslarni roʻyxatga olishni, fotosuratga olishni, ularning ovozi yozib olishni, ularni kino- va videotasvirga tushirishni, barmoq izlarini olishni amalga oshirish;

davlat organlari tomonidan taʼsis etilgan ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan jinoyatlar holatlarini, ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash, surishtiruv, tergov organlaridan, suddan yashirinib yurgan, jinoiy jazoni va maʼmuriy jazoni oʻtashdan boʻyin tovlayotgan shaxslarni, shuningdek bedarak yoʻqolgan shaxslarni qidirish uchun bepul foydalanish;

zarur boʻlgan hollarda, transport vositalarini toʻxtatish hamda uni boshqarish va undan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarni, transport

vositasiga, shuningdek tashilayotgan yuklarga oid hujjatlarni tekshirish, haydovchi yoki yukni kuzatib borayotgan shaxs bilan birgalikda transport vositasini va yuklarni tashqi koʻzdan kechirish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda transport vositalarini va shaxslarni ushlashni, koʻrikdan oʻtkazishni amalga oshirish, shaxslarni transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarni olib qoʻyish, shuningdek transport vositalarini saqlab turiladigan joyga qoʻyish uchun olib borish;

jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ularning organizmida alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga taʼsir koʻrsatuvchi boshqa moddalar mavjudligini aniqlash uchun tekshirishni amalga oshirish;

tashkilotlarda hamda fuqarolarda litsenziyalarsiz va ruxsatnomalarsiz turgan oʻqotar qurolni, uning oʻq-dorilarini, portlovchi materiallarni, pirotexnika buyumlarini, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni va ularning prekursorlarini, alyumin kukunlari va qurumlarini belgilangan tartibda olib qoʻyishni, tashishni hamda saqlash uchun joylashtirishni amalga oshirish, ularni yoʻq qilib tashlash choralarini koʻrish.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. «Ichki ishlar organlarida surishtiruv» maxsus kursining predmeti va uni oʻrganishning ahamiyati nimalardan iborat?

2. Surishtiruv faoliyati nima?

3. Surishtiruvning vazifalari deganda nimani tushunasiz?

4. Surishtiruv organlari faoliyatining mazmuni deganda nimani tushunasiz?

5. Surishtiruv organlari tizimini aytib bering.

6. Ichki ishlar organlarining surishtiruv organi sifatidagi vazifalari-ga nimalar kiradi?

7. Ichki ishlar organlarining surishtiruv organi sifatidagi vakolatlarini aytib bering.

8. Ichki ishlar organlari tezkor qidiruv xizmatlarining surishtiruv faoliyatining mazmuni tushuntiring.

9. Ichki ishlar organlari profilaktika xizmatlarining surishtiruv faoliyatining mazmuni tushuntiring.

10. Ichki ishlar organlari boshqa xizmatlarining surishtiruv faoliyatining xususiyatlarini tushuntiring.

II bob. JINOYAT HAQIDAGI ARIZA VA XABARLARNI QABUL QILISH, KO‘RIB CHIQISH VA HAL ETISH TARTIBI

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va hal etish mazmuni

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish va hal etish O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi talablaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ichki ishlar organlarida jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish tartibi IIV tomonidan tasdiqlangan normativ huquqiy hujjatlar bilan belgilangan. Tergovga qadar tekshiruv amalga oshirilishi shart bo‘lgan jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va muassasalarida qabul qilish, ro‘yxatga olish, hisobini yuritish va hal etishning; hal etilgan materiallar va ular yuzasidan qabul qilingan qarorlarni ro‘yxatga olish va hisobini yuritishning hamda ushbu jarayonlarni nazorat qilishning yagona tartibi O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2016-yil 12-noyabrdagi «Ichki ishlar organlarida jinoyat va hodisalarga oid arizalar, xabarlar hamda boshqa ma‘lumotlarni qabul qilish, ro‘yxatga olish, ko‘rib chiqish va hisobini yuritish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida»gi 180-sonli buyrug‘i bilan belgilangan.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma‘lumotlarni qabul qilish deganda – qonunga va mazkur yo‘riqnomaga muvofiq jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma‘lumotlarni olish vakolatiga ega bo‘lgan ichki ishlar organi mansabdor shaxsining harakati tushuniladi.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma‘lumotlarni ro‘yxatga olish deganda kelib tushgan har bir jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar, boshqa ma‘lumotlarga tartib raqam berish va o‘rnatilgan tartibda hisob hujjatida uning qisqacha mazmunini qayd etish tushuniladi.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma‘lumotlarning hisobini yuritish – bu ichki ishlar organlariga kelib tushgan va ro‘yxatga olingan jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarning soni va tafsilotini hamda ularni hal etish natijalarini belgilangan statistik hisobot shaklida aks ettirishdir.

Jinoyat va hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mazmuni, ro‘yxatga olish shakli va ko‘rib chiqish tartibiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

- ichki ishlar organlariga kelib tushgan va jinoyat-protsessual qonunga ko‘ra jinoyat ishini qo‘zg‘atishga sabab bo‘ladigan jinoyatning yaqqol izlariga oid ma‘lumotlar aks etgan ariza va xabarlar;
- jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma‘lumotlar.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar – bu ichki ishlar organlariga kelib tushgan, O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunchiligida o‘rnatilgan protsessual qoidalarga binoan ko‘rib chiqilishi talab etiladigan ma’lumotlardir.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlariga quyidagilar kiradi:

– bila turib yolg‘on xabar berish uchun jinoiy javobgarlik haqida ogohlantirilgan, bu xususda bayonnomada qayd qilingan va arizachining imzosi bilan tasdiqlangan og‘zaki ariza;

– fuqarolarning zarur rekvizitlari bo‘lgan va jinoyat-protsessual qonunga muvofiq rasmiylashtirilgan yozma arizalari va xatlari;

– fuqaroning bedarak yo‘qolganligi haqidagi og‘zaki yoki yozma ariza va xabarlar;

– «Mahalla posbonlari» va boshqa jamoat tashkilotlarining yozma xabarlarini;

– korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslarning yozma xabarlarini;

– jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risidagi arz.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma’lumotlar – bu jinoyat ishi qo‘zg‘atish sababi bo‘lmaydigan, biroq jinoyat alomatlari bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilishini talab qiladigan xabarlardir.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa ma’lumotlarga quyidagilar kiradi:

– fuqarolar, jamoat birlashmalari vakillari va mansabdor shaxslarning – telefon, telefaks, telegraf va boshqa aloqa vositalari orqali bergan xabarlarini;

– sog‘liqni saqlash muassasalari xodimlarining – jinoiy xatti-harakatlar oqibati sifatida taxmin qilinayotgan, fuqarolarning badanga shikast etganligi haqidagi murojaatlari yoki behush holatda bo‘lgan shaxslar kelib tushganligi to‘g‘risidagi xabarlarini;

– ichki ishlar organlarining maxsus muassasalari (ma’muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash muassasasi, ish va yashash joyi noma’lum bo‘lgan shaxslarni rehabilitatsiya etish markazi, voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazi, vaqtincha saqlash hibsonasi, jazoni ijro etish muassasasi) ma’muriyatining – jinoyat alomatlari mavjudligi taxmin qilingan holatlar haqidagi xabarlarini;

– xorijga chiqish kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish xizmatlari xodimlarining – fuqarolar tomonidan pasporti yo‘qolganligiga oid jinoyat haqida shubha tug‘diruvchi xabarlarini;

– yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarining – yo‘l-transport hodisalari va ularning oqibatlari haqidagi xabarlar;

– yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tumanlararo ro‘yxatga olish-
imtixonlash bo‘limi xodimlarining – fuqarolarning avtotransportni bosh-
qarish huquqini beruvchi guvohnomalari, avtomobilning texnik pasport-
lari va davlat raqam belgilari yo‘qolganligiga oid jinoyat haqida shubha
tug‘diruvchi xabarlar;

– qo‘riqlash xizmati xodimlarining – qo‘riqlash signalizatsiyasi
uskunalarining ishlab ketganligi to‘g‘risidagi xabarlar;

– Davlat yong‘in xavfsizligi xodimlarining – yong‘inlar va o‘t
ketish to‘g‘risidagi xabarlar;

– matbuot, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalari-
da, shu jumladan internet orqali e‘lon qilingan maqolalar va xat-xabarlar;

– huquqbuzarlik holatlariga oid fuqarolarning murojaatlari to‘g‘ri-
sidagi sug‘urta kompaniyalarining xatlari;

– jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashni ta‘min-
lashga daxldor boshqa hodisalar, voqealar va holatlar to‘g‘risidagi xabarlar;

– avariya, yong‘inlar, epizootiyalar, tabiiy ofatlar, odamlar bilan
bog‘liq baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

– ichki ishlar organlari xodimlarining bevosita o‘zlari aniqlagan
tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyat va
hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni aks ettiruvchi bildirgilari.

Shaxslarning arizalarida fuqaroning familiyasi (ismi, otasining
ismi), uning yashash joyi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsatilgan va jinoyat
yoki boshqa hodisaning tafsilotlariga oid murojaatning mohiyati bayon
etilgan bo‘lishi kerak.

Yuridik shaxslarning kelgan xatlarda yuridik shaxsning to‘liq nomi,
uning joylashgan eri (pochta manzili) to‘g‘risidagi ma‘lumotlar ko‘rsa-
tilgan va jinoyat yoki boshqa hodisaning tafsilotlariga oid murojaatning
mohiyati bayon etilgan bo‘lishi kerak. Ariza, xat yoki boshqa shakldagi
murojaat davlat tilida va boshqa tillarda berilishi mumkin.

Yozma ariza, shikoyat va xatlar murojaat etuvchi jismoniy shaxs-
ning imzosi yoki murojaat etuvchi yuridik shaxs rahbarining yoxud
vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Jismoniy
shaxsning yozma murojaatini murojaat etuvchining imzosi bilan tasdiq-
lash imkoni bo‘lmagan taqdirda, bu murojaat uni yozib bergan shaxsning
imzosi bilan tasdiqlanib, uning familiyasi (ismi, otasining ismi) ham
qo‘shimcha ravishda yozib qo‘yiladi.

Elektron murojaat elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron hujjat shaklida, qonunda belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi kerak.

Jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi), uning yashash joyi to'g'risidagi ma'lumotlar yoki yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan eri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoxud ular haqida yolg'on ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek imzo (elektron raqamli imzo) bilan tasdiqlanmagan murojaatlar anonim murojaatlar deb hisoblanadi.

Anonim murojaatlar ichki ishlar organlarining hisob hujjatlarida ro'yxatga olinmaydi, ko'rib chiqilmaydi va jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'lmaydi. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan anonim murojaatlar tezkor xizmatlar tomonidan jinoyatlarning oldini olish, ochish va fosh etishda ma'lumot-axborot tariqasida foydalaniladi.

Murojaat etuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning vakillari orqali berilgan murojaatlarga ularning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan o'rnatilgan tartibda jinoyat haqidagi xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va tekshiruvni o'tkazishga vakolatli bo'lgan barcha mansabdor shaxslar (dastlabki tergov organlari; surishtiruv organlari; prokurorlar; tergovchilar; surishtiruvchilar; tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi tezkor xizmatlarning xodimlari) yuqorida keltirilgan tartibga rioya qilishlari shart.

Ichki ishlar organlarida jinoyatlar va hodisalar to'g'risidagi ariza va xabarlarni kecha-kunduz qabul qilinishi, ularni ro'yxatga olish va hisobini yuritishning to'liqligi, ko'rib chiqish va hal etishning qonuniyligini ta'minlash ishlarini tashkil etish hamda bajarilishini nazorat qilish, shuningdek jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hal etish tartibining buzilganligi uchun IIB boshliqlari shaxsan tegishli javobgar hisoblanadi.

Ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash muassasalari hamda aniq yashash va ish joyi bo'lmagan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markazlari ma'muriyatiga kelib tushadigan jinoyatlar va hodisalar to'g'risidagi xabarlar zudlik bilan shu muassasalar joylashgan shahar-tuman ichki ishlar organlariga yuboriladi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarning turlari, ularni qabul qilish va ro'yxatga olish tartibi

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni berish muddatlari qonun hujjatlarida belgilanmagan. Jinoyatlar va hodisalar haqidagi xabarlar, ularning sodir etilgan joyi va vaqti, shuningdek, xabarning to'liqligidan qat'iy nazar, har qanday ichki ishlar organining tezkor navbatchisi, ularning yordamchilari va belgilangan tartibda navbatchilikka tayinlangan xodimlar tomonidan kechayu-kunduz qabul qilinadi.

Ichki ishlar organlarining kotibiyatiga jinoyatlar va hodisalar haqidagi pochta, telegraf orqali yoki boshqa yo'llar bilan kelib tushgan ariza va xabarlar kelgan xat-xabarlarni ro'yxatga olishning umumiy qoidalariga ko'ra ro'yxatga olinadi va bu haqda ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosariga axborot beriladi. Ichki ishlar organi rahbari ma'lumot mazmunidan kelib chiqib, ariza yoki xabarni Navbatchilik qismida yuritiladigan Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni ro'yxatga olish kitobi (1-shakl kitobi) yoki Ichki ishlar organlariga hodisalar haqida telefon, telegraf orqali, qo'riqlash va yong'in signalizatsiyasi uskunalari-ning ishlab ketishi natijasida kelib tushgan ma'lumotlarni ro'yxatga olish jurnalida (2-shakl jurnal) ro'yxatga olish to'g'risida yozma ko'rsatma beradi va uning tekshirilishini tashkil etadi.

Jinoyat va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnaliga qayd etmasdan turib tekshirish uchun yoki ijro etish uchun berish qat'iy taqiqlanadi. Ichki ishlar organlariga arizachi (fuqaro yoki mansabdor shaxs) tomonidan bevosita taqdim etilgan jinoyat va hodisalar haqidagi yozma ariza va xabarlarni kotibiyatda ro'yxatga olib tekshirish taqiqlanadi.

Fuqarolar navbatchilik qismi, ichki ishlar organining qabulxonasi, surishtiruvchi, tergovchi yoki ichki ishlar organining boshqa xodimiga jinoyatlar to'g'risida og'zaki ariza bilan murojaat qilganlarida jinoyat-protsessual qonun talablariga muvofiq og'zaki arizani qabul qilish bayonnomasi rasmiylashtiriladi. Bayonnomada arizachi, uning yashash va ishlash joyi, shuningdek, uning shaxsiy hujjatlari to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi kerak. Agar arizachi hujjatini ko'rsata olmasa, uning shaxsini tekshirish uchun boshqa choralar ko'rilishi kerak. Og'zaki arizani qabul qilgan mansabdor shaxs arizachiga bila turib yolg'on xabar berganlik to'g'risida jinoiy javobgarlikka tortilishini tushuntirib, ogoxlantirishi va bu haqda bayonnomaga imzo qo'ydirishi shart.

Aybini boʻyniga olish toʻgʻrisidagi arz jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi. Bayonnomada jinoyat sodir etish holatlari xususidagi maʼlumotlar arz qiluvchi nomidan, iloji boricha soʻzma-soʻz aks ettiriladi. Bayonnoma arizachi va arizani qabul qilgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi va bunda arizachi bila turib yolgʻon xabar berganlik toʻgʻrisida javobgarlikka tortilishi yuzasidan ogohlantirilmaydi.

Profilaktika inspektori xizmat hududida jinoyat belgilari mavjud boʻlgan holatlarni aniqlanganida amaldagi qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan choralarni koʻradi va shundan soʻng hodisa toʻgʻrisida zudlik bilan (telefon yoki boshqa aloqa vositasi yordamida) ichki ishlar organi navbatchilik qismiga axborot beradi.

Davlat yoʻl harakati xavfsizligi xizmatining yoʻl-patrul xizmati saf boʻlinmasi navbatchisi, shu jumladan yoʻl harakati xavfsizligi xizmatining yoʻl-patrul va patrul-post xizmati saf boʻlinmalarining har qanday xodimi yoʻl-transport hodisasi toʻgʻrisida zudlik bilan ichki ishlar organining navbatchisiga xabar beradi va oʻziga yuklatilgan majburiyatlardan kelib chiqib, (jinoyatning «issiq izidan» ochilishini tashkillashtirish; holat ogʻir oqibatlariga olib kelishining oldini olish; jinoyat sodir etgan shaxslarni ushlab; jabrlanganlarga yordam koʻrsatish; tergov-tezkor guruhi etib kelgunga qadar hodisa sodir boʻlgan joydagi asl holat va daliliy ashyolar qoʻriqlanishini tashkil etish hamda roʻy bergan holatning tabiati va tavsifini inobatga olib boshqa) kechiktirib boʻlmaydigan harakatlarni amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlarining xizmat binolaridan tashqari joylarda jinoyatlar va hodisalar haqidagi maʼlumotlarni profilaktika inspektorlari bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining barcha safdor va boshliqlar tarkibidagi xodimlari xizmat vazifalarini bajarish chogʻida qabul qilishlari mumkin. Ular boshqa hududda xizmat qilayotganliklari yoki xabar qilingan maʼlumot jinoyat alomatlarini mavjudligi toʻgʻrisidagi masalani hal etish uchun etarli emasligini bahona qilib yoki boshqa bir sabab bilan maʼlumotni qabul qilishni rad etishga haqli emaslar. Ular bunday maʼlumotni olgach, tegishliligiga koʻra bu haqda navbatchilik qismiga xabar berishlari va shundan soʻng belgilangan tartibga muvofiq harakat qilishlari talab etiladi.

Jinoyat haqidagi xabarlarni tekshirish (surishtiruvchi, tergovchi) yoki xabarni tekshirishni tashkil etish (IIB boshligʻi va uning oʻrinbosarlari) huquqiga yoki vakolatiga ega boʻlgan mansabdor shaxs, xabarda mavjud boʻlgan maʼlumotlarni hisobga olgan holda, oʻz vakolatlari

doirasida darhol quyidagi kechiktirib bo'lmaydigan choralarni amalga oshirishi shart:

jinoyatni bartaraf etish va uning oldini olish;

jinoyat alomatlarini aniqlash, jinoyat izlarini rasmiylashtirib olish uchun saqlash, shuningdek *mustahkamlanishi talab etilayotgan ashyoviy dalillarni olish va tadqiqot o'tkazish*;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rayotgan, sodir etayotgan yoki sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda jinoyat ustida yoki «issiq izidan» ushlab uchun tezkor va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish;

jinoyat haqidagi xabar yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilganligi va uning natijalari bo'yicha 24 soatdan oshmagan vaqt ichida, tegishli organ rahbariga keyingi tekshiruv ishlarini tashkil etish uchun axborot berish.

Qo'riqlash, yong'in xavfsizligi qismlari, yo'l-patrul va patrul-post xizmatlari hamda yo'l harakati xavfsizligi xizmatining navbatchilari (dispatcherlari) tegishli ichki ishlar shahar, tuman, tarmoq organlari navbatchilik qismlariga quyidagi ma'lumotlarni beradilar:

qo'riqlash yo'nalishi bo'yicha – qo'riqlanayotgan obyektga nisbatan sodir etilgan jinoiy tajovuzlar, texnik qo'riqlash punktlariga ulangan obyektlarga g'ayriqonuniy kirishga urinish chog'ida qo'riqlash signalizatsiyasining ishlab ketish hollari, shuningdek qo'riqlash naryadlari xizmat o'tayotgan (mas'ul bo'lgan) hududlarda aniqlangan boshqa jinoyatlar va hodisalar to'g'risida;

yong'in xavfsizligi yo'nalishi bo'yicha – fuqarolarning o'limiga yoki ularning sog'lig'iga shikast etkazilishiga, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar mulkiga zarar etkazilishiga olib kelgan yoxud olib kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar va o't ketishlar hamda xizmat (mas'ul bo'lgan) hududidagi aniqlangan boshqa jinoyatlar va hodisalar to'g'risidagi;

davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati yo'nalishi bo'yicha – fuqarolarning o'limiga, badanga shikast yoki mulkiy zarar etkazilishiga olib kelgan yo'l-transport hodisalari, avtotransport vositasini olib qochish, mast holdagi shaxsning transport vositasini boshqarishga yo'l qo'yganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan holatlar, shuningdek xizmat (mas'ul bo'lgan) hududida aniqlangan boshqa jinoyatlar va hodisalar to'g'risidagi;

patrul-post va jamoat tartibini saqlash xizmati yo'nalishi bo'yicha – xizmat (mas'ul bo'lgan) hududida aniqlangan barcha jinoyatlar va hodisalar to'g'risidagi.

Bundan tashqari, ichki ishlar organlarining navbatchilik qismiga ma'muriy qamoqqa olingan shaxslarni saqlash uchun maxsus qabulxona-

lar hamda aniq yashash joyi bo'lmagan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlari ma'muriyatidan kelib tushadigan jinoyatlar va hodisalar to'g'risidagi xabarlar ham beriladi. Ko'rsatilgan majburiyat shu bo'linma navbatchisining zimmasiga yuklatiladi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabar bevosita arizachining o'zidan olinganida va og'zaki murojaat bevosita ichki ishlar organining binosida rasmiylashtirilganida, ichki ishlar organi saf bo'linmasi navbatchisi yoki ichki ishlar organining ariza va xabarlarni qabul qilish vazifasi yuklatilgan boshqa xodimi arizachiga zudlik bilan bildiruv talonini berishi shart.

Arizachining bevosita ichki ishlar organi navbatchilik qismiga, profilaktika inspektoriga, saf bo'linmasi navbatchisiga yoki ichki ishlar organining jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish lavozimi bo'yicha vazifasiga kiradigan boshqa xodimiga shaxsan murojaati orqali qabul qilingan jinoyat haqidagi ariza va xabarlarning to'liq qayd etilganligi ustidan nazorat qilish bildiruv-talonlari orqali amalga oshiriladi.

Bildiruv taloni ikki qismdan – bir xil qayd raqamiga ega bo'lgan yirtib olinadigan varaq va koreshokdan iborat. Yirtib olinadigan varaqda ariza va xabarni qabul qilingan sanasi, uni olgan mansabdor shaxs va arizachi haqidagi ma'lumotlar bo'lib, varaq arizachiga taqdim etiladi. Bildiruv-talonining koreshogida, arizachi haqidagi ma'lumot, arizaning qisqacha mazmuni va uning qabul etgan sana hamda jinoyat va xabarlarni ro'yxatga olish 1-shakl kitobida qayd etilgan raqami va sanasi aks ettiriladi va u xodimda qoladi. Arizachi bildiruv-talonining koreshogiga imzo qo'yib, sana va vaqtini ko'rsatib o'tadi.

Bildiruv taloni qat'iy hisobda turadigan hujjat hisoblanadi. U kitob shaklida sahifalanadi va ichki ishlar organining kotibiyatida saqlanib, jinoyatlar va boshqa hodisalar haqidagi ma'lumotlarni qabul qilish vazifasi yuklatilgan xodimga beriladi. Foydalanib bo'lingan bildiruv talonlari kitobi ichki ishlar organining kotibiyatiga topshiriladi va 3 yil saqlanganidan keyin dalolatnoma asosida yo'q qilinadi. Bildiruv talonlari koreshoklari jinoyatlar va boshqa hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etishning to'liqligini, bunday ma'lumotlarni qabul qilish vazifasi yuklatilgan mansabdor shaxslarning ish faoliyatini, ular ustidan tushgan shikoyatlar ni ko'rib chiqish chog'ida solishtirib tekshirishda foydalaniladi.

Jinoyat va hodisalar haqidagi ma'lumotlarni ro'yxatga olish ichki ishlar organlarining navbatchilik qismlarida zudlik bilan amalga oshiriladi. Ro'yxatga olishni kechiktirish yoki ro'yxatga olmaslik ta'qiqlanadi va qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar 1-shakl kitobida boshqa ma'lumotlar esa – 2-shakl jurnalida ro'yxatga olinadi.

1-shakl kitob va 2-shakl jurnal qat'iy hisobda turuvchi hujjatlar hisoblanadi. Mazkur hujjatlar navbatchilik qismida saqlanadi va ichki ishlar organi navbatchisi yoki uning yordamchisi tomonidan to'ldirib boriladi, ular o'z navbatchiligi davomida jinoyatlar va boshqa hodisalar haqida kelib tushadigan barcha ma'lumotlarni ushbu yo'riqnoma talablariga binoan ro'yxatga olib boradilar va keyinchalik qabul qilingan qarorlar haqidagi yozuvlarni kiritib boradi. 1-shakl kitob va 2-shakl jurnal ichki ishlar organida 5 yil saqlanadi, so'ng dalolatnoma asosida yo'q qilinadi.

Agarda jinoyat va hodisalar haqidagi qabul qilingan ma'lumot ichki ishlar organlarining xal qilish vakolatiga kirmasa yoki sodir etilgan xatti-harakat boshqa ichki ishlar organining xizmat hududida sodir etilganligi aniqlanganda, ushbu ma'lumot ro'yxatga olingandan so'ng taalluqliligiga ko'ra tegishli organga yuboriladi, hisobdan chiqariladi va bu haqda 1-shakl kitobi yoki 2-shakl jurnaliga belgi qo'yiladi, hamda bu haqda murojaat qilgan shaxsga yozma ravishda xabar qilinadi. Shu bilan bir vaqtda jinoyatning oldini olish yoki bartaraf etish hamda jinoyat izlarini saqlash borasida zarur choralar ko'rilishi shuningdek, to'plangan hujjatlarni chopar orqali tegishli qo'shni yoki yaqin oradagi shahar-tuman IIBlariga etkazilishi shart.

Jinoyat va hodisalar to'g'risida boshqa ichki ishlar organlaridan kelib tushgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi IIVning 2016-yil 12-noyabrdagi «Ichki ishlar organlarida jinoyat va hodisalarga oid arizalar, xabarlar hamda boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, ko'rib chiqish va hisobini yuritish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 180-sonli buyrug'i talablariga binoan ro'yxatga olinadi.

Jinoyat va hodisalar to'g'risidagi ma'lumotni biror-bir sabablarga ko'ra ichki ishlar organining tezkor navbatchisiga ro'yxatga olish uchun o'z vaqtida etkazilmasa, u holda 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalining 2-ustuniga navbatchilik qismiga ma'lumot tushgan vaqt bilan bir qatorda uning ichki ishlar organi xodimiga ilk bor ma'lum bo'lgan sanasi, soati va daqiqasi ko'rsatiladi. Ushbu holda ariza yoki xabarni hal etish muddati uning ichki ishlar organi xodimiga ilk bor ma'lum bo'lgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

Agar olingan xabar yolg'on bo'lsa yoki olingan ma'lumot tasdiqlanmasa, shuningdek tekshiruv natijalari yoki qabul qilingan qaror 2-shakl jurnalida qayd etilgan boshqa hollarda, tegishli yozuv tekshiruvni amalga oshirgan va qaror qabul qilgan xodimning imzosi bilan tasdiqlanadi.

IIO Navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalining barcha rekvizitlari ularning titul varag‘i orqasiga yozib qo‘yilgan tavsiyalarga muvofiq to‘ldiriladi. Har qaysi ma‘lumot bo‘yicha kiritilgan yozuvlarda hodisa qachon yuz berganligi va kim tomonidan sodir etilganligi, u haqida kim, qanday shaklda xabar berganligi, uni ko‘rib chiqish tartiblari bo‘yicha qanday ko‘rsatma berilganligi, tekshirish uchun qanday chora ko‘rilganligi, ko‘rib chiqishda kimlar qatnashganligi, qachon, kim tomonidan qanday qaror qabul qilinganligiga doir qisqa va shu bilan birga batafsil ma‘lumotlar ifodalanishi kerak.

Yozma shaklda jinoyat va hodisalar haqida kelib tushgan ma‘lumotlarni ro‘yxatga olishda, hujjatga ichki ishlar organlarining qayd etish shtampi qo‘yiladi, unda: ro‘yxatga olish sanasi, ro‘yxatga olish tartib raqami hamda ma‘lumotni qabul qilgan navbatchining familiyasi aks ettiriladi. Kiritilgan yozuv ichki ishlar organining navbatchisi imzosi bilan tasdiqlanadi.

IIO Navbatchilik qismidagi 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalini yuritish qoidalarini buzganligi yoki jinoyatlar va hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ro‘yxatga olishning to‘liq emasligi va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilmasligi uchun javobgarlik shaxsan ichki ishlar organi boshlig‘i va IIO tezkor navbatchisining zimmasiga yuklatiladi.

Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish faoliyati natijalari haqida hisob-qayd etish ishlari uchun mas‘ul bo‘lgan xodim yarim yillik va yillik statistik hisobot tuzadi. Hisobot tuzish uchun 1-shakl kitobi asos bo‘lib hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi materiallar hisob-qayd etish ishlari bo‘yicha xodim yurituvidagi «Jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish to‘g‘risidagi hujjatlarni hisobga olish» jurnalida ro‘yxatga olinadi va ularga yil boshidan navbat bilan tartib raqami berib boriladi hamda har chorakda 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnali bilan solishtirma o‘tkazilib, taqqoslash dalolatnomasi tuziladi.

Agar jinoyatlar va hodisalar haqidagi xabarlar yurituvda bo‘lgan jinoyat ishlari yoki tekshiruv xujjatlariga qo‘shib qo‘yilgan bo‘lsa, 1-shakl kitobi va 2-shakl jurnaliga bu haqda tegishli belgi qo‘yiladi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni ko‘rib chiqish va hal etish tartibi

Jinoyat ishi qo‘zg‘atishga sabab bo‘luvchi jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlar yuzasidan JPKning 330-moddasiga muvofiq - jinoyat ishini qo‘zg‘atish, ishni qo‘zg‘atishni rad qilish, ariza yoki xabarni tergovga

tegishliligiga qarab yuborish haqidagi qarorlar qabul qilinishi JPKning 329-moddasida oʻrnatilgan muddatlarda (darhol, 10 kun, alohida hollarda prokuror roziligi bilan 1 oy) hal etilishi shart va bu haqda arizachiga yozma ravishda xabar qilinadi.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa maʼlumotlar kelib tushganda navbatchi ularni darhol tekshirish choralari koʻradi.

Jinoyatlar va hodisalar haqidagi boshqa maʼlumotlar: hodisa joyiga chiqishga, jinoyat izlari saqlanishiga, kino va videotasvirga tushirishni taʼminlashga qaratilgan choralari koʻrishga, tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini oʻtkazishga, ekspertizalar tayinlashga, tushuntirishlar olishga yoki boshqa tekshiruv harakatlarini bajarishga asos boʻlib xizmat qilishi mumkin. Ular boʻyicha belgilangan tartibda tergov va surishtiruv organlari tomonidan tekshiruv materiallariga asosan tegishli qaror (jinoyat ishi qoʻzgʻatish toʻgʻrisida, maʼmuriy jazo chorasini qoʻllash, materiallarni maʼmuriy komissiyaga berish, nomaʼlum murda, nomaʼlum bemor yoki bola va shu kabilarning shaxsini aniqlash boʻyicha ish qoʻzgʻatish toʻgʻrisida) qabul qilinadi. Shuningdek, tibbiy, avtotexnik yoki boshqa maxsus ekspertizalarni oʻtkazish talab qilinadigan tekshiruvlar boʻyicha esa ular yakunlanganidan soʻng qaror qabul qilinadi.

1-shakl kitobi va 2-shakl jurnalda roʻyxatga olingan maʼlumotning tekshirilishi xabar kelib tushishi bilan darhol tashkil etilishi kerak.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa maʼlumotlar roʻyxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini koʻzgʻatish uchun sabab qonuniyligini va asoslar etarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati boʻlgan taqdirda esa, oʻn sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Koʻrsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv oʻtkazilib, uning davomida qoʻshimcha hujjatlar, tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish va shaxsiy tintuv, hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish va ekspertiza oʻtkazish mumkin.

Alohida hollarda 10 kunlik muddat surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga koʻra prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

Ilgari telefon orqali berilgan xabarga asosan 2-shakl jurnalida roʻyxatga olingan holat haqida mansabdor shaxsdan yozma xabar kelib tushgan vaqtda yoki ogʻzaki xabar asosida tekshirilayotgan holat boʻyicha muayyan fuqarodan yozma ariza yoxud xabar olinganida, 2-shakl jurnalining 3-ustuniga olingan maʼlumot shaklining oʻzgarganligi toʻgʻrisida qoʻshimcha belgi qoʻyiladi va jinoyat haqida koʻrsatilgan ariza yoki xabar 1-shakl kitobiga oʻtkaziladi.

Jinoyat haqidagi ma'lumot tasdiqlangan taqdirda 2-shakl jurnalidan 1-shakl kitobiga o'tkaziladi.

Jinoyat haqida tasdiqlangan ma'lumot 2-shakl jurnalidan 1-shakl kitobiga o'tkazilganida bildirgi orqali u ilk bor ichki ishlar organiga kelib tushgan sanasi (soat, daqiqa) bilan qayd etiladi. Keyinchalik jinoyat haqida fuqaroning arizasi yoki davlat yoki jamoat tashkilotining xabari ichki ishlar organiga kelib tushgan vaqtdan qat'iy nazar, dastlabki bu xabarni qayd etish sanasidan boshlab hal qilish muddati boshlanadi.

Dastlabki tergov jarayonida ilgari ichki ishlar organlariga ma'lum bo'lmagan jinoyat aniqlanganida, tergovni amalga oshirayotgan mansabdor shaxs, bevosita jinoyat alomatlarini aniqlanganligi haqida bildirgi yozadi yoki jabrlanuvchidan ariza yozdirib oladi va «Tergov jarayonida qo'shimcha aniqlandi» belgisi bilan ro'yxatga olinadi.

Ichki ishlar organining navbatchilik qismiga kelib tushgan jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlar zudlik bilan 1-Shakl kitobi yoki 2-Shakl jurnalida ro'yxatga olinadi va bu haqda tegishli idora boshlig'iga axborot beriladi. Uning ko'rib chiqilishi va hal qilinishi O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual kodeksi va yo'riqnoma talablariga muvofiq tashkil etiladi. Axborot berish vaqtigacha hal qilinmagan jinoyatlar va hodisalar haqidagi har qaysi ariza yoki xabar bo'yicha ichki ishlar organining boshlig'i (yoki uning vazifasini bajarayotgan shaxs) o'rnatilgan talablarga muvofiq belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishi to'g'risida ijro etuvchiga yozma ravishda ko'rsatma berishi shart. Ariza va xabarlarni ko'rib chiqishning aniq muddati 2-Shakl jurnalda majburiy tartibda qayd etiladi. Ichki ishlar organining navbatchisi 1-Shakl kitobi va 2-Shakl jurnali bo'yicha navbatchilik kuni davomida ko'rib chiqish muddati o'tib hal etilmay qolgan jinoyatlar va hodisalar haqidagi ma'lumotlarning ro'yxatini ko'rsatib bildirgi tuzadi va uni boshliq yoki uning vazifasini bajaruvchisiga tegishli chora ko'rish uchun topshiradi.

Ichki ishlar organlarining tergovchilari tomonidan o'tkazilgan hodisa sodir bo'lgan joyini ko'zdan kechirish haqidagi materiallarini, agarda ularda mavjud bo'lgan ma'lumotlar yaqqol jinoyat alomatlarini ko'rsatib, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun qaror qabul qilishga etarli asoslar bo'lsa, surishtiruv xizmatlariga berish taqiqlanadi.

Surishtiruv xodimining jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida chiqargan qarori yoki jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori ichki ishlar organining boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Qarorni tasdiqlash vaqtida ichki ishlar organining boshlig'i mavjud hujjatlarni mukammal o'rganishi, xodim tomonidan qarorni to'g'ri, to'liq va xolisona qabul qilganligiga

shaxsan ishonch hosil qilishi shart. Jinoyat ishni qoʻzgʻatish asossiz rad etilgan hollarda u qoʻshimcha tekshiruvni oʻtkazilishini tashkil etish kerak.

Hududiy jihatdan tegishliligi boʻyicha joʻnatilgan jinoyatlar va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa maʼlumotlar ularni joʻnatgan idora hisobidan chiqarib, qabul qilgan xodim ichki ishlar organida qaytadan roʻyxatga qoʻyishi kerak. Bunday hollarda xabarni koʻrib chiqish muddati ichki ishlar organiga hududiy jihatdan tegishliligi boʻyicha kelib tushgan vaqtdan boshlab hisoblanishi kerak.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlar deganda nima tushuniladi?
2. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish deganda nima tushuniladi?
3. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni roʻyxatga olish deganda nima tushuniladi?
4. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni koʻrib chiqish deganda nima tushuniladi?
5. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni hal etish deganda nima tushuniladi?
6. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarning turlarini sanab bering.
7. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni tasniflashning ahamiyatini tushuntiring.
8. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish tartibini tushuntiring.
9. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni roʻyxatga olish tartibini tushuntiring.
10. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni koʻrib chiqish tartibini tushuntiring.
11. Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarni hal etish tartibi va xususiyatlarini tushuntiring.

III bob. TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV O‘TKAZISH TARTIBI. SURISHTIRUVCHINING TERGOV-TEZKOR GURUHI TARKIBIDAGI FAOLIYATI

«Tergovga qadar tekshiruv» tushunchasi va o‘tkazish tartibi

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish deganda jinoyat haqidagi ariza, xabar yoki boshqa ma’lumotni ro‘yxatga olish hamda jinoyat ishini qo‘zg‘atish sababi qonuniyligini va asoslar mavjudligini aniqlash maqsadida ayrim protsessual harakatlarni bajarish, olingan yoki aniqlangan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda tegishli qaror qabul qilish jarayoni tushuniladi.

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ariza, xabarlarni qabul qilish va ro‘yxatga olish;
- arizalar va xabarlarni tekshirish, hal etish va uning muddatlari;
- tekshiruv natijalari haqida xabar berish;
- ushlangan shaxs huquqlari (qonuniylik)ni ta’minlash.

Tergovga qadar tekshiruv davomida quyidagi holatlar aniqlanishi zarur:

- jinoyat hodisasining mavjudligi yoki mavjud emasligi;
- agarda jinoyat holati mavjud bo‘lsa aynan qanday turdagi jinoyat sodir etilganligi;
- jinoyatning qachon, qaerda, qanday usul bilan sodir etilganligi;
- kimga, qanday shakldagi va qancha miqdordagi zarar etkazilganligi;
- jinoyat sodir etilishining qaysi usuli, uni sodir etishda qanday vositalar qo‘llanilganligi;
- jinoyatning kim tomonidan sodir etilganligi, jinoyatning maqsadi va motiv (sabab)lari va hokazo.

Yuqorida keltirilgan holatlarning aniqlanishi jinoyat ishini qo‘zg‘atish, keyinchalik qilmishga yuridik jihatdan to‘g‘ri baho berish va jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga imkon beradi.

Jinoyat sodir etilganligi haqidagi dastlabki ma’lumotlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan manbalardan olinishi mumkin. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish masalasini hal etish uchun zarur bo‘lgan bunday manbalar yoki jinoyat ishi qo‘zg‘atishning sabablariga quyidagilar kiradi: shaxslarning arizalari; korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar; ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar; jinoyat sodir etilganligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar va izlarni surishtiruv organi, tergovchi, prokurorning bevosita o‘zi aniqlashi; aybini bo‘yniga olish haqidagi arz. Jinoyat belgilari

mavjudligini ko'rsatuvchi va tergovga qadar tekshiruvni o'tkazayotgan ishni yuritishga mas'ul shaxslar tomonidan to'plangan ma'lumotlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'ladi (JPK 322-m.). Shuningdek jinoyat hodisasi yuz bermaganligi, qilmishda jinoyat tarkibining elementlaridan biri yo'qligi, bundan tashqari, jinoyat belgilari aniqlanishi bilan birga ish qo'zg'atishni va ish yurituvini davom ettirishni istisno etadigan holatlar mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga asos bo'ladi.

Odatda, jinoyat sodir etilganligi haqidagi ariza va xabarlar ichki ishlar organlarning navbatchilik qismiga kelib tushadi. Tuman (shahar) IIB navbatchilik qismiga kelib tushgan jinoyat haqidagi xabarni tezkor-navbatchi O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va muassasalarida jinoyatlar va hodisalar haqidagi ariza, xabar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatga olish, hisobini yuritish va hal qilish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga asosan navbatchilik qismidagi mavjud jurnal-larga ro'yxatga oladi. Jumladan, kelib tushgan xabar agarda telefon orqali ma'lum qilingan bo'lsa, u holda «Ichki ishlar bo'limiga telefon, telegraf, signal beradigan qo'riqlash moslamalarini ishlab ketishi natijasida va boshqa signallar orqali hodisalar bo'yicha ma'lumotlarni hisobga olish» jurnali (2-shakl)ga qayd etiladi. Agarda yozma ariza bilan murojaat qilingan bo'lsa, unda «Jinoyatlar to'g'risida ichki ishlar bo'limiga kelgan ariza va xabarlarni hisobga olish» kitobi (1-shakl)ga qayd etiladi va arizachiga navbatchi tomonidan bildiruv-taloni berilishi kerak. Shundan so'ng navbatchi jinoyat haqidagi ariza (xabar) haqida tergov-tezkor guruhi rahbari (tergovchi)ga axborot beradi hamda zaruratga ko'ra tergov-tezkor guruhining to'liq tarkibda hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishini tashkillashtiradi.

Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yxatga olinishi va darhol, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab qonuniyligini va asoslar etarli ekanligini bevosita yoxud surishtiruv organlari yordamida tekshirish zarurati bo'lgan taqdirda esa, o'n sutkadan kechiktirmasdan hal qilinishi kerak. Ushbu muddat jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar olingan paytdan boshlab hamda to'liq ishni qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqarilguniga qadar yoxud tergovga qadar tekshiruv materiallari Jinoyat-protsessual kodeksning 587-moddasiga muvofiq (amnistiya asosida) prokurorga yuborilguniga qadar bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Jinoyat haqidagi ariza yoki xabar olingan vaqtni aniqlash tergovga qadar tekshiruv muddatini hisoblash uchun muhim. Bunda quyidagilarni e'tiborga olish zarur: 1) ariza yoki xabar

qabul qilingan kun soat nechaligidan qat'iy nazar muddatni hisoblashda inobatga olinmaydi; 2) ariza yoki xabar qabul qilingan kun tariqasida arizani ko'rib chiqib, hal etuvchi ichki ishlar organiga kelib tushgan kun inobatga olinadi, ya'ni ariza dastlab berilgan organdan tergovga tegishliligiga ko'ra yuborilgan bo'lsa, ariza (xat bilan) keyingi organga kelib tushgan kundan tergovga qadar tekshiruv muddati o'tish boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 329-moddasi talablariga asosan alohida hollarda, tergovga qadar tekshiruv muddati quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi yoki tergovchining asoslantirilgan qaroriga ko'ra prokuror tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin:

1) o'tkazish uchun ko'p vaqt talab qiladigan ekspertiza, xizmat tekshiruvi, taftish yoki boshqa tekshiruv tayinlangan bo'lsa;

2) olis joylarda bo'lgan yoki chaqiruvga binoan hozir bo'lishdan bo'yin tovlayotgan shaxslardan tushuntirishlar talab qilib olish zarur bo'lsa;

3) yangi holatlar aniqlanib, ularni qo'shimcha tarzda tekshirmasdan turib qaror qabul qilishning imkoni bo'lmasa;

4) etkazilgan moddiy zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplash va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida belgilangan muddat o'tmagan bo'lsa (JPK 329-m.).

Jinoyat-protsessual kodeksning 329-moddasida ko'rsatilgan muddat ichida tergovga qadar tekshiruv o'tkaziladi, tekshiruv davomida qo'shimcha hujjatlar va tushuntirishlar talab qilib olish, shuningdek shaxsni ushlab turish va shaxsiy tintuv, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish, ekspertiza o'tkazish, tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqida topshiriqlar berish mumkin. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida boshqa tergov harakatlarini o'tkazish man qilingan.

Hujjatlar talab qilish deganda korxonalar, muassasa va tashkilotlar faoliyatida yuritiladigan, yoki muayyan shaxsda bo'lgan moliya-xo'jalik, shaxsga oid, arxiv hujjatlari, yig'ma jildlar, bayonnomalar, taftish yoki xizmat tekshiruvi dololatnomalari, xulosalar, ma'lumotnoma, mutaxassis ma'lumotnomasi, qayd jurnallari, qaydnomalar, chipta, ruxsatnoma, tilxat, qo'lyozma xatlar, rasmiy hujjatlar, qoralama yozuvlarni so'rash tushuniladi. Hujjatlarni talab qilib olish rasmiy so'rov xati orqali amalga oshiriladi. Shuningdek og'zaki so'rov orqali ham olinishi mumkin, ammo bunda olinadigan hujjat taqdim etish, ko'zdan kechirish, olib qo'yish, tintuv bayonnomalarida qayd etiladi.

Tushuntirishlar talab qilish deganda esa, jismoniy shaxsdan unga ma'lum bo'lgan va ish uchun ahamiyatli holatlar haqidagi ma'lumotlarni so'rab olish (yozma shaklda), ya'ni tushuntirish xati olish tushuniladi. Bu jarayon ham mazmunan hujjatlarni talab qilib olishga o'xshaydi. Tushuntirish xati olishda shaxsning ongida aks etgan ma'lumotni og'zaki ifodalab, qog'ozda qayd etish orqali yoki bevosita qog'ozga yozgan holda taqdim etish amalga oshiriladi. Tushuntirish xati dalil hisoblanmasligi haqidagi fikrlar ham mavjud bo'lib, ushbu fikr tarafdorlari tushuntirish xatida aks etgan ma'lumot qachonki so'roq bayonnomasida aks etsagina dalilga aylanadi deb e'tirof etadilar. Ammo shuni ta'kidlash o'rinliki, jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan har qanday ma'lumot jinoyat-protsessual qonun talablarini buzmaganda holda olingan va rasmiylashtirilgan bo'lsa, dalil sifatida tan olinadi. Tushuntirish xatlari ham belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lsa, ekspert xulosasi, ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlar kabi dalil ahamiyatga ega bo'ladi.

Tergovga qadar tekshiruv davomida o'tkaziladigan shaxsni ushlab turish Jinoyat-protsessual kodeksning 221-moddasida sanab o'tilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda Jinoyat-protsessual kodeksning 224-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shaxs ushlab turilganda tergovga qadar tekshiruv muddati 24 soatgacha qisqaradi, ya'ni 24 soat ichida jinoyat ishini qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish masalasi hal etilishi shart. Shu bilan birga shaxs ushlab turilganda agar jinoyat ishi qo'zg'atish haqida qaror qabul qilinadigan bo'lsa, ushbu shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish, unga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash zarur yoki zarur emasligi masalasi ham hal etilishi shart. Ushbu masalalarni hal etish uchun ushlangan shaxsning jinoyatga aloqadorligini isbotlovchi dalillar to'planishi, jumladan uning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotlar yig'ilishi kerak. Shaxs ushlanganda darhol aynan uning jinoyat sodir etganligini aniqlash maqsadida ikki nafar xolilar ishtirokida shaxsiy tintuv o'tkaziladi. Ushbu harakatlar belgilangan tartibda bayonnomada rasmiylashtiriladi. Shaxsni ushlashda uning quyidagi himoyalash huquqlari ta'minlanishi talab etiladi:

– qanday jinoyatni sodir etishda gumon qilinib ushlanganligini tushuntirish;

– advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon orqali qo'ng'iroq qilish yoki xabar berish, ya'ni gaplashish, SMS yoki mobil internet yordamida xabar yuborish imkonini yaratish;

– ko‘rsatuvlar berish yoki ko‘rsatuv berishdan bosh tortish huquqini tushuntirish;

– bergan ko‘rsatuvlari jinoyat ishiga oid dalil sifatida uning o‘ziga qarshi foydalanilishi mumkinligini ma’lum qilish.

Ushbu huquqlardan birontasi ta’minlanmasligi himoyalaniş huquqi buzilishi tariqasida baholanib, olingan dalillar nomaqbul deb topilishiga asos bo‘ladi. Shu bois ba’zida surishtiruvchilar tomonidan o‘tkazilgan tergovga qadar tekshiruv materiallaridagi kamchiliklar tergovchilar tomonidan aniqlanib e’tirozlar bildirilishi uchraydi. Ushbu hollarda surishtiruvchilar tergovchi bilan hamkorlikda ish olib borishlari maqsadga muvofiq.

Tergovga qadar tekshiruv davomida xizmat tekshiruvi, hujjatli taftish yoki boshqa tekshiruv, tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish haqida topshiriqlar berilishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchining topshirig‘i asosida o‘tkaziladigan ushbu harakatlar tegishli organ yoki muassasa mutaxassislari yoki mas’ul shaxslari tomonidan amalga oshiriladi va olingan natijalar surishtiruvchi, tergovchiga yozma (hujjat) tarzda taqdim etiladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, ushlab turish va shaxsiy tintuv, ekspertiza tayinlash va taftish o‘tkazish xususiyati jihatidan kechiktirib bo‘lmas tergov harakati tariqasida o‘tkaziladi.

O‘tkazilgan tergovga qadar tekshiruv natijalari, ya’ni hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, olingan tushuntirish xatlari va boshqa hujjatlar, ekspertiza xulosalari, taftish va shaxsiy tintuv natijalari huquqiy jihatdan baholanib tegishli qaror qabul qilinishiga asos bo‘ladi.

Surishtiruvchining tergov-tezkor guruhi tarkibidagi vazifalari va faoliyati

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda tergov-tezkor guruhining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jinoyat sodir etilganligi haqida xabar har tomonlama, to‘liq, o‘z vaqtida tezkorlik bilan tekshirilishi jinoyatning tez va to‘liq ochilishiga xizmat qiladi. Tergovga qadar tekshiruvda o‘tkaziladigan tergov va boshqa tekshiruv harakatlari bir necha shaxslarning birgalashib, hamkorlikda faoliyat olib borishini talab qiladi. Shu jumladan hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, jinoyat sodir etgan shaxslarning iziga tushib ularni ushlab choralari ko‘rish, tezkorlik bilan jinoyat haqida ma’lumotga ega shaxslardan tushuntirishlar olish, tergov tasmollarini ishlab chiqish va ularni tekshirishni tashkil etish

va boshqa kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlarini o'tkazish samaradorligi tergov-tezkor guruhining faoliyatiga chambarchas bog'liq. Tergov-tezkor guruhi har bir (tuman, shahar) ichki ishlar organlarida tergov, jinoyat qidiruv va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, profilaktika, ekspert-kriminalistika va boshqa xizmat rahbari tomonidan tasdiqlanadigan kunlik navbatchilik jadvali asosida tuziladi.

Tergov-tezkor guruhi rahbari (tergovchi) jinoyat haqidagi ariza yoki xabarni olgach tergov-tezkor guruhi a'zolarining darhol to'planishini ta'minlaydi va hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishga shayligini yana bir bor tekshirib ko'radi. Xususan, tergov-tezkor guruhi a'zolarining to'planishiga, tergov jomadonidagi jihozlarning to'liqliligiga, shuningdek o'tkazilishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo'llaniladigan vositalarning mavjudligiga, texnik va transport vositalarining hodisa sodir bo'lgan joyga chiqishga hozirligiga e'tiborini qaratadi. Kamchiliklar aniqlangan hollarda shaxsan o'zi yoki tezkor-navbatchi yordamida barataraf etish choralarini ko'radi, tezkor-navbatchidan ariza yoki xabarning 2-shakldagi jurnalda yoki 1-shakldagi kitobda ro'yxatga olinganligini tekshirib, ro'yxat raqamini oladi va tergov-tezkor guruhini hodisa sodir bo'lgan joyga tezkorlik bilan etib borishini ta'minlaydi. Hodisa sodir bo'lgan joyga etib borgach, tergov-tezkor guruhi a'zolari, ya'ni tezkor vakil, profilaktika inspektori, EKB kriminalist-mutaxassisi va inspektor-kinologga sodir etilgan jinoiy hodisaning mohiyatidan kelib chiqib vazifalar qo'yadi.

Tergovga qadar tekshiruv jarayonida navbatchi tergov-tezkor guruhining hodisa sodir bo'lgan joyda amalga oshiriladigan ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhning hodisa sodir bo'lgan joydagi harakatlari, birinchi navbatda ish bo'yicha jinoyat belgilari va izlarini, jinoyatchi shaxslarning o'ziga xos belgilarini, guvohlarni va daliliy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlarni aniqlashga yo'naltirilgan dastlabki tergov-tezkor choralar majmuni o'zida aks ettirishi kerak. Tergov-tezkor guruhining har bir a'zosi hodisa sodir bo'lgan joyda, o'ziga yuklatilgan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarni aniq bilishi muhim ahamiyatga ega.

Navbatchi tergov-tezkor guruhi hodisa sodir bo'lgan joyga kelgandan so'ng, guruh rahbari bo'lgan tergovchi quyidagilarni bajaradi:

– hodisa joyi qo'riqlanayotganligini tekshirishi, agar qo'riqlanmayotgan bo'lsa profilaktika inspektoriga qo'riqlash choralarini ko'rish haqida topshiriq beradi;

– agar jabrlanuvchilar tibbiy yordamga muhtoj bo‘lsa, yordam ko‘rsatishi va agarda ular tibbiyot muassasasiga yuborilgan bo‘lsa, ularni qaerga jo‘natilganligini yozib olishi;

– zarur hollarda hodisa joyiga birinchi bo‘lib inspektor-kinologni xizmat iti bilan kiritishi va jinoyatni fosh etish hamda jinoyatchini «issiq izi»da qo‘lga olishni tashkillashtirishi;

– tezkor-qidiruv xodimlariga guvohlarni, jinoyat sodir qilgan shaxslarni aniqlashga qaratilgan topshiriqlar berishi;

– mutaxassis-kriminalistga jinoyatning izlari, jinoyat sodir etish quroli va vositalarini, jinoyatchini hodisa joyida bo‘lganligini, qo‘l va oyoq izlarini, boshqa izlarni (tartibsizlik, har tomonga otilgan buyumlar, yuklar, uzilgan tugmalar, soch tolalari, qon va boshqalar) jinoyatchilarga taalluqli buyum va narsalar, mikro obyektlarni topish va olish haqida topshiriq beradi;

– hodisa joyidagi holat bilan tanishadi, ko‘zdan kechirishning taktik usullarini belgilaydi;

– hodisa joyini ko‘zdan kechirishga kirishadi.

Jinoyat sodir etilgan joy tergov qilinayotgan jinoyat haqidagi ma’lumotlarning eng muhim manbai hisoblanadi, shu sababli uni zudlik bilan ko‘zdan kechirish lozim, chunki hodisa sodir bo‘lgan joyni o‘z vaqtida ko‘zdan kechirmaslik izlarni va boshqa dalillarni yo‘qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– jinoyat sodir etilgan joyning holatini aniqlash;

– tergov uchun ahamiyat kasb etadigan narsalar va izlarni aniqlash, qayd qilish va olish;

– tergov va qidiruv tasmollarini tuzish;

– isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlarni aniqlash;

– jinoyatni sodir etgan shaxslarni fosh etuvchi ma’lumotlarni to‘plash.

Hodisa joyida aniqlangan va olingan izlar va narsalarni ko‘zdan kechirish jinoyat sodir etish usulini aniqlash imkonini beradi. Bu esa jinoyat sodir etish usuli bo‘yicha hamda ochilmagan jinoyat ishlari bo‘yicha kartotekalardan foydalanish imkonini yaratadi.

Ko‘zdan kechirishni talab darajasida va samarali o‘tkazish kriminalistik-texnik vositalardan samarali foydalanishga bog‘liq, ayniqsa video-yozuv vositalaridan foydalanish unumlidir. Bu esa dalillarni aniqlash jarayoni, ko‘zdan kechirish harakatlari natijasida olingan ashyoviy

dalillarni obyektiv qayd etilishiga, shuningdek, qo'llanilgan taktik usullarning to'g'riligini yaqqol namoyish etishga xizmat qiladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha tergovchi Jinoyat-protsessual kodeksning 90-92, 135-141 moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq bayonnoma tuzadi. Bayonnomada ko'zdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda ko'zdan kechirilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda, ko'zdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan bo'lsa, xuddi shu holatda qayd etiladi. Ko'zdan kechirish chog'ida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab o'tiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli ma'lumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi. Bundan tashqari, bayonnomada: ko'zdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorug'likda o'tkazilganligi; qanday ilmiy-texnika vositalari qo'llanilganligi va qanday natijalar olinganligi; ko'zdan kechirishda ko'maklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va ko'maklashish nimada o'z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qay tartibda olingani va qanday muhr bilan muhrlanganligi; ko'zdan kechirilganidan keyin ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarning qaerga yuborilganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Surishtiruvchi tergov-tezkor guruhi tarkibida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Tezkor-qidiruv xodim sifatida surishtiruvchi og'ir, o'ta og'ir yoki yashirin sodir etiladigan jinoyatlarni qisqa muddatda va to'liq ochish, uning oldini olish, jinoyat sodir etib yashiringan jinoyatchilarni qidirib topish, ushbu jinoyatlarning sabablar va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarini aniqlash hamda bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi.

Jamiyat rivojlanib borishi va zamon taraqqiyoti oldinga intilayotgan paytda, sodir etilayotgan jinoyatlarning turlari va uslublari murakkablashib bormoqda. Qasddan sodir etiladigan jinoyatlarning muhim xususiyatlaridan biri ularni sodir etish usulidir.

Jinoyatlarni ochish – ichki ishlar organlarining mavjud barcha kuch va vositalaridan foydalanish, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash vazifalarini hal etishda ishtirok etuvchi boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat muassasalari va jamoatchilik bilan hamkorligini talab qiluvchi jarayondir.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishda surishtiruvchi sifatida tezkor vakil yoki boshqa xodim jinoyatning tavsifini atroflicha aniqlashi, shu bilan birga, jinoyatga daxldor shaxslar yoki faktlar to'g'risida ma'lumotlar to'plashi zarur. Bu ma'lumotlarni olish uchun avval muayyan tadbirlarni amalga oshirish va ushbu ma'lumotlarni

saqlovchi manbalarni aniqlash zarur. Ushbu manbalar shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

- 1) izlar, narsalar va boshqa moddiy obyektlar;
- 2) jinoyat va uning tafsilotlaridan xabardor shaxslar.

Yuqoridagi manbalarni aniqlash hodisa sodir bo'lgan joyda o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlarining asosiy talabi hisoblanadi. Bunga erishish uchun tezkor guruh a'zolari yoki surishtiruvchi hodisa sodir bo'lgan joyda quyidagi tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishlari zarur:

– hodisa sodir bo'lgan joyda bo'lgan shaxslar yoki hodisa haqida biror-bir ma'lumotga ega fuqarolarni aniqlab, ulardagi ma'lumotlarni to'plash uchun tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish;

– jinoyatchi yoki jabrlanuvchining hodisa joyiga kelish yoki ketish yo'llarini aniqlash maqsadida, qilmish sodir etilgan hudud atrofida joylashgan xonadonlarda yashovchi fuqarolar, jinoyat ko'p qavatli uyning xonadonida sodir etilgan bo'lsa, qo'ni-qo'shnilar, uy-joylar mulkdorlari shirkatining xodimlari, korxonalar yoki muassasada sodir etilgan bo'lsa, shu erda ishlaydigan barcha xodimlar va rahbarlar bilan so'rovlar o'tkazish;

– guvohlar, ashyoviy dalillar va boshqa ma'lumotlarni aniqlash maqsadida hodisa sodir bo'lgan joy atrofidagi hududda joylashgan xonadonlarni birma-bir aylanib chiqishni tashkil qilish;

Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu tadbirlarning yo'nalishi va o'tkazilishi har bir aniq holat bo'yicha, hodisa sodir etilgan hududning xususiyatlarini inobatga olgan holda o'tkazilishi zarur.

Jinoyat to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar olish va isbotlash manbai mustahkamlash usullaridan biri bu hodisa sodir bo'lgan joydan olingan biologik namunalarni yuzasidan ekspertiza tadqiqoti o'tkazib, ular aynan qaysi shaxsga tegishligini aniqlashdir. Bu borada, obyekt haqida aniq ma'lumot olish maqsadida DNK ekspertizasi tayinlanishi zarur. Qasddan odam o'ldirish, nomusga tegish jinoyatlarida hodisa sodir etilgan joydan olingan namunalarni (sperma, qon, soch tolalari va h.k.)ga nisbatan DNK ekspertizasi o'tkazilib, gumon qilinayotgan shaxslar tekshirilishi natijasida ushbu jinoyatni sodir etgan shaxs yoki shaxslarni aniqlash mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish jarayonida tezkor xodim quyidagi savollarga javob topishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu savollar hodisa tafsilotlaridan kelib chiqqan holda qo'yiladi:

– jabrlanuvchi kim, uning yoshi, millati, taxminiy ish faoliyati, shuningdek mahalliy aholi yoki boshqa joydan kelganligi;

- jinoyat qanday sodir etilgan;
- jinoyat qaerda sodir etilgan;
- jinoyat qachon sodir etilgan;
- jinoyat qanday usul va qurol bilan sodir etilgan;
- jinoyatning motivi;
- jinoyat sodir etilgan joydan qanday narsalar olib ketilgan;
- jinoyatchilar necha kishi, hodisa joyiga qaerdan kirilgan yoki kelingan;
- jinoyatchi(lar)ning shaxsini yoki harakat yo‘lini ko‘rsatib beruvchi belgilar mavjudmi.

Jinoyatni sodir etgan shaxs yoki guruhni qidirish asosan quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- jinoyatchining tashqi belgilari bo‘yicha (yuz, bosh, gavda tuzilishi, umumiy tashqi ko‘rinishi va hokazo);
- jinoyatchining kiyimi va tanasida qolgan izlar bo‘yicha (qon dog‘lari, kir yoki yirtilgan kiyimi, tanasidagi belgilar va boshqalar);
- voqea joyidan olib ketilgan buyumlar (avtomashina, katta hajmli buyumlar, zargarlik buyumlari, pullar va hokazo);
- jinoyatchi shaxslarni aniqlashda ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa ma‘lumotlar (fuqarolarning ko‘rsatmalari, davlat organlarining xabarlar va boshqalar).

Tezkor xodimlar jinoyatchini aniqlash va qo‘lga olishda qidiruv itini qo‘llash bilan birga, boshqa ma‘lumotlar, jumladan oyoq, qon, transport vositalarining izlari, jinoyatchi tomonidan qoldirilgan narsalar, guvohlarning ko‘rsatmalaridan foydalanishlari mumkin.

Jinoyatchini topishda tezkor guruh tarkibiga ushbu hududni yaxshi biladigan profilaktika inspektori va jinoyatchini taniydigan shaxslarning bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tergov tezkor guruhi harakat jarayonida yo‘lda uchragan fuqarolar, transport haydovchilari, do‘kon sotuvchilari va boshqa shaxslardan jinoyatchilarning harakat yo‘nalishini so‘rab borishlari lozim.

Shuningdek, jinoyat sodir etilgan hududga yaqin joylashgan barcha shifoxona va boshqa tibbiy muassasalarda jinoyat vaqtida jarohat olgan va tibbiy yordam so‘rab kelishi mumkin shaxslarni aniqlash bo‘yicha tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshiriladi.

Ko‘rsatib o‘tilganlardan tashqari, hodisa sodir bo‘lgan joyda faqatgina tezkor qidiruv yo‘li bilan aniqlanadigan holatlar yuzaga kelishi mumkin, bular:

1) *Sodir bo'lgan hodisani qaysi joydan ko'rish yoki eshitish mumkin?* Ushbu ma'lumotga ega bo'lish mavjud guvohlarning ko'rsatmalari haqiqatga qanchalik to'g'ri kelishi hamda qo'shimcha guvohlarning aniqlanishi va tezkor vaziyatga to'g'ri baho berish lozim;

2) *Jinoyatchi shaxs(lar) hodisa joyiga sezdirmasdan kelib, ketish mumkinmi?* Agar ushbu savolga to'g'ri javob olinsa, guvohlarni aniqlash uchun ortiqcha vaqt va kuch sarflash kerak bo'lmaydi.

Jinoyat bo'yicha guvohlar va boshqa ma'lumotlarni aniqlash uchun xonadonlar va binolarda yashovchi fuqarolar bilan so'rovlar o'tkazish zarur. O'z navbatida hodisa joyiga kelib-ketuvchi shaxslarga alohida e'tibor qaratish kerak, ular orasida jinoyatga aloqador yoki jinoyatdan xabardor shaxslar bo'lishi mumkin. Bunda hodisa joyini sutka davomida tezkor kuzatuvga olinishini ta'minlash hamda ushbu hududda yashovchi ishonchli kishilar va maxsus tadbirlarning imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

2. Profilaktika inspektori surishtiruvchi sifatida tergovga qadar tekshiruv jarayonida bevosita harakatlanganida uning tafakkuri faqat o'z faoliyatini aks ettirib va yo'naltiribgina qolmay, ishning barcha ishtirokchilari va ishga daxldor shaxslarning aqliy darajasi, ruhiy holatlarini hisobga olishi, uni qiyoslashi, muvofiqlashtirib borishi lozim. U nafaqat o'zi, balki o'zгалar uchun ham fikr yuritishi, qaror va xatti-harakatlarni oldindan ko'ra olishi, ularni yo'naltirib turishi hamda ana shu barcha omillardan kelib chiqib, o'z xulq-atvorini idora etishi zarur. Ushbu jarayonda manfaatlari turli-tuman, bir-biriga mos kelmaydigan, ba'zan butunlay qarama-qarshi bo'lgan shaxslar: profilaktika inspektori va jinoyat sodir etgan shaxs, tushuntirish beruvchi va tushuntirish olayotgan hamda boshqalar to'qnash keladilar.

Profilaktika inspektorlari jinoyat sodir etilganida tergovga qadar tekshiruv jarayonida quyidagi o'ziga xos yo'nalishlarda harakatlanadilar:

1. Xabar fuqarolardan kelib tushgandagi harakatlanishi;
2. Xabar navbatchilik qismidan kelib tushgandagi harakatlanishi;

Jinoyatning sodir etilganligi haqidagi *xabar fuqarolardan kelib tushganida profilaktika inspektori quyidagicha harakatlanadi:*

– IIB navbatchilik qismiga ratsiya, telefon kabi aloka vositalari orqali xabarni etkazadi va zudlik bilan voqea joyiga mahalla posbonlari yoxud mazkur xududda xizmat olib borayotgan boshqa xizmat (PPX, YHX, YOXB, XCHK va FRB) xodimlari bilan birgalikda etib boradi;

– tergov-tezkor guruhi etib kelguniga qadar hodisa sodir bo'lgan joyda jinoyat izlari va hodisaga oid ahamiyatli ashyolar yo'qolishining

oldini olish maqsadida qo‘riqlash ishlarini tashkil qilish uchun boshqa xizmat (PPX, YHX, YOXB, XCHK va FRB) xodimlari hamda mahalla posbonlariga tegishli vazifalarni belgilab beradi;

– tergov-tezkor guruhi etib kelguniga qadar murdaning shaxsini aniqlash yoki og‘ir tan jarohati olgan fuqaroga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatgan holda uni shifoxonaga yuborish choralarini ko‘radi;

– hodisa sodir bo‘lgan joydan mazkur hodisaga shohid bo‘lgan yoki muayyan ma‘lumotlarga ega shaxslarning ketib qolmasligini ta‘minlab, ularning yashash manzili, ismi sharifini aniqlaydi;

– tergov-tezkor guruhi etib kelguncha mazkur jinoyatni sodir etgandikda gumon qilinayotgan shaxs haqidagi ma‘lumotlar (yoshi, jinsi, qaddi qomati, kiyinishi, yurishi va boshqa alohida belgilari haqida ma‘lumotlar)ni to‘playdi;

– tergov-tezkor guruhi etib kelganda tergov-tezkor guruhi rahbariga mazkur hodisa tafsilotlari, hodisaga aloqador ma‘lumotga ega guvohlar, murdaning, tan jarohati olgan yoki jinoyatdan jabrlangan fuqaro (lar)ning shaxsi haqidagi ma‘lumotlar bo‘yicha axborot beradi, shuningdek mavjud daliliy ashyolarni taqdim etadi.

– tergov-tezkor guruhiga hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish, guvohlardan tushuntirishlar olish, shuningdek to‘plangan ma‘lumotlar va hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jarayonida aniqlangan izlarga asoslanib tasmollar ishlab chiqish, ularni birma-bir tekshirib ko‘rish hamda jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va ushlashda amaliy yordam ko‘rsatadi.

Hodisa haqidagi xabar IIB navbatchilik qismidan etkazilganida profilaktika inspektori quyidagicha harakatlanadi:

– hodisa joyiga zudlik bilan etib boradi, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirayotgan tergov-tezkor guruhi rahbariga uchrashadi va undan topshiriqlar oladi;

– tergov-tezkor guruhi rahbarining topshirig‘iga asosan mazkur hodisa bo‘yicha surishtiruv ishlarini olib borishda ishtirok etadi;

– TTG rahbarining topshirig‘iga asosan hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishda, unda ishtirok etish uchun xolislarni jalb etishda, guvoh (hodisa haqida eshitgan yoki unga aloqador ma‘lumotlarga ega shaxs) va shohidlar (hodisani bevosita ko‘rgan shaxslar)dan tushuntirishlar olishda amaliy yordam beradi;

– guvoh sifatida surishtirilayotgan fuqarodan jinoyat haqida muhim ma‘lumot olganda, undan atroflicha tushuntirishlar olish uchun tergov-tezkor guruhi a‘zolari oldiga olib keladi.

– o‘zi to‘plagan tushuntirish xatlarini ilova qilgan holda, aniqlagan ma‘lumotnomalar va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan IIB boshlig‘iga bildirgi orqali axborot beradi.

Profilaktika inspektorlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov jarayonidagi bevosita yoki bilvosita harakatlanishida turli-tuman ziddiyatlar hamda to‘qnashuvlarning kuzatilishi tergov taktikasiga nisbatan ehtiyojni keltirib chiqaradi. Shu bois profilaktika inspektorlaridan tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv hamda dastlabki tergovni tashkil etish va amalga oshirishga doir taktik bilimlarga ega bo‘lish shart.

Sodir etilgan jinoyatni ochishda jinoyatchi to‘g‘risida har tomonlama chuqur tasavvurga ega bo‘lish uchun jinoiy harakatning vaqti, joyi va boshqa jihatlari to‘liq psixologik tahlil etilishi, ya’ni jinoyat sodir etilishining yashirin motivlari va maqsadlarini inobatga olish zarur. Buning uchun profilaktika inspektorlaridan yuridik va taktik bilimlar bilan bir qatorda psixologik bilimlarning bo‘lishi ham talab etiladi.

Darhaqiqat, jinoyatlarni ochish faoliyatida shaxsning xulqida namoyon bo‘luvchi g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki g‘ayriijtimoiy xulq, normadagi xulq kabi ko‘p omilli bo‘lib, u bir yoki bir qancha sabablarning oqibati emas, balki alohida axloqiy ko‘rinishning ko‘p omillar bilan bog‘liqligi va ehtimolli xususiyati natijasidir. Shuning uchun ham jinoyatlarni ochishda profilaktika inspektorlari tomonidan jinoyatchi shaxsning o‘ziga xos alohida xususiyatlari va axloqiy qarashlarini aniqlash ustun ahamiyatga ega.

Bu borada profilaktika inspektorlari profilaktik hisobga olingan barcha toifadagi shaxslarning alohida-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini o‘rganishi lozim. Zero, profilaktik hisobga olingan, qolaversa g‘ayriijtimoiy xulq-atvorga ega va huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarning alohida-psixologik xususiyatlari va axloqiy qarashlarini o‘rganish ularning kelajakdagi xatti-harakatlari yuzasidan kriminologik bashorat qilish imkoniyatini yaratadi, va bu ma‘muriy xududda sodir etilgan jinoyatlarni ochish yuzasidan tasmollar tuzish, ularni tekshiruvdan o‘tkazish va natijada jinoyatni ochishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining tergov- tezkor guruhining boshqa a‘zolari bilan birgalikda faoliyati (qasddan odam o‘ldirish jinoyati misolida)

Tergovga qadar tekshiruvning to‘liq va sifatli o‘tkazilishi sodir etilgan jinoyatning tez ochilishi, har tomonlama va xolisona tergov

qilinishiga xizmat qiladi. Tergovga qadar tekshiruv tergov-tezkor guruhi a'zolarining o'zaro hamkorligi va birgalikdagi faoliyati natijasiga bog'liq ravishda samarali yoki aksincha bo'lishi mumkin. Jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotida ham tergov-tezkor guruhi a'zolarining o'zaro hamkorligi bilan bog'liq muayyan muammolar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Tergovga qadar tekshiruv o'tkazish va dastlabki tergovni amalga oshirishda tergov-tezkor guruhi a'zolarining birgalikda samarali faoliyat olib borishi og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, shuningdek yashirin tarzda sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Surishtiruvchining tergovga qadar tekshiruv o'tkazishda tergov-tezkor guruhining boshqa a'zolari bilan birgalikda faoliyati haqida alohida jinoyat turidan kelib chiqqan holda to'xtalib o'tish ushbu faoliyatni osonroq o'rganishga xizmat qiladi. Shu bois qasddan odam o'ldirish jinoyati misolida tergov-tezkor guruhi va uning tarkibida surishtiruvchining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish xususiyatlari haqida bayon etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini ochish ichki ishlar idoralari surishtiruv organlari, jumladan tezkor-qidiruv xizmatlarining jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatidagi asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi jinoyat alomatlarini, uni sodir etgan shaxslarni aniqlash va fosh etishdan iborat.

Bunda jinoyatni ochish uchun tezkor shtab, shuningdek tergov-tezkor guruhi tuziladi, unga ichki ishlar idoralarining tezkor xodimlari, shuningdek boshqa xizmat xodimlari ham jalb etilishi mumkin. Tezkor shtab prokuratura tergovchisi bilan doimiy aloqada bo'lib, ma'lumot almashish, tezkor yo'llar orqali olingan ma'lumotlarni protsessual mustahkamlash va boshqa masalalarni hamkorlikda hal qiladilar.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini fosh etish uchun tuzilgan tergov-tezkor guruhining har bir a'zosi o'ziga taaluqli bo'lgan vazifa va topshiriqlarni puxta hamda sifatli amalga oshirishi lozim. Tezkor shtab asosan tezkor vakillardan jamlanadi.

Surishtiruvchi sifatida tezkor shtab rahbarining asosiy vazifalari:

– qasddan odam o'ldirish jinoyatini ochish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlarini puxta olib borilishi va tergovchining topshiriqlarini sifatli bajarilishini nazorat qilish;

– IIB barcha hisoblari, shu jumladan kriminalistik va tezkor hisob ma'lumotlaridan foydalanilishini ta'minlash;

– olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va tergovchiga ma'lum qilish;

– tezkor-qidiruv tadbirlarining tergov harakatlari bilan bir vaqtda olib borilishini ta'minlash;

– jazoni ijro etish muassasalari, jamoat tashkilotlari va davlat organlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Shu bilan birga, ularga qasddan odam o'ldirish jinoyatini ochish bo'yicha ishlayotgan tergov-tezkor guruhi, sud tibbiyot eksperti va boshqa soha mutaxassislariga zarur hollarda amaliy va texnik yordam ko'rsatish vazifasi yuklanadi.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatini ochishda tasmol yoki taxminlarni ishlab chiqish va ularni tekshirish katta ahamiyat kasb etadi. Tasmollarni ilgari surishda jinoyatning xususiyati va ushbu turdagi jinoyatni ochishdagi amaliy tajribalardan kelib chiqadigan umumiy holatlarni inobatga olish lozim.

Jinoyatni fosh etish borasida tezkor-qidiruv va surishtiruv ishlarini to'g'ri tashkil etish va rejalashtirishda quyidagi holatlarga e'tibor qarata tish zarur:

- mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va ularga to'g'ri baho berish;
- tezkor-qidiruv va surishtiruv ishlarining yo'nalishini belgilab olish;
- tergovni qiziqtirayotgan savollar bo'yicha aniq vazifalar belgilash;
- jinoyatni ochish borasida qiziqish uyg'otayotgan masalalarni hal etish uchun tezkor-qidiruv tadbirlarini belgilash;
- tergov va surishtiruv organlarining o'zaro hamkorligi;
- keng jamoatchilikni jalb qilish.

Albatta, o'tkaziladigan tezkor-qidiruv tadbirlari oshkor yoki nooshkor ravishda amalga oshirilishi mumkin. Qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan shaxs ayrim hollarda surishtiruv organi xodimi bilan muloqotda bo'lishi va harakatlarni kuzatib yurishi mumkin. Shuning uchun bedarak yo'qolgan shaxsning yo'qolish sabablarini aniqlash, taxminiy jinoyat sodir etilgan joy, xonadon boshqa binolarni tezkor tekshirish, yashirin ravishda daliliy ashyolarni olish, guvoh va gumon qilinuvchilar orasida so'rovlar o'tkazish va boshqa tezkor qiziqish uyg'otuvchi shaxslarni aniqlash jarayoni tezkor xodimlar tomonidan zudlik bilan yashirin ravishda amalga oshirilishi lozim. Bunday tadbirlarni o'tkazishda nooshkor ko'maklashuvchi shaxslar imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tadbirlarni bajarish jarayonida quyidagi asosiy ma'lumotlarni aniqlashga ahamiyat berish zarur:

- shaxs oxirgi marta qaerda va kim bilan ko'rishgan;
- nima haqida gaplashgan;

- kim bilan va nima uchun janjallashgan;
- uning o‘limidan manfaatdor shaxslar bormi;
- so‘nggi vaqtlarda uning yurish-turishida o‘zgarishlar kuzatilganmi;
- qanday kiyimda bo‘lgan;
- uning qanday hujjatlari yoki boshqa narsalari yonida bo‘lgan va hokazo.

Agar surishtiruv jarayonida jabrlanuvchining o‘limidan manfaatdor shaxslar aniqlansa va ularning yurish-turishi shubha uyg‘otsa, ularga nisbatan tezkor kiritish tezkor-qidiruv tadbirini o‘tkazish lozim.

O‘tkazilayotgan tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida boshqa tumanlardan kelayotgan xabarnomalarni o‘rganish, barcha topilgan va shaxsi aniqlanmagan murdalarni taqqoslash ham ayrim vaqtlarda o‘z samarasini beradi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, aybdorni fosh qilish uchun, birinchi navbatda, jabrlanuvchining aloqalari orasida tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish kerak. Jinoyatchini jabrlanuvchining tanishlari, qarindoshlari va u bilan moddiy taraflama aloqada bo‘lgan shaxslar orasidan qidirish deyarli barcha qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarida amalga oshiriladi. Jinoyatchini ma’lum bir hudud doirasida qidirish uchun jabrlanuvchining shaxsini, atrofidagi shaxslarni hamda ular orasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash lozim. Jabrlanuvchining aloqalarini to‘liq aniqlash, uning o‘limidan oldingi hayotini o‘rganish va jinoyatni ochish jarayonida yuzaga kelgan tasmollarni tekshirish keyingi tezkor-qidiruv tadbirlarini rejalashtirishda ijobiy natijalar beradi.

Belgilangan tadbirlarning tez va puxta bajarilishi, tergovchi bilan tezkor xodim hamkorligining yuqori saviyada tashkillashtirilishi qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarining muvaffaqiyatli ochilishiga zamin tayyorlaydi.

Agar dastlabki tezkor-qidiruv tadbirlari jarayonida qasddan odam o‘ldirish jinoyatini ochishning imkoni bo‘lmasa, to‘plangan ma’lumotlar inobatga olinib, keyingi tezkor-qidiruv tadbirlari amalga oshiriladi.

Bundan keyingi tezkor-qidiruv tadbirlarining rejasi tuziladi. Ushbu rejada quyidagilar o‘z aksini topishi lozim:

- O‘zbekiston Respublikasi IIV, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB, SHTIIB tezkor hisob ma’lumotlaridan foydalangan holda, hodisa sodir etilgan hududda yashovchi (ishlovchi), ilgari shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi qaratilgan jinoyatlarni sodir etib sudlanib chiqqan shaxslarni tekshirish hamda zarur bo‘lganda (ularga nisbatan qoralovchi ma’lumotlar aniqlanganda) maxsus ishni tashkil etish;

– ichki ishlar idoralari, tegishli tibbiy muassasalar, harbiy qismlar ro‘yxatlarida turgan og‘ir ruhiy kasallar (giyohvandlar, surunkali ravishda spirtli ichimliklarni iste‘mol qiluvchilar, jinsiy buzqlikka moyil shaxslar va hokazo)ning ro‘yxati olinib, ularni tekshirishni tashkil qilish (bu tadbir jinoyat motividan kelib chiqib amalga oshiriladi);

– jabrlanuvchi foydalangan uyali aloqa vositasining abonent raqami, ushbu abonent bilan oxirgi bir oy davomida kimlar bilan gaplashganligi va xat-xabar yozishganligini aniqlash maqsadida, uyali aloqa kompaniyasidan kirish va chiqish qo‘ng‘iroqlari to‘g‘risidagi hamda «Peleng» dasturi asosida olingan ma‘lumotlarni tekshirish;

– tezkor ma‘lumotlar, xat-xabarnomalar, qidiruv bo‘yicha topshiriqlar, tezkor hisob yig‘ma jildlari, ilgari shaxsning hayoti va sog‘lig‘iga qarshi g‘arazli maqsadlarda jinoyatlar sodir etib, sudlangan shaxslar (qidiruvda bo‘lganlar), ruhiy kasallar, harbiy xizmatdan bosh tortib yoki qochib yurganlar, voyaga etmagan bezori shaxs yoki guruhlarni va boshqa jinoiy muhitga taaluqli ma‘lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish;

– HOOB profilaktika inspektorlari bilan aholi yashaydigan va jamoat joylarida kechiktirib bo‘lmaydigan ma‘lumotlar to‘plash tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish;

– VSH, TH, ish va yashash joyining tayini bo‘lmagan shaxslarni rehabilitatsiya qilish markazlari, sud tomonidan ma‘muriy qamoqqa olingan shaxslar saqlanadigan maxsus muassasalarga u erda saqlanuvchi shaxslar, yangi keltirilganlar orasidan jinoyat haqida xabardor shaxslarni aniqlash uchun jinoyat tafsilotlari to‘liq ko‘rsatilgan holda tegishli topshiriqlar berish;

– fohishaxonalar, bangixonalar, o‘g‘irlangan mulklarni sotish mumkin bo‘lgan joylar, spirtli ichimliklarni quyib sotuvchi shahobchalar hamda tungi ko‘ngilochar maskanlarda vaqti-vaqti bilan «Tozalash» tadbirlarini o‘tkazish;

– ushbu joylarda ishlayotgan maxsus kuchlarni voqea joyidan o‘g‘irlangan buyumlarning alohida belgilari bilan tanishtirish, tezkor xodimlar tomonidan shaxsiy izlov tadbirlarini o‘tkazish;

– qasddan odam o‘ldirish yoki boshqa og‘ir turdagi jinoyat sodir etganligi uchun qidiruvda bo‘lgan shaxslarni aniqlash maqsadida, qanday huquqbuzarlik sodir etganligi va shaxsini tasdiqlovchi qanday hujjati bo‘lishidan qat’iy nazar, shahar, tuman IIB navbatchilik qismlariga keltirilgan barcha shaxslarni manzil-ma‘lumotlar byurosi, avtomatlashtirilgan ma‘lumotlar banki hisoblari bo‘yicha tekshirish;

– doimiy ravishda shahar, tuman IIB navbatchilik qismlarining xodimlari tomonidan yashash va ish joyining tayini bo‘lmagan shaxslar, surunkali ravishda spirtli ichimliklar iste’mol qiluvchilar, mayda bezorilik uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 221-moddasi tartibida ushlangan shaxslarning barmoq izlarini olish hamda ochilmasdan qolgan qasddan odam o‘ldirish jinoyatlari bo‘yicha tekshirish uchun ekspert-kriminalistika bo‘limlariga yuborish va ularni avtomatlashtirilgan ma’lumotlar bazasi (ABD), «ASIL» va «ADIS-SONDA» dasturlari orqali tekshirish;

– ushlangan shaxslardan olingan narsalarni, etarli asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, hodisa joyidan olib ketilgan buyumlar hisobi bo‘yicha tekshirish;

– boshqa hududlarda sodir etilgan jinoyatlar bilan o‘xshash jinoyatlar bo‘yicha o‘tayotgan shaxslarni o‘rganish hamda faol ravishda ma’lumot almashuvini tashkil etish;

– jinoyatchini ko‘rgan fuqarolar yoki boshqa guvohlar aniqlangan taqdirda, ular yordamida jinoyatchining taxminiy suratini chizish, foto-robotini tuzish hamda barcha xodimlar, sohaviy xizmatlar, maxsus kuchlar va mahalla faollariga tarqatish.

Agar oshkora va nooshkora ravishda o‘tkazilgan tadbirlar jarayonida yoki mahfiylik asosida ko‘maklashayotgan shaxslarning ma’lumotlari asosida gumon qilinuvchi shaxs aniqlanib, lekin uni qo‘lga olish uchun etarli dalillar bo‘lmasa, quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

– gumon qilinayotgan shaxsga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi IIV, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar va Transport IIB Axborot Markazlarining tezkor hisoblarida qoralovchi ma’lumotlar bor-yo‘qligini aniqlash;

– gumon qilinuvchi shaxsning doimiy yoki vaqtiinchalik yashash joyida so‘rov va ma’lumotlar to‘plash tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish;

– gumon qilinuvchi shaxsning hayot tarzi, maqsadlari, jinoiy aloqalarini aniqlash, jinoyatga aloqadorligini tekshirish va boshqa tezkor ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash maqsadida keng qamrovli tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish.

Surishtiruvchi tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda zarur bo‘lganda tergovchi sifatida hodisa sodir bo‘lgan joyda ko‘zdan kechirishni tashkil etish, kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini o‘tkazishi, tergov-tezkor guruh a’zolariga vazifalarni taqsimlab, ularning hamkorligini takshil etishi mumkin.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Tergovga qadar tekshiruv deganda nimani tushunasiz?
2. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazish tartibini tushuntiring.
3. Surishtiruvchining tergov-tezkor guruhi tarkibidagi vazifalariga nimalar kiradi?
4. Surishtiruvchining tergov-tezkor guruhi tarkibidagi faoliyati qanday amalga oshiriladi?
5. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining tergovchi bilan birgalikdagi faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini aytib bering.
6. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining ekspert-kriminalist bilan birgalikdagi faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini tushuntiring.
7. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining navbatchilik qismi tezkor navbatchisi bilan birgalikdagi faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini tushuntiring.
8. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining kinolog inspektori bilan birgalikdagi faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini tushuntiring.
9. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining profilaktika xizmatlari (tezkor-qidiruv xizmatlari) bilan bilan birgalikdagi faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini tushuntiring.
10. Tergovga qadar tekshiruv o‘tkazishda surishtiruvchining ichki ishlar organlari boshqa sohaviy xizmatlari bilan bilan birgalikdagi faoliyatining mazmuni va yo‘nalishlarini tushuntiring.

IV bob. JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH VA SURISHTIRUVNING BOSHLANISHI

«Jinoyat ishini qo‘g‘atish bosqichi» tushunchasi va vazifalari

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichi deganda surishtiruv organi, tergovchi, prokuror o‘zlariga ma‘lum bo‘lib qolgan hodisada jinoyat belgilari mavjudligini aniqlab, jinoyat ishi qo‘zg‘atish va ish yuritishni boshlash haqida yoki jinoyat alomatlari bo‘lmaganda, shuningdek jinoyat ishi yuritishni istisno etuvchi holatlar mavjud bo‘lganda jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risida qaror chiqarish bilan bog‘liq protsessual jarayonlar tushuniladi.

Shunday qilib, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichida muayyan jinoyat-protsessual harakatlar bajariladi, uning subyektlari bo‘lib jinoyat haqida ariza bergan shaxs (fuqaro, muassasa, korxonona yoki tashkilot), surishtiruv organi, tergovchi, prokuror yoki sudya, shuningdek jamoatchilik vakillari, fuqarolar jinoyat-protsessual munosabatlarda ishtirok etadi hamda ushbu bosqich davomida jinoyat-protsessual munosabatlarning natijasi sifatida muhim protsessual hujjatlar qabul qilinadi. Ushbu bosqichga ham qonunda belgilangan muayyan protsessual shakl xos bo‘lib, unga qat‘iy rioya etish qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi va asoslanganligining muhim kafolati hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish – jinoyat sodir etgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish, jazoga hukm etish va jazolashning zaruriy dastlabki sharti bo‘lib, qonunda nazarda tutilgan protsessual majburlov choralari va tergov harakatlarini amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Faqat jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan keyin surishtiruv organi, tergovchi, prokuror o‘z vakolatlari doirasida tintuv o‘tkazish, olib qo‘yish, shaxslarni guvohlar, jabrlanuvchilar sifatida so‘roq qilish uchun chaqirishga haqlidir va h.k. Binobarin, jinoyat ishini qo‘zg‘atish bosqichi ayrim fuqarolarni jinoiy javobgarlikka, boshqalarni esa sudlovga asossiz jalb etishdan saqlash uchun protsessual kafolat bo‘lib xizmat qiladi.

Jinoyat ishini qo‘zg‘atish nafaqat huquqiy, balki muhim siyosiy ahamiyatga ham ega. Jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi qarorni surishtiruv organi, tergovchi, prokuror, ya‘ni davlatning vakolatli organlari va mansabdor shaxslari qabul qiladilar. Ushbu organlar va mansabdor shaxslarda ishning holatlari, ya‘ni sodir etilgan jinoyatning og‘irlik darajasiga qarab, bunday jinoyatlarga qarshi kurashning samaradorligi,

jamoat tartibini saqlash va xavfsizlik ta'minlash borasida choralar ko'rilishi haqida tasavvur shakllanadi.

Surishtiruv organlari, tergovchi, prokuror va sudning qonunni buzish bilan bog'liq har qanday jinoiy harakatlarga nisbatan tez va kechiktirmasdan chora ko'rishi jinoyatchilikka samarali qarshi kurashning muhim shartidir. U jinoyatning fosh etilishini va ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxslarning qonunda belgilangan javobgarlikka tortilishini ta'minlaydi. Jinoyat ishini o'z vaqtida va asosli ravishda qo'zg'atish huquq-tartibotning yanada mustahkamlanishiga, fuqarolarning qonunlarga qat'iy rioya etish ruhida tarbiyalanishiga ko'maklashadi.

Jinoyat ishini asossiz ravishda qo'zg'atish ham, qo'zg'atishni asossiz rad etish ham qonunni qo'pol tarzda buzishdir. U davlatga va jamiyatga, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga katta zarar etkazadi, jamoatchilik ko'z o'ngida jinoyatchilikka qarshi kurashishi lozim bo'lgan organlarning obro'sini tushiradi.

Jinoyat ishini asossiz ravishda qo'zg'atish kuch va mablag'larning befoyda sarflanishiga, sun'iy ravishda ortiqcha ish yaratilishiga olib keladi. Asos bo'lmay turib jinoyat ishini qo'zg'atish yanada jiddiy qonun buzilishlariga – noqonuniy ushlab turish, ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish, asossiz ravishda tintuv o'tkazish, qamoqqa olish va boshqa protsessual majburlov choralari qo'llashga olib kelishi mumkin. Ayni paytda jinoyat ishi qo'zg'atishni asossiz ravishda rad qilish jinoyat sodir etgan shaxslarning jazolanmay qolishiga olib keladi, jinoiy faoliyatning davom etishi uchun sharoit yaratadi, sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga putur etkazadi.

Faqat jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani qonuniy va asosli hal qilishgina jinoyat-protsessining dastlabki bosqichida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning so'zsiz va qat'iy bajarilishini ta'minlaydi. Ushbu vazifa prokurorning jinoyat ishini qo'zg'atishning qonuniyligini nazorat qilish vazifasiga kiradi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi vazifalari.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi mazmunan tegishli (jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish haqida) protsessual hujjat chiqarishdangina iborat emas. Unga jinoyat haqida berilgan ariza yoki xabar bo'yicha yakuniy qaror chiqarishdan avval keluvchi bir qator masalalarni ko'rib chiqish va hal etish borasidagi protsessual faoliyat ham kiradi. Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun Jinoyat-protsessual kodeksning 322-moddasi 1–5-bandlarida mustahkamlangan ma'lumotlar sabab bo'ladi. Bunda quyidagilarni tekshirish lozim:

- tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqidagi xabar jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun qonuniy sabab bo‘ladimi;
- olingan xabardagi ma‘lumotlarda aks etgan holatlarda jinoyat alomatlarini bormi;
- jinoyat Jinoyat kodeksining qaysi moddasi bilan baholanishi mumkin;
- qanday aniq ma‘lumotlar asosida olingan xabarda aks etgan holatlar haqiqatan ham mavjud bo‘lgan deb topiladi;
- jinoyat holatlari bo‘yicha hodisa joyini ko‘zdan kechirish kerak emasmi;
- dastlabki tekshiruv o‘tkazish zarurati yuzaga keladimi va agar bunday zarurat mavjud bo‘lsa, qanday tekshiruv harakatlari o‘tkazilishi kerak;
- ushbu organ va muayyan mansabdor shaxs jinoyat ishini qo‘zg‘atish haqidagi masalani hal qilishga haqlimi yoxud mavjud materiallar tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborilishi kerakmi (JPK 330, 335-moddalar);
- jinoyat ishini qo‘zg‘atishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar mavjudmi yoki yo‘qmi;
- materiallarni ma‘muriy, intizomiy va jamoat ta‘siri choralari ko‘rish uchun jinoyat ishini qo‘zg‘atmasdan turib yuborish asoslari mavjud emasmi (JPK 334-moddasida belgilangan tartibda);
- jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan taqdirda surishtiruv yoki tergovni kim olib borishi kerak;
- jinoyat faqat jabrlanuvchining shikoyati bo‘yicha ish qo‘zg‘atiladigan (JPK 325-m.) va/yoki u ayblanuvchi bilan yashagan taqdirda ish tugatiladigan jinoyatlar (JK 66¹-m.) sirasiga kirmaydimi;
- jinoyatning oldini olish yoki unga yo‘l qo‘ymaslik uchun, shuningdek dalillarni to‘plash va saqlab qolish uchun qanday choralar ko‘rilishi kerak.

Mazkur masalalar jinoyat ishini qo‘zg‘atish yoxud qo‘zg‘atishni rad etish to‘g‘risida qaror chiqarilguniga qadar hal etilishi sababli, qonunda nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilishi va quyidagi hujjatlar tuzilishi mumkin: arizachi bila turib yolg‘on xabar berganlik uchun javobgarlikka tortilishi to‘g‘risida ogohlantirilgan va bu haqida o‘z imzosi bilan tasdiqlagan og‘zaki ariza yoki aybiga iqror bo‘lish haqida arz qayd etilgan bayonnoma; korxonalar, muassasa va tashkilotlardan, shuningdek fuqarolardan tekshiruv davomida olingan tushuntirishlar; tergovchi yoki prokurorning surishtiruv organiga tergovga qadar tekshiruv davomida tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish haqida bergan topshiriqlari; hujjatlarni tergovga tegishliligi bo‘yicha yuborish haqidagi

qaror; hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi; hujjatlar taqdim etish haqidagi so'rov xatlari, ekspertiza yoki taftish tayinlash haqidagi qarorlar.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida rasmiylashtiriladigan protsessual hujjatlar:

- 1) ariza, bildirgi;
- 2) ushlab turish (tintuv, telefon orqali qo'ng'iroq qilish imkoni berilganligi, xabarnoma) bayonnomasi;
- 3) ko'zdan kechirish bayonnomasi;
- 4) tushuntirish xatlari;
- 5) ekspertiza yoki taftish tayinlash haqida qaror;
- 6) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qarori;
- 7) jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqida qaror;
- 8) arizani tegishliligiga qarab yuborish haqida hujjat (qaror, aloqa xati);
- 9) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida prokurorga taqdimnoma.

Qayd etilgan protsessual hujjatlarni rasmiylashtirishda quyidagi xususiyatlarga e'tibor qaratish zarur:

- 1) hujjatlar qonunda belgilangan shaklda tuzilishi, ularda zaruriy rekvizitlari bo'lishi;
- 2) jumlarlar tushunarli, aniq va mantiqiy izchillikda ifodalanishi;
- 3) jinoyat-protsessual kodeks talablariga rioya etilgan holda rasmiylashtirilishi;
- 4) protsessual muddatlarga rioya etilgan holda chiqarilishi;
- 5) qarorning tavsif-asoslantirish qismida hodisa tafsiloti, tekshirish jarayonida aniqlangan holatlar, kelingan to'xtam yoki xulosani asoslovchi dalillar, ularning mazmuni va qonuniy asoslari aniq ko'rsatilishi;
- 6) turli xatolarsiz, jumladan o'chirmasdan, buyalmasdan, keyinchalik o'qish uchun qo'lay tarzda yozilishi;
- 7) zamonaviy talablarga mos bo'lishi, ya'ni imkon qadar texnik vositalar (kompyuter) yordamida yozish kabilar.

Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida to'plangan dalillarga baho berish natijasida qaror qabul qilinadi. Dalillarga baho berish deganda to'plangan va tekshirilgan ma'lumotlarni dalil deb tan olish yoki tan olmaslik haqida xulosaga kelish, ya'ni dalilning ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligiga oydinlik kiritish tushuniladi.

Shuningdek, «dalillarni baholash» tushunchasiga ham alohida to'xtalish zarur. Dalillarni baholash deganda esa baho berish bilan birga

isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarning haqiqiylikini so'zsiz tasdiqlovchi dalillar zarur miqdorda to'planganligini aniqlash va ular mazmunidan kelib chiqqan holda muayyan qarorlar (hal qiluv qarorlari)ni qabul qilish bo'yicha to'xtamga kelish tushuniladi.

Jinoyat-protsessining ushbu bosqichida «jinoyat alomatlari bor-yo'qligini ko'rsatuvchi va tergov yuritish zarurligini asoslovchi ma'lumotlar etarlimi», degan masala hal qilinadi.

Yuqorida qayd etilganlar mazmunidan kelib chiqqan holda jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- tayyorlanayotgan jinoyatlar haqida xabar olinganda uning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

- sodir etilayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlab, uni to'xtatish, shuningdek salbiy oqibatlar kelib chiqishining oldini olish;

- jinoyat tez va to'la ochilishi uchun sharoit yaratish;

- kelib tushgan xabarda aks etgan hodisa yuz bergan yoki yuz bermaganligini aniqlash;

- sodir bo'lgan qilmish jinoyat yoki jinoyat emasligini aniqlash;

- jinoyat ishi qo'zg'atish yoki ish qo'zg'atishni rad etish masalasini hal etish;

- qilmish ma'muriy huquqbuzarlik deb baholanganda ma'muriy javobgarlik masalasini hal etish;

- sodir etilgan jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik natijasida etkazilgan zararni aniqlash va uni qoplanishini ta'minlash choralarini ko'rish;

- dalillarni to'plash va saqlash;

- jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash va uning yashirinishiga yo'l qo'ymaslik;

- dastlabki tergov samarali amalga oshirilishiga ko'maklashish;

- tergovga qadar tekshiruvga jalb qilingan yoki ushbu bosqichda huquqlari cheklangan ishtirokchilarning protsessual huquqlarini ta'minlash.

Mazkur vazifalar samarali bajarilishi jinoyat-protsessining vazifalari o'z vaqtida va to'liq ijro etilishiga xizmat qiladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslari. Jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal etish

Jinoyat ishini qo'zg'atish sababi – qonunda belgilangan hamda surishtiruv organi, tergovchi, prokuror yoki sudga tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ma'lumot beradigan manba. Sababning mavjudligi ushbu organlarning jinoyat ishini qo'zg'atish zarurati bor yoki yo'qligi haqidagi masalani hal etish majburiyatini yuzaga keltiradi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 322-moddasiga ko'ra, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun:

- 1) shaxslarning arizalari;
- 2) korxonalar, muassasalar, tashkilot hamda jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar;
- 3) ommaviy axborot vositalarining xabarlari;
- 4) jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning bevosita o'zi aniqlashi;
- 5) aybini bo'yniga olish haqidagi arz sabab bo'ladi.

Jinoyat-protsessual kodeksda jinoyat haqidagi ma'lumotlarning u yoki bu manбайдan jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab sifatida foydalanish shartlari va tartibi belgilangan.

Shaxslarning arizalari jinoyat ishini qo'zg'atishning tergov amaliyotida eng ko'p uchraydigan sababi hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksning 324-moddasiga muvofiq, shaxslarning jinoyat to'g'risidagi arizalari yozma yoki og'zaki bo'lishi mumkin. Fuqarolarning og'zaki arizalari bayonnomada qayd etiladi. Bayonnomada quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak: ariza qabul qilingan joy va vaqt; arizani qabul qilgan shaxsning lavozimi va familiyasi; ariza beruvchi haqidagi ma'lumotlar (familiyasi, ism-sharifi, tug'ilgan yili, lavozimi va ish joyi, shaxsini tasdiqlovchi pasport yoki boshqa hujjat, uy manzili); Jinoyat kodeksining 237-moddasi bo'yicha ariza beruvchiga yolg'on xabar bersa, jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida tushuntirilganligi va ariza beruvchining imzosi bilan tasdiqlanganligi; birinchi shaxs (arizachi) nomidan yozilgan ariza mazmunining bayoni;

– bayonnomani ariza bilan murojaat etgan shaxs o'qiganligi va uning so'zlaridan to'g'ri yozilganligi haqidagi belgi, shuningdek ariza bergan shaxsning va arizani qabul qilgan mansabdor shaxsning imzosi.

Fuqarolarning yozma arizalari imzolangan bo'lishi kerak. Anonim ariza, ya'ni imzosiz, qalbaki imzoli yoki uydirma shaxs nomidan yozilgan ariza jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'la olmaydi. Anonim arizada jinoyatlarga oid aniq faktlar mavjud bo'lganda, uni surishtiruv organi (o'z tashabbusi bilan yoki prokuror, tergovchi, sudning topshirig'i bo'yicha) tekshirib chiqishi mumkin. Agar faktlar tasdiqlansa, bunday holda surishtiruv organlarining jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashlari jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'ladi.

Qonunning arizani uning muallifi imzolashi shart ekanligiga oid talabi jinoyat haqida ma'lumotlardan xabar beruvchi fuqaroning javobgarligini oshirishga, pirovardida, jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi

masalani hal etish uchun asos qilib olish mumkin bo'lgan ishonchli faktlarni olishga qaratilgan. Shu bois, og'zaki yoki yozma ariza yoxud xabar olingan har bir holda ariza muallifining shaxsini aniqlash jinoyat ishini asosli tarzda qo'zg'atish uchun katta ahamiyatga ega.

Jinoyat-protsessual kodeksda korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar bergan xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish uchun alohida sabab sifatida ajratilgan. Bu jamoatchilikning jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichidagi ishtirokining ahamiyatidan darak beradi. Ular yozma shaklda (xizmat xati, tasdiqlangan telefonogramma, telegramma, radiogramma shaklida) bayon etilishi mumkin. Xabar yuboruvchi sodir etilgan jinoyatga oid holatlarni tasdiqlovchi o'z ixtiyoridagi hujjatlarni xabarga ilova qilib yuborishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari bergan xabarlar ham jinoyat ishini qo'zg'atish uchun sabab bo'la oladi. Muayyan jinoyat to'g'risida matbuot, radio va televidenie, hujjatli kinofilmlardagi, shuningdek ommaviy axborot vositalariga yo'llangan, lekin e'lon qilinmagan xatlardagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'ladi.

Jinoyat to'g'risidagi xabarni e'lon qilgan yoki tegishli joylarga yuborgan ommaviy axborot vositalari, shuningdek bu xabar mualliflari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning talabiga asosan o'z ixtiyorlarida bo'lgan hujjatlarni va xabarni tasdiqlovchi boshqa materiallarni taqdim qilishlari shart. Jinoyat-protsessual kodeksda jinoyat ishini qo'zg'atish uchun bunday sababning belgilanganligi surishtiruv, tergov organlari, prokuraturaga doimiy ravishda matbuot xabarlarini kuzatib borish va ular bo'yicha chora ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Muassasa, korxonalar va tashkilotlarning devoriy gazetalarida e'lon qilingan xabarlar qonunda nazarda tutilmagan. Devoriy gazetalaridagi jinoyat haqidagi xabarlar jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilish vakolatiga ega bo'lgan organlarga ma'lum bo'lib qolsa, tegishli organning jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi buning sababi bo'lib xizmat qiladi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz. Bu – ariza beruvchining o'zi sodir etgan jinoyati to'g'risida ichki ishlar organlari yoki huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga shu jinoyat haqida xabar kelib tushmasidan, ya'ni gumon qilinmasidan va unga ayblov e'lon qilinmasidan oldin bergan xabari. U og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror og'zaki xabarni bayonnomada aks ettiradi, unga arz qiluvchining shaxsiga doir ma'lumotlar kiritiladi va unda arzning mazmuni birinchi shaxs nomidan bayon qilinadi. Bayonnomaga arz qiluvchi va surishtiruvchi, tergovchi, prokuror imzo chekadi.

Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arzni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror baholaydilar. Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan gumon qilinuvchi ushlanganida o'tkazilgan so'roqlardan keyingi chin ko'ngildan aybiga iqrор bo'lishni farqlash lozim. Aybini bo'yniga olish to'g'risidagi arz bilan murojaat qilgan shaxs Jinoyat-protsessual kodeksning 221-moddasida ko'rsatilgan asoslardan biri mavjud bo'lganda ushlab turilishi mumkin.

Surishtiruv organi, tergovchi, prokurorning jinoyat alomatlarini bevosita aniqlashi. Ushbu sababning o'ziga xos jihati shundaki, jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masala tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyat haqida ariza, xabar yoki xat tushganligi sababli emas, balki surishtiruv organi, tergovchi, prokurorning tashabbusi bilan hal qilinadi. Jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlarning bevosita aniqlanishi quyidagi hollarda jinoyat ishini qo'zg'atishga sabab bo'lishi mumkin:

1) surishtiruvchi ma'muriy vazifani amalga oshirayotganida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha surishtiruv o'tkazish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida;

2) tergovchi boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov yuritish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida;

3) prokuror qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish paytida yoki boshqa jinoyatga doir ish bo'yicha dastlabki tergov olib borish chog'ida jinoyatga oid ma'lumotlarni aniqlaganida.

Jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarning to'liq va qat'iy hisobga olib borilishini ta'minlash – jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani to'g'ri va qonuniy hal qilishning zaruriy shartidir. Jinoyatlar haqidagi arizalar va xabarlarni ro'yxatga olishdan yashirish, jinoyatlarni har qanday shakldagi hisobdan yashirish, shuningdek ularga nisbatan choralar ko'rmaslik qonuniylikni qo'pol ravishda buzish bo'lib, aybdorlarga nisbatan Jinoyat kodeksining 241¹-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortishgacha bo'lgan choralarni qo'llashga olib keladi.

Surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyatga oid ma'lumotlar olingan yoki bunday ma'lumotlarni bevosita o'zlari aniqlagan har bir holda quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqida;

2) ish qo'zg'atishni rad qilish haqida;

3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborish haqida.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari. Qonuniy sababdan tashqari, jinoyat ishini qo'zg'atish uchun etarli asoslar ham mavjud bo'lishi talab etiladi. Jinoyat-protsessual kodeksning 321-moddasiga muvofiq, jinoyat ishi etarli asoslar mavjud bo'lgan barcha hollarda qo'zg'atiladi.

«Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari» deganda, tekshirilayotgan hodisa haqiqatan sodir bo'lganligi va unda jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar, ya'ni dalillar mavjudligi e'tirof etiladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari ikkita o'zaro chambarchas bog'liq unsurdan tashkil topadi:

1) jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi masalani hal qilishga vakolatli bo'lgan mansabdor shaxsga ma'lum bo'lib qolgan hodisada jinoyat alomatlarining mavjudligi, ya'ni Jinoyat kodeksi Maxsus qismidagi muayyan jinoyat belgilari – moddiy-huquqiy asos;

2) jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi etarli ma'lumotlar to'planganligi, dalillarning mavjudligi, ya'ni protsessual-huquqiy asos.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qarorni qabul qilish paytida jinoyat tarkibining barcha elementlari haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish shart emas. Muayyan shaxslarni, ayb shaklini, jinoyat sodir etilishining motivlari, usullari va boshqa holatlarini to'liq va har tomonlama aniqlash dastlabki tergov bosqichining, keyinchalik esa sud muhokamasida hal etiladigan vazifa hisoblanadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari mazmunining zaruriy elementi bo'lmish «jinoyat alomatlari» tushunchasini tahlil qilishda jinoyat va jinoyat-protsessual huquqning chambarchas aloqadorligi ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Jinoyat alomatlarining aniqlanishi Jinoyat kodeksining muayyan normasida nazarda tutilgan (ta'qiqlangan), ijtimoiy xavfli, aybli, jinoiy jazolanadigan qilmish haqida etarli ma'lumotlar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi masalani hal qilishda jinoiy jazoga tortiladigan qilmishni ma'muriy, fuqaroviy-huquqiy va boshqa munosabatlarni yuzaga keltiruvchi harakatlardan farqlash imkonini beruvchi belgilarga alohida e'tibor berish kerak. Ushbu belgilar, avvalo, jinoyatning obyektiv tomoniga taalluqli bo'lib, jinoyat hodisasining o'zi haqiqatda mavjud bo'lganligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Jinoyat ishini qo'zg'atish chog'ida aniqlangan jinoyat belgilariga muvofiq, qilmish Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bo'yicha tavsiflanadi (kvalifikatsiya qilinadi). Jinoyat-protsessining keyingi bosqichlari davomida ushbu tavsifga, huquqiy bahoga aniqlik kiritilishi mumkin.

Jinoyat ishini qo'zg'atish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi haqiqiy ma'lumotlarni olish yoki tekshirish maqsadida surishtiruv organi, tergovchi, prokuror muayyan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini amalga oshirishi mumkin. Ushbu harakatlarning butun ma'nosi va vazifasi jinoyat belgilarining va ish yuritishni istisno etuvchi holatlarning bor yoki yo'qligini aniqlashdan iborat. Bu holatlardan biri aniqlangan

zahoti mos ravishda jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad etish haqidagi qarorlardan biri qabul qilinadi. Tekshiruv harakatlari haqiqatan zarur bo'lgan hollarda va faqat qonunda belgilangan muddatda amalga oshirilishi mumkin. Agar sababda jinoyat alomatlarini yoki ularning yo'qligini ko'rsatuvchi etarli haqiqiy ma'lumotlar mavjud bo'lsa, qaror qo'shimcha tekshirishsiz qabul qilinishi kerak.

Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari bor yoki yo'qligini aniqlash turli usullar yordamida amalga oshiriladi, ya'ni jinoyat haqidagi ariza yoki xabar tekshiriladi. Tergovga qadar tekshiruv doirasida tegishli organga taftish yoki inventarizatsiya o'tkazish haqida topshiriq berilishi, ilmiy bilimlarni talab etuvchi u yoki bu masalada mutaxassis maslahati olinishi mumkin. Vakolatli organlar surishtiruvchi, tergovchi yoki prokurorning topshirig'iga asosan jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlashga qaratilgan tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishga haqlidirlar.

Jinoyat haqidagi ariza va boshqa xabarlarini ko'rib chiqish (tekshirish) natijasida quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- 1) jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida;
 - 2) jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida;
 - 3) ariza yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab jo'natish to'g'risida.
- Qabul qilingan qaror haqida arizachiga xabar beriladi.

Jinoyat haqidagi ariza va xabarlarini ko'rib chiqish, tergovga qadar tekshiruv o'tkazish va uning natijalarini baholashda quyidagi masalalarning javobini topish talab etiladi:

- ariza yoki xabarda aks etgan hodisa haqiqatan sodir etilganmi;
- sodir etilgan hodisada jinoyat alomatlari mavjudmi, agar mavjud bo'lsa u qaysi jinoyat;
- jinoyat ishini qo'zg'atishni istisno qiladigan holatlar (Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi, 1-qismi) mavjudmi.

Sodir etilgan hodisada jinoyat alomatlari mavjudligini tasdiqlovchi dalillar to'planganda va ish qo'zg'atishni istisno qiluvchi holatlar mavjud bo'lmasa jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror chiqariladi. Agarda jinoyat alomatlari mavjud bo'lmasa Jinoyat-protsessual kodeksi 83-moddasiga asosan, jinoyat alomatlari mavjud bo'lsa-da, ish qo'zg'atishni istisno qiluvchi holatlar aniqlansa Jinoyat-protsessual kodeksi 84-moddasi 1-qismiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqida qaror chiqarilishiga olib keladi.

Surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qaror qabul qilishda surishtiruv organi boshlig'i bilan kelishgan holda hrakatlanishi zarur. Surishtiruvchi chiqaradigan jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni

rad etish haqidagi qarorlar surishtiruv organi boshlig'i tomonidan tasdiqlangandan so'ng qonuniy kuchga ega bo'ladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror ham boshqa qarorlar kabi uch qism: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Kirish qismida qaror nomi, u tuzilgan joy va sana, uni kim (egallab turgan lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi va ismi-sharifi) va qaysi ish bo'yicha chiqarganligi qayd etiladi.

Qarorning tavsif-asoslantirish qismi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu qismda ishni qo'zg'atish sababi va asoslari, ya'ni hodisa tafsilotlari, tekshiruv natijalari, jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi holatlar bayon etiladi; qabul qilingan qarorning asoslilikini ta'minlaydigan dalillar mazmuni, jinoiy qilmishga berilgan huquqiy bahoni aks ettiruvchi xulosa, ya'ni Jinoyat kodeksining ish qo'zg'atilayotgan jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi ifodalanadi; qaror chiqarishni talab etadigan Jinoyat-protsessual kodeks moddalari ko'rsatiladi.

Xulosa qismida kelingan to'xtam, qaror (jinoyat ishi qo'zg'atilishi haqidagi) bayon etiladi. Ushbu to'xtam kirish va tavsif-asoslantirish qismi mazmunidan kelib chiqishi kerak. Shuningdek, ushbu qismda boshqa qarorlar, masalan, ish yurituviga kirishish, manfaatdor tomonlarga xabar berish va qaror nusxasini taqdim etish (prokurorga) haqidagi qarorlar ham ko'rsatiladi.

Jinoyat ishini qo'zg'atish haqidagi qaror aniq, lo'nda, qisqa va asoslangan bo'lishi zarur. Jumladan, jinoiy hodisa tafsilotlari va jinoyat alomatlari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar mantiqiy izchillikda, aniq va tushunarli bayon etilishi, to'xtamlar ham aniq va to'g'ri qayd etilishi kerak.

Haqiqiy holatlarga mos, aniqlangan ma'lumotlar bilan asoslantirilgan, mantiqiy izchillikda yuqori savodxonlikda rasmiylashtirilgan qaror jinoyat ishi samarali yuritilishiga xizmat qiladi.

Jinoyat ishini qo'g'atishni rad etish asoslari, ish qo'zg'atishni rad etish qarorini rasmiylashtirish

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish protsessual faoliyatni inkor etilganligi va oraliq emas, yakuniy xususiyatga ega bo'lganligi bois, jinoyat belgilari yo'qligi haqidagi ishonchli ma'lumotlar yoki jinoyat ishi bo'yicha ish yuritishni inkor etuvchi boshqa holatlarning o'zi etarli ekanligi haqidagi ishonchli xulosa asosida amalga oshiriladi. Tergovga qadar tekshiruv vaqtida jinoyat ishi qo'zg'atishni istisno etuvchi holatlar aniqlanishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish tergov o'tkazilishi lozim bo'lgan jinoiy hodisa yuz bermaganligi, shaxsning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmaganligi, shuningdek, shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tganligi, ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etganligi, shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoxud vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori mavjudligi, ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati yo'qligi, shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmaganligi, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida etkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlarini bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilganligi hamda bu shart bajarilganligi aniqlangan taqdirda surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror chiqaradi. E'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lganda esa ish qo'zg'atishni rad etish sud ajrimiga asosan hal etiladi. Bu haqda xabar bergan fuqaro, korxonasi, muassasa, tashkilot, jamoat birlashmasi yoki mansabdor shaxs xabardor qilinadi. Bunda ularga qaror ustidan shikoyat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim. Qaror qonuniy va asoslangan bo'lishi kerak.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishda ham xuddi jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qarordagi singari kirish va tavsiflovchi ma'lumotlar bo'ladi. Shundan keyin unda jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilishni asoslovchi aniq ma'lumotlar keltiriladi.

Ish yuritishni inkor etuvchi holatlar mavjudligi tufayli jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarorga tergovchi tegishli shaxsning harakatlarida ma'muriy, intizomiy va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar borasida choralari ko'rish haqidagi masalani Jinoyat-protsessual kodeks 334-moddasiga binoan hal etadi. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko'ra: «Kelib tushgan xabarda jinoyat haqida emas, balki ma'muriy, intizomiy yoki boshqa huquqbuzarlik yoxud axloq normalari buzilganligi haqida ma'lumot bo'lsa, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish bilan bir paytda xabarni huquqni buzgan shaxsga nisbatan ma'muriy, intizomiy javobgarlik yoki jamoat ta'sir choralari qo'llash uchun huquqni buzgan shaxs ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyatiga, uning turar joyidagi jamoaga, jamoat

birlashmasiga yoki voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga, tegishli vakolatlarga ega bo'lgan davlat organi yoki mansabdor shaxsga yuboradi». Ayni paytda JPKda intizomiy va ma'muriy huquqbuzarliklar oqibatida etkazilgan zarar qay tariqa undirilishi lozimligi, ko'rib chiqish natijalari haqida qaerga xabar qilish kerakligi ham ko'rsatiladi. Jumladan Jinoyat-protsessual kodeks 334-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra: «Kelib tushgan xabarda fuqarolarning siyosiy, mehnat, uy-joy, oilaviy yoki boshqa huquqlari buzilganligi, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida qo'riqlanadigan qonuniy manfaatlari buzilganligi ko'zga tashlansa, unda ishni qo'zg'atishni rad qilish bilan bir vaqtda manfaatdor shaxslarga sudga murojaat qilish huquqlari va tartibi tushuntirilishi lozim. Basharti ular ma'lum sabablarga ko'ra, sud orqali o'zlarini himoya qilishni so'rash imkoniyatiga ega bo'lmasalar, prokuror bunday shaxslarni himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat etishga haqlidir».

Agar jinoyat ishini qo'zg'atish shaxsning jinoiy javobgarlikka tortish yoshiga etmaganligi tufayli rad etilgan bo'lsa, materiallarni voyaga etmaganlar ishlari bilan shug'ullanadigan komissiyaga yuborish mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan taqdirda manfaatdor shaxslar va muassasalarga zararni undirish tartibi ham tushuntiriladi, olib qo'yilgan jinoyat qurollari, muomalaga kiritish taqiqlangan buyumlarga nisbatan choralar haqida qaror qabul qilinadi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 84-moddasi birinchi qismining 2-bandida (e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa) nazarda tutilgan holat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish masalasi Jinoyat-protsessual kodeksning 63-bobida nazarda tutilgan qoidalarga binoan sud tomonidan hal etiladi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 83-moddasiga muvofiq, quyidagi hollarda jinoyat ishini qo'zg'atish mumkin emas va ish qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror chiqarilishi lozim:

1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) qilmishda jinoyat tarkibi bo'lmasa.

JPKning 84-moddasiga muvofiq:

1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;

2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;

3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

4) ayni bir jinoyatni sodir etganlikda ilgari gumon qilingan yoki ayblangan shaxsga nisbatan jinoyat ishini tugatish haqidagi sudning ajrimi yoxud tergovchi, prokurorning qarori qonuniy kuchga kirgan bo'lsa;

5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;

6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPKning 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;

8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli yoxud belgilangan muddat ichida etkazilgan moddiy zararining o'zni qoplanganligi va (yoki) jinoyat oqibatlari bartaraf etilganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Jinoyat-protsessual kodeksning 84-moddasi birinchi qismining 1, 2, 3 va 8-bandlarida nazarda tutilgan hollarda, agar ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki vafot etgan ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin qarindoshlari talab qilsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkin. Bunday hollarda hukm qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, ayblov hukmi jazo tayinlanmasdan chiqariladi.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish qarori ham xuddi jinoyat ishini qo'zg'atish haqida qarordagi singari kirish va tavsif-asoslantirish va xulosa qismlaridan iborat bo'ladi. Unda jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilishni asoslovchi aniq ma'lumotlar keltiriladi. Jinoyat ishini qo'zg'atish asossiz ravishda rad qilingan taqdirda prokuror o'z qarori bilan tergovchi yoki surishtiruv organining noto'g'ri qarorini bekor qilishi va jinoyat ishi qo'zg'atishi mumkin.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish jinoyat hodisa bilan bog'liq tekshiruv materiallarini ikki asosga ko'ra hal etish bo'lib, birinchidan xabarda aks etgan ma'lumot asossiz yoki jinoyat haqida bo'lmaganda ish yurituvini tamomlash, ikkinchidan javobgarlikni ayblilik masalasiga oydinlik kiritilmasdan hal etish mumkin bo'lganda ish yurituvini tamomlashni taqozo etadi. Shu bilan birga zaruriyatsiz rasmiyatchilik va qog'ozbozlikning oldini olishga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi qaror qonuniy va asoslangan bo'lishi shart aks holda jiddiy qonun buzilishi yuz berib, shaxs huquqlari poymol bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Jinoyatga oid materiallarni amnistiya aktiga asosan hal etish hamda tergovga tegishliligiga ko‘ra yuborish tartibi

«Amnistiya» atamasi yunoncha «amnestia» so‘zidan olingan bo‘lib, kechirish, gunohidan o‘tish¹ kabi ma‘nolarni anglatadi. Amnistiya – bu oliy davlat hokimiyati organining xususiy hujjati, ayrim shaxslarni jinoiy jazodan ozod qilish, jinoyat ishini tugatish yoki jazoni engillashtirish to‘g‘risidagi qaroridir.

Amnistiya akti o‘zining mohiyatiga ko‘ra – ma‘muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir qilgan shaxslarni javobgarlikdan yoki jazodan to‘liq yoxud qisman ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikning olib tashlanishini anglatadi. Shuningdek, amnistiya akti muayyan toifa shaxslarga nisbatan davlat tomonidan ko‘rsatiladigan insonparvarlik ifodasidir. Qolaversa, amnistiya aktini qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan huquqiy ta‘sir choralarini qo‘llamagan holda ularning axloqan tuzalishi uchun imkoniyat berish yoxud bunday choralar qo‘llanilgan shaxslar holatini engillashtirishdir.

Amnistiya akti asosida jinoiy javobgarlikdan ozod etishning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– amnistiya akti asosida jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatish vakolatiga faqat sud organlari ega;

– ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etgan yoki qilmishidan pushaymon shaxslarga javobgarlik va jazodan ozod bo‘lish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Shuningdek, amnistiya akti asosida jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad etish asosida javobgarlikdan ozod bo‘lgan shaxs «sudlanmagan» bo‘lib hisoblanadi;

Jinoyat-protsessual kodeksning 587-moddasida shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala ko‘rilayotganda, tergovga qadar o‘tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi belgilangan. Unga ko‘ra, amnistiya aktini qo‘llash uchun asoslar mavjud bo‘lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar o‘tkazilgan tekshiruv materiallarini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo‘llash to‘g‘risidagi masala qo‘yilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning arizasi hamda amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo‘zg‘atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma bilan prokurorga yuboradi. Amnistiya aktini qo‘llash uchun asos-

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. I жилд. – Т., 2000. – Б.288.

larga amnistiya aktining qabul qilinganligi va tergovga qadar o'tkazilayotgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi yoxud tekshiruvga jalb qilingan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining ushbu amnistiya akti ta'sir doirasiga tushish holatini kiritish mumkin.

Agar bir nechta shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha ulardan loaqal bittasi amnistiya aktining ta'sir doirasiga tushsa, unga nisbatan jinoyat ishining qismi amnistiya aktini qo'llash to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish uchun Jinoyat-protsessual kodeksning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan alohida ish yuritishga ajratilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan, bir yoki bir necha jinoyatni birgalashib sodir etishda ayblanayotgan shaxslarga nisbatan ishni ajratishga, basharti bu ish holatlari bo'yicha zarur bo'lib qolsa hamda bunday ajratish surishtiruvning, dastlabki tergovning va sud tomonidan ishni ko'rib chiqishning to'liq va xolisona bo'lishiga ta'sir qilmasa, yo'l qo'yiladi. Tergov qilina-yotgan jinoyat ishi bilan bog'liq bo'lmagan yangi jinoyat aniqlangan taqdirda, jinoyat ishining mazkur holatga doir qismi jinoyat ishi qo'zg'atilgan holda alohida ish yurituvga ajratiladi.

Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza tergovga qadar tekshiruv qaysi shaxsga nisbatan o'tkazilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs tomonidan, tegishincha tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruvning istalgan bosqichida berilishi mumkin.

Agar shaxsning harakatlari bir xil huquqiy oqibat tug'diruvchi, ya'ni shaxsni faqat jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod etishni yoxud jazo qo'llanilishi istisno etilishini nazarda tutuvchi bir necha amnistiya akti ta'siri doirasiga tushsa, sud shaxs sodir etgan oxirgi jinoyatdan keyin kuchga kirgan amnistiya aktini qo'llashi kerak.

Biroq, agar amnistiya aktlarida faqat jazo muddatlari kamaytirilishi nazarda tutilgan bo'lsa, barcha amnistiya aktlari xronologik ketma-ketlikda qo'llanilishi lozim.

Shaxsning harakatlari turlicha huquqiy oqibat tug'diruvchi, ya'ni ayrimlari shaxsni jinoiy javobgarlikdan, boshqalari esa jazodan ozod etishni yoki jazo muddatlari kamaytirilishini nazarda tutuvchi bir necha amnistiya akti ta'siri doirasiga tushgan hollarda shaxsning ahvolini ko'proq yaxshilaydigan amnistiya akti qo'llanilishi kerak.

Qonunga ko'ra amnistiya aktini qo'llash uchun jabrlanuvchining roziligi talab etilmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi taqdimnomasi, prokurorning iltimosnomasi, sudning amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi qaroridan norozi bo'lgan jabrlanuvchi ular ustidan umumiy asoslarda shikoyat berishi mumkin.

Prokuror surishtiruvchining, tergovchining taqdimnomasi asosligini tekshirib unga rozi bo'lgan taqdirda, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoxud jinoyat ishi bilan birga sudga yuboradi. Prokuror iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi unga kelib tushgan kundan e'tiboran besh sutkadan kechiktirmay sudga yuborishi lozim.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda, prokuror tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchiga yoxud tergovchiga qaytarish haqida asoslantirilgan qaror chiqaradi. Prokurorning qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berilishi mumkin.

Chiqarilgan amnistiya akti asosida sudga qadar ish yuritish tartibiga ko'ra quyidagi protsessual hujjatlar rasmiylashtiriladi:

- amnistiya mazmuni, shartlari va huquqiy oqibatlarini tushuntirish bayonnomasi;

- shaxsning arizasi;

- amnistiya aktini qo'llash uchun ishni sudga yuborish haqida iltimosnoma kiritish to'g'risidagi taqdimnoma.

Tergovga qadar to'plangan tekshiruv materiallari bo'yicha amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, Jinoyat-protsessual kodeks 84-moddasi ikkinchi qismi va 333-moddasi uchinchi qismi talablaridan kelib chiqqan holda, surishtiruvchi, tergovchi qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, ish qo'zg'atishni rad etishga qarshi yoki qarshi emasligini aniqlanish talab etiladi. Fikrimizcha, aynan mazkur harakat (qarshi yoki qarshi emasligini aniqlash) bayonnoma tuzish yo'li bilan rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq. Bayonnomada surishtiruvchi, tergovchi qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsga agar jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga norozi bo'ladigan bo'lsa, ishni yuritish umumiy tartibda davom ettirilishi mumkinligini tushuntirib o'tishi shart. Bu tartib Jinoyat-protsessual kodeks 587-moddasida belgilanmagan, ammo jinoyat ishlarini yuritishning umumiy talablariga ko'ra shu tarzda harakatlanish maqsadga muvofiq.

Amnistiya akti qo'llanilayotgan shaxsga amaldagi JPKning 84 va 333-moddalari talablarini tushuntirish davomida, agar amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala ko'rilayotgan shaxs o'zining aybsizligini e'tirof etgan holda, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga e'tiroz bildirib,

ish yurituvi umumiy tartibda davom ettirilishini talab qilsa, uning bu talabi qanoatlantirilishi lozim.

Amaldagi JPKning 587-moddasi birinchi qismi va 588-moddasiga muvofiq, amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala qo'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning arizasini olishi shart.

Bu holatda ariza ikki xil mazmunda bo'lishi mumkin. Birinchisi, shaxsning amnistiya aktiga muvofiq, jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilishiga qarshi emasligini ifodalasa, ikkinchisi esa, aksincha, yuqorida qayd etilgan shaxslarning aynan mazkur holatda qonunning ushbu normasini qo'llanilishiga qarshi ekanligini o'zida aks ettiradi.

Agar shaxs (u vafot etgan holda - yaqin qarindoshlaridan biri) e'tiroz bildirsa, amnistiya aktiga muvofiq jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holda jinoyat ishi qo'zg'atilib, ish yuritish umumiy tartibda olib boriladi.

Demak, tergovga qadar to'plangan materiallar yoki jinoyat ishi bo'yicha amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish qarori chiqarilishi yoki chiqarilmasligidan qat'iy nazar mazkur ishda o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining arizasi (qarshi yoki qarshi emasligi) bo'lishi shart.

Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki jinoyat ishini tugatishga qarshi emasligini ifodalovchi arizani olgach amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma chiqariladi. Taqdimnomada hodisa tafsilotlari, tekshiruv natijalari, hodisaning Jinoyat kodeksi tegishli moddasida belgilangan jinoyat alomatlari mavjudligi, ushbu jinoyat va uni sodir etgan shaxs amnistiya ta'siriga tushishligi hamda mazkur shaxsning amnistiya asosida jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etishga roziligi, shunga ko'ra amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atish rad etish maqsadga muvofiqligi, bu haqda sudga iltimosnoma kiritish zarurligi bayon etiladi hamda sudga iltimosnoma kiritish so'raladi. Taqdimnoma to'plangan materiallar bilan birga prokurorga yuboriladi.

Taqdimnoma mazmuni bilan tanishgan prokuror, agar unga rozi bo'ladigan bo'lsa, ish unga kelib tushgan kundan e'tiboran amnistiya aktiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida besh sutkadan kechiktirmay sudga iltimosnoma kiritadi.

Jinoyatga oid materiallarni tergovga tegishliligiga qarab yuborishning protsessual tartibi

Ba'zi holatlarda ichki ishlar organlariga Jinoyat-protsessual kodeksning 345-moddasida belgilangan tergovga tegishlilik qoidalariga asosan dastlabki tergovni o'tkazish ichki ishlar organlari tergov apparatining vakolatiga kirmaydigan ariza, xabar yoki hatto materiallar kelib tushadi. Bunday hollarda arizani yoki xabarni tergovga tegishliligiga qarab yuborishga ushbu tuman yoki shahar hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyat haqida xabar berilgan va jinoyat ishini qo'zg'atish masalasini hal qilish uchun tekshiruv harakatlarini jinoyat sodir etilgan tuman yoki shaharda o'tkazish zarur bo'lgan hollardagina yo'l qo'yiladi. Boshqa hollarda ariza yoki xabarni, jumladan materialni tergovga tegishliligiga qarab bir tergov organidan boshqasiga berish ta'qiqlanadi. Ariza yoki xabarni tergovga tegishlilik qoidalariga asosan ko'rib chiqish tartibi surishtiruv va tergov organlari zimmasidagi vazifalarni to'g'ri taqsimlash va ishni samarali hamda to'g'ri tashkil etish maqsadida belgilangan. Kelib tushgan jinoyat haqidagi ariza yoki xabarni tekshirish davomida unda aks etgan hodisa boshqa tuman yoki shahar hududida sodir etilganligi aniqlanganda tergovga qadar tekshiruv o'tkazayotgan surishtiruvchi yoki tergovchi ariza yoxud xabarni o'tkazilgan tekshiruv materiallari bilan birga tegishliligiga ko'ra yuborish haqida qaror chiqaradi. Qarorda ariza yoki xabar qanday asosga ko'ra yuborilayotganligi ko'rsatilishi kerak.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichi deganda nimani tushunasiz?
2. Jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichining vazifalarini sanab bering.
3. Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari deganda nimani tushunasiz?
Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablarini sanab bering.
4. Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslari deganda nimani tushunasiz?
Jinoyat ishini qo'zg'atish asoslariga misol keltiring.
5. Jinoyat ishini qo'zg'atish masalasi qanday hal etiladi?
6. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish asoslari deganda nimani tushunasiz?
7. Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish asoslarini sanab bering.
8. Jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish tartibi qanday?
9. Jinoyatga oid materiallarni amnistiya aktiga asosan hal etish deganda nimani tushunasiz?
10. Jinoyatga oid materiallarni amnistiya aktiga asosan hal etish tartibi qanday?
11. Jinoyatga oid materiallarni tergovga tegishliligiga ko'ra yuborish deganda nimani tushunasiz?
12. Jinoyatga oid materiallarni tergovga tegishliligiga ko'ra yuborish tartibi qanday?

V bob. **SURISHTIRUV JARAYONIDA KECHIKTIRIB BO‘LMAS TERGOV HARAKATLARINI O‘TKAZISH**

«Tergov harakatlari» tushunchasi, ularning tizimi va turlari

Jinoyat-protsessida tergov harakatlariga tushuncha berishdan avval, tergov harakatlarini o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsadni tushunib olish lozim. Ma’lumki sodir etilgan jinoyat haqida xabar olinganidan so‘ng yoki boshqa yo‘llar bilan jinoyat sodir etilgani aniqlangach, ushbu jinoyatni ochish, jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish, ularning jinoiy faoliyatlarini davom ettirishlariga barham berish, aybdorlarga keyinchalik sud tomonidan adolatli jazo belgilash, aybsiz shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilishiga va jazolanishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda adolat qaror topishiga qaratilgan tergov va boshqa protsessual harakatlar amalga oshiriladi. Buning uchun aybdor shaxslarni aybini tasdiqlovchi dalillarni to‘plash va qonun talablari asosida isbotlangan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 85-moddasida «isbot qilish» tushunchasi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra «isbot qilish ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to‘plash, tekshirish va baholashdan iborat» deb ta’riflangan.

Jinoyat-protsessida isbotlash jinoyat ishni ko‘rib chiqish va qonuniy hal etish vazifasi topshirilgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Isbot qilish huquqi – jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlash maqsadida tergov tasmollarini ilgari surish, dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan protsessual faoliyatni va uning davomida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmui. Isbotlash huquqi mustaqil huquq tarmog‘i emas, balki jinoyat-protsessual huquqning qismidir. Uning normalari boshqa protsessual normalar bilan bog‘liq bo‘lib, protsessning barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan ma’lumotga ega ashyolar va izlarni qidirish uchun avvalo jinoyat haqidagi xabarda yoki xabarni tekshirish natijasida ma’lum bo‘lgan hodisa tafsilotlarini tahlil qilib, aynan qaysi ashyolar va izlar qidiruv obyektlari bo‘lishi zarurligi haqida to‘g‘ri to‘xtamga kelish, shunday ashyolar va izlar aynan qaerlarda bo‘lishi mumkinligiga ham oydinlik kiritish talab etiladi. Isbot qilish va dalillarni to‘plash tergov harakatlarini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida tergov harakatlariga aniq ta'rif berib o'tilmagan bo'lsa-da, tergov harakatlarini o'tkazishdan maqsad va ularga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, tergov harakatlariga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Tergov harakatlari deganda* jinoyat ishini huquqiy jihatdan to'g'ri hal qilish maqsadida ish uchun ahamiyatli bo'lgan dalillarni aniqlash, to'plash, tekshirish va mustahkamlash uchun o'tkaziladigan protsessual harakatlar tushuniladi.

Jinoyat-protsessida o'tkaziladigan harakatlar dalillarni aniqlash, tekshirish va qayd etish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda foydalana-digan va tadqiqot xususiyatiga ega bo'lgan tergov harakatlari hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan boshqa harakatlarga ajratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilan-gan va bevosita dalillarni aniqlash, to'plash va tekshirish uchun o'tkazi-ladigan tergov harakatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) ko'zdan kechirish;
- 2) ekspertiza;
- 3) so'roq qilish;
- 4) yuzlashtirish;
- 5) ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish;
- 6) tanib olish uchun ko'rsatish;
- 7) guvohlantirish;
- 8) eksperiment;
- 9) olib qo'yish;
- 10) tintuv;
- 11) narsa va hujjatlarni taqdim qilish;
- 12) telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish;
- 13) pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash;
- 14) murdani eksperimentatsiya qilish;
- 15) ekspertiza tekshiruvi uchun namunalarni olish;
- 16) taftish.

Tergov harakatlarini birlamchi maqsadiga ko'ra quyidagi tergov harakatlariga ajratish mumkin:

- dalillarni to'plashga qaratilgan;
- to'plangan dalillarni tekshirishga qaratilgan;
- boshqa tergov harakatini o'tkazish uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Birlamchi maqsadi dalillarni to'plashga qaratilgan tergov harakat-lariga: ko'zdan kechirish, taftish, so'roq qilish, olib qo'yish, tintuv, tele-

fon va boshqa soʻzlashuv qoʻrilmalari olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitish, narsa va hujjatlarni taqdim qilish, pochta telegraf joʻnatmalarini xatlashni kiritish mumkin.

Birlamchi maqsadi dalillarni tekshirishga qaratilgan tergov harakatlari: koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish, tanib olish uchun koʻrsatish, eksperiment, yuzlashtirish, ekspertiza, guvohlantirishni kiritish mumkin.

Boshqa tergov harakatlarini oʻtkazishga sharoit yaratishga qaratilgan tergov harakatlari ekspertiza tekshiruv uchun namunalar olish, murdani eksperiment qilish (taftish, narsalarni talab qilib olish) kiradi.

Tergov harakatlarining huquqiy mazmuni umumiy maqsadga koʻra oʻxshash boʻlsa-da, ular shakli, obyekti, oʻtkazish tartibi va xususiyatlariga koʻra farq qiladi. Koʻzdan kechirish – koʻrish va koʻrikdan oʻtkazish; ekspertiza – maxsus tadqiqot oʻtkazish; soʻroq qilish – suhbat va savol-javob; yuzlashtirish – ikki kishi bilan qayta soʻroq oʻtkazish; koʻrsatuvlarni hodisa sodir boʻlgan joyda tekshirish – hodisa sodir boʻlgan joyda qayta soʻroq oʻtkazish; tanib olish uchun koʻrsatish – taʼriflangan obyektni koʻrsatib qayta soʻroq qilish; guvohlantirish – shaxs badanini koʻzdan kechirish; eksperiment – koʻrsatmalarni tajriba harakatlarini oʻtkazish orqali tekshirish; tintuv – obyektni qidirib topish va olish; olib qoʻyish – obyektni turgan joyidan olish; taqdim qilish – ixtiyoriy topshirish; telefon soʻzlashuvlarini eshitib turish – soʻzlashuvlarni yozib olish va eshitish; pochta-telegraf joʻnatmalarini xatlash – joʻnatmalarni ushlab turish va koʻzdan kechirish; namunalar olish – obyektning izidan va tarkibidan namuna yoki nusxa olish; taftish moliya-xoʻjalik hujjatlari-dagi qaydlar bilan taqqoslagan holda mavjud tovar-moddiy boyliklar va valyutani hisob-kitob qilish; eksperiment – murdani qabrdan qazib chiqarishdir. Tergov harakatlari nafaqat dastlabki tergov bosqichida, balki, tergovga qadar tekshiruv davrida, surishtiruv davrida va ishni sud-da koʻrib chiqish vaqtida ham oʻtkaziladi. Jinoyat ishi qoʻzgʻatilgunga qadar hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish, ekspertiza, taftish va hujjatlar (tushuntirish xati)ni taqdim etish, shuningdek jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab chogʻida shaxsiy tintuv kabi sanoqligina tergov harakatlari oʻtkazilishi mumkin. Tergov harakatlari natijasida dalillar toʻplanishi va ushbu dalillardan foydalanish imkoniyati mavjud boʻlishini taʼminlash uchun har bir tergov harakatini oʻtkazish tartibiga qatʼiy amal qilish, tergov harakati jarayoni va natijalari toʻgʻri rasmiylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari har bir jinoyat ishining holatlaridan kelib chiqqan holda o‘tkaziladi. Yuqorida sanab o‘tilgan tergov harakatlari alohida olganda jinoyat ishini tez va to‘la ochish, jinoyat sodir etgan shaxsning aybini fosh etishdagi ahamiyati ko‘ra kechiktirib bo‘lmas xususiyatga ega. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari Jinoyat-protsessual kodeksda aks etmagan bo‘lsa-da, surishtiruv organi yoki surishtiruvchi jinoyatga oid tasmollarini tekshirishida qaysi turdagi tergov harakatini kechiktirmasdan o‘tkazish zarurligiga e‘tibor qaratadi. Bundan ko‘zlangan maqsad jinoyatni ochish va fosh etish hisoblanadi.

«Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari» tushunchasi va ahamiyati

Kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari to‘g‘risida turli fikrlar bildirilgan bo‘lib, masalan, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, «kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlarini amalga oshirish jinoyatni tergov qilishning ko‘rinishi emas, balki mustaqil institut sifatida yuzaga chiqadi. Uning mazmuni shundaki, surishtiruv organi tomonidan jinoyat ishini qo‘zg‘atish, jinoyat izlarini topish va dalillarning ahamiyati yo‘qolmasdan ularni mustahkamlashga qaratilgan birlamchi tergov harakatlarini amalga oshirishdir»¹. Ushbu fikr birmuncha munozarali bo‘lib, unchalik tushunarli emas.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 96-212-moddalarida tergov harakatlari batafsil ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, ularning qaysi birlari kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari sanalishi belgilab berilmagan.

«Qaysi tergov harakatlarini kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlariga kiritisa bo‘ladi» degan savolga javob izlab ko‘ramiz.

Ba‘zi toifadagi jinoyatlarni tergov qilishda, ish dastlab ma‘lum tergov harakatlarini bajarishdan boshlansa, boshqalarini tergov qilishda o‘zgacha yondashuv talab qilinib, dastlabki tergov boshqa bir turdagi tergov harakatlarini bajarishdan boshlanadi. Har qanday holatda ham kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari – yuzaga kelgan holat tufayli paysalga solmasdan yoki tezkorlik bilan o‘tkaziladigan tergov harakatlaridir.

Qonunchiligimizda kechiktirib bo‘lmaydigan tergov harakatlari-ning ro‘yxati va turlari haqida so‘z yuritilmagan. Demak, surishtiruvchi o‘z yurituvdagi ishning xususiyati va murakkabligidan kelib chiqib,

¹ *Арестова Е.Н.* Производство органами дознания неотложных следственных действий // Российский Следователь. – 2003. – №10. – С.5-6.

qaysi tergov harakatlarini birinchilar qatorida bajarishini o'zi belgilab olishi lozim bo'ladi.

Qonunchilikda kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarining ro'yxatini belgilab berilmagani to'g'ri qilingan, chunki muayyan hodisani tekshirishda aynan qaysi tergov harakatlari kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlari bo'lishini oldindan belgilash juda mushkul vazifa. Qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda kechiktirib bo'lmas tergov harakatlariga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari deganda sodir etilgan jinoyatning (hodisaning) xususiyatlari, ya'ni sodir etish usuli, joyi, vaqti, uni sodir etgan shaxsning kimligi, shuningdek jinoyat aniqlangunga qadar o'tgan vaqtni hisobga olgan holda ushbu jinoyatni ochish va fosh etish maqsadida tez va mantiqiy izchillikda amalga oshirilishi talab etiladigan tergov harakatlari tizimi tushuniladi.

Surishtiruvchi tergov harakatlaridan qaysi birlarini birinchi navbatda o'tkazish masalasini hal etishda, ushbu tergov harakatlari o'tkazilishi kechiktirilganda undan kutiladigan natija ijobiy bo'lmasligini, hamda haqiqatni aniqlash uchun xizmat qilishi mumkin bo'lgan izlar va ma'lumotlar yo'qolishi mumkinligi inobatga olinishi lozim.

Hozirgi kunda surishtiruv jarayonida kechiktirib bo'lmas tergov harakatlari sifatida asosan quyidagi tergov harakatlari o'tkaziladi:

- hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish;
- so'roq qilish;
- yuzlashtirish;
- ekspertiza;
- taftish;
- olib qo'yish;
- tintuv o'tkazish;
- ko'rsatuvlarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish;
- guvohlantirish;
- tanib olish uchun ko'rsatish;
- eksperiment.

Ko'zdan kechirish deganda, hodisa sodir bo'lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlarni (hodisa tafsilotlari va oqibatlarini) aniqlash, jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish maqsadida hodisa sodir bo'lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsa va hujjatlarni ko'rikdan o'tkazish (ko'rish, qo'l bilan ushlab, hidlash), kuzatish orqali bilish va qayd etish jarayonidan iborat tergov harakati tushuniladi.

So‘roq qilish – bu Jinoyat-protsessual kodeksda qayd etilgan, jinoyat ishi yuzasidan tergov harakatlarini olib borish topshirilgan vakolatli shaxs tomonidan o‘zining yurituvidagi jinoyat ishi bo‘yicha ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega shaxslardan, ushbu og‘zaki ma‘lumotni ko‘rsatuv sifatida olish va mustahkamlash maqsadida suhbat va (yoki) savol-javob shaklida amalga oshiriladigan bilish va tasdiqlash jarayonidan iborat tergov harakatidir.

Yuzlashtirish – bu ilgari so‘roq qilingan ikki shaxs ko‘rsatuvlari o‘rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar bo‘lganda, bu qarama-qarshiliklarning sababini aniqlash uchun o‘tkaziladigan ikki shaxsni bir vaqtda so‘roq qilishdir. Yuzlashtirish aslida so‘roq qilishning turlaridan biridir. Unda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so‘roq qilinishlari mumkin.

Ekspertiza – bu ish uchun ahamiyatli bo‘lgan ma‘lumotlarni fan, texnika, san‘at yoki muayyan kasb sohasida bilimga ega shaxs tomonidan maxsus tekshiruv (tadqiqot) o‘tkazish orqali olishdan iborat tergov harakati tushuniladi. Soddaroq ta‘riflaganda oddiy ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan ushlaganda anglash qiyin bo‘lgan ma‘lumotlarni ko‘pchilik uchun tushunarli tarzda (yozma) ifodalash jarayoni tushuniladi.

Taftish deganda, ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar haqidagi ma‘lumotlarni tekshirilayotgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslab ko‘rish yo‘li bilan olish maqsadida o‘tkaziladigan protsessual harakatlar tushuniladi. Taftish surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan tayinlanadi.

Olib qo‘yish deganda, ishdagi mavjud dalillarga ko‘ra jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qaerda ekanligi haqidagi ma‘lumotlar bo‘lganda va ushbu narsa va hujjatlarni qidirish zarur bo‘lmaganda, uni turgan joyidan olishdan iborat tergov harakati tushuniladi.

Tintuv deganda, ko‘rsatuvlar yoki boshqa dalillarga ko‘ra muayyan joydaligi aniq bo‘lgan, ish uchun ahamiyatga ega narsa yoki hujjatni keyinchalik ishga ashyoviy yoki yozma dalil sifatida qo‘shib qo‘yish uchun turgan joyini qidirib topish va olish jarayoni tushuniladi.

Ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish deganda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi), guvoh va jabrlanuvchi-ning ko‘rsatmalarini ishga oid hodisa sodir bo‘lgan joyda holatlarni qayta tiklash yo‘li bilan qayta so‘roq qilish orqali tekshirish tushuniladi.

Guvohlantirish shaxsning badanidagi alohida belgilar, dog‘lar, tan jarohatlari, jismoniy rivojlanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, mastlik holati yoki jinoyat ishi uchun ahamiyatli boshqa xususiyatlarni aniqlash uchun sud ekspertizasini o‘tkazish talab etilmaydigan hollarda o‘tkaziladigan, jinoyatning ochilishiga yordam beradigan majburiy tergov harakatidir. Guvohlantirish deganda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlarni (hodisa tafsilotlari va oqibatlarini) aniqlashtirish, jinoyat izlarini topish maqsadida tirik insonni ko‘rikdan o‘tkazish (ko‘rish, qo‘l bilan ushlab, hidlash), kuzatish orqali bilish va qayd etish jarayonidan iborat tergov harakati tushuniladi.

Tanib olish uchun ko‘rsatish deganda guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining biror shaxs yoki narsa to‘g‘risida bergan ko‘rsatuv muayyan bir shaxs yoki muayyan bir narsaga oid ekanligini surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga ma‘lum bo‘lgan ko‘plab shaxs yoki narsalar orasidan ko‘rsatuvda tasvirlab berilgan shaxs yoki narsani topishi uchun ularni ko‘rsatish orqali so‘roqda berilgan ko‘rsatuvni tekshirish jarayoni tushuniladi.

Eksperiment tergov harakati deganda, ko‘rsatuvlar, dalillar va tasmollarni tekshirilayotgan hodisa sodir bo‘lgan sharoit va holatlarni qayta tiklash, muayyan harakatlarni qayta bajarish orqali, shuningdek tajriba harakatlarini o‘tkazish orqali tekshirish jarayoni tushuniladi.

Ekspertiza tekshiruvi uchun namunalar olish deganda, keyinchalik ekspertiza tayinlash va tekshirish obykti sifatida ekspertga taqdim etish maqsadida tirik insonning, murdaning, hayvonning, o‘simlikning, buyumning, materialning yoki moddaning xususiyatlarini aks ettiruvchi namunalar olish tushuniladi.

Tirik odamdan: biologik – qon, soch, so‘lak, inson organizmidan ajralib chiqadigan moddalar; psixofizik – dastxat; anatomik – teri naqshining chiziqlari, tish qoliplari; ovoz xususiyatlari va kasb malakasini aks ettiruvchi namunalar olinadi. Murdadan ham biologik va anatomik namunalar olinadi.

Hayvonning terisi, juni, tuyoq izlari, axlatidan namunalar olinadi. O‘simlik, buyum, material va moddalardan namuna sifatida ularning tadqiqot uchun zarur bo‘lgan miqdordagi qismi (ikki, uch dona, bir necha gramm) olinadi.

Namunalar olish ekspertiza tadqiqoti uchun zarur bo‘lganda va ikki holatda amalga oshiriladi: birinchisi, namunaning o‘zini chuqur tadqiq etish, ikkinchisi avval tadqiq etilgan predmet bilan taqqoslash, ya‘ni aynanlashtirish maqsadida.

Telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan soʻzlashuvlarni eshitib turish deganda ish uchun ahamiyatga ega maʼlumotlarni olish maqsadida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi (sudlanuvchi) va oʻzlarining roziligi bilan guvoh va jabrlanuvchilarning telefon va boshqa soʻzlashuv qurilmalari orqali olib boradigan soʻzlashuvlarini eshitish va tegishli ovoz yozish moslamalari orqali yozib olish jarayoni tushuniladi

Murdani eksqumatsiya qilish deganda koʻzdan kechirish, tanib olish, ekspertiza oʻtkazish yoki ekspertiza uchun namunalarni olish maqsadida murdani qabrdan chiqarib olish va qayta koʻmish jarayoni tushuniladi.

Narsa va hujjatlarni taqdim qilish deganda, ish uchun ahamiyatga molik boʻlgan yoki ahamiyatga ega boʻlishi mumkin boʻlgan narsa va hujjatlarni ishga qoʻshib qoʻyish maqsadida, uning egasi tashabbusi bilan yoki ishni yuritayotgan surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning talabiga koʻra taqdim etilishi tushuniladi.

Taqdim etish harakati ikki xususiyatiga koʻra turlarga ajratiladi:

- 1) taqdim etiladigan obyektga koʻra;
- 2) tashabbus subyektiga koʻra.

Taqdim etiladigan obyektga koʻra ikki turga boʻlinadi:

- narsalarni taqdim etish;
- hujjatlarni taqdim etish.

Tashabbus subyektiga koʻra ham ikkiga boʻlinadi:

- 1) narsa va hujjat egasining tashabbusiga koʻra taqdim etish;
- 2) surishtiruvchi, tergovchi yoki sudning talabiga koʻra taqdim etish.

Taqdim etish harakati ham dalillarni toʻplashga, ham kelgusi tergov harakatlarini oʻtkazish uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. Dalillarni toʻplash maqsadida oʻtkazilgan taqdim etish natijasida olingan narsa va hujjatlar belgilangan tartibda ishga qoʻshib qoʻyiladi.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qoʻshib qoʻyish deganda ish uchun ahamiyatli boʻlgan maʼlumotga ega narsalar, hujjatlar yoki boshqa yozuvlarning ish uchun ahamiyatliligini aniqlash va belgilangan tartibda ishga qoʻshib qoʻyishdan iborat jarayonlar tushuniladi.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qoʻshib qoʻyish ikki usulda amalga oshiriladi:

- ashyoviy dalil sifatida ishga qoʻshish;
- yozma dalil sifatida ishga qoʻshish.

Narsa va hujjatlarni ashyoviy va yozma dalil sifatida ishga qoʻshib qoʻyish alohida tergov harakati sifatida eʼtirof etilmaydi, ammo koʻpgina

tergov harakatlari natijalarini ifodalaydigan va ularga baho berish amalga oshiriladigan harakat hisoblanadi.

Umuman olganda tergov harakatlari o'z vaqtida va taktik jihatdan to'g'ri o'tkazilganda ish uchun muhim ahamiyatga ega dalillarni qo'lga kiritishga yoki tekshirishga xizmat qiladi. Shu bois mavjud vaziyatni to'g'ri baholagan holda, qaysi tergov harakatini tezlik bilan, ya'ni kechiktirmasdan o'tkazish kerakligi, tergov harakatlarini o'tkazish ketma-ketligini to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Chunki to'g'ri tuzilgan reja jinoyatlarning tezda ochilishi, tergovni to'g'ri yo'nalishda olib borish va ayblanuvchilarni to'la fosh etish garovi hisoblanadi. Kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazish vaqti, joyi, jalb etiladigan ishtirokchilari, qo'llaniladigan taktik usul va vositalari uyg'un ravishda tashkil etilishi murakkab jarayon bo'lib, kechiktirib bo'lmas xususiyatga ega tergov harakatlarini o'tkazishda ikki karra mas'uliyat bilan faoliyat olib borishni talab etadi.

Kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini o'tkazish xususiyatlari

Tergov harakatlari surishtiruv davrida yoki dastlabki tergov davrida amalga oshirilishidan qat'iy nazar har bir tergov harakatiga qo'yiladigan o'zgarmas talab shundaki, u faqat etarli asoslar bo'lgandagina o'tkazilishi kerak. Tergov harakatining asoslanganligi har qanday majburlash yoki kimningdir huquq va qonuniy manfaatlarini cheklash faqat haqiqatan ham zarur bo'lganda, ya'ni muayyan vaziyat shart-sharoitlari bilan oqlangandagina yuz berishini bildiradi.

Tergov harakatiga qo'yiladigan boshqa bir talab shundaki, u qonuniy bo'lishi kerak, ya'ni uni amalga oshirishda qonunda belgilangan protsessual tartibga qat'iy rioya etilishi lozim. Bu esa yo'l qo'yiladigan va yo'l qo'yilmaydigan harakatlar doirasini nazarda tutadi. Bu bilan tergov harakatini o'tkazishda ishtirok etuvchi insonning huquqlari va qonuniy manfaatlari kafolatlanishi bilan birga, ayni paytda bunda olinadigan haqiqiy ma'lumotlarning protsessual yaroqliligi, boshqacha aytganda, muayyan ish bo'yicha ularning aloqadorligi va maqbulligi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «Sud hukmi to'g'risida»gi 1997-yili 2-may qarorida: «Qonunni buzgan holda olingan har qanday dalil hukmga asos qilib keltirilishi mumkin emas», – deb tushuntirish berilgan.

Tergov harakatlarini yuritish muqarrar ravishda axloqiy prinsiplar va normalarga asoslanishi kerak. Xususan, ularning istalgan turini

o'tkazishda ishda ishtirok etuvchi shaxslar va atrofdagi kishilarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi, hamda inson sog'lig'iga xavf tug'dirish ta'qiqlanadi. Bunda faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha tergov harakatlari o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Jinoyat ishi qo'zg'atilguncha o'tkazilishi ruxsat etilgan tergov harakatlari (ko'zdan kechirish, taftish, ekspertiza)gina bundan mustasno.

Tergov harakatlarining borishi va natijalari sud uchun dalil bo'lib xizmat qiladigan tegishli bayonnomalarda qayd etilishi kerak. Tergov harakatlarining natijalari odatda bayonnomalarda mustahkamlanadi, bir qator hollarda esa tergov harakatlarini o'tkazidna avval bu haqda qaror chiqariladi. Misol uchun, ekspertiza yoki taftish tayinlash haqidagi qaror kabi. Aynan shu masalada surishtiruvchi va tergovchi tomonidan o'tkaziladigan tergov harakatlarda bir-biridan farq mavjud. Ya'ni tergovchi protsessual mustaqil shaxs bo'lib, biror-bir tergov harakatini o'tkazish haqidagi qarorni (prokurorning ruxsatini olish lozim bo'lgan holatlar bundan mustasno) mustaqil ravishda qabul qilish vakolatiga ega. Surishtiruvchi esa tergov harakatini o'tkazish uchun chiqargan qarori surishtiruv organining boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi lozim (O'zR JPKning 39-moddasi), aks holda ushbu qaror kuchga ega bo'lmaydi.

Surishtiruv davrida o'tkaziladigan ayrim kechiktirib bo'lmaz tergov harakatlarining xususiyatlari haqida va nimalarga ahamiyat berilishiga to'xtalib o'tsak.

So'roq qilishda ishga oid ma'lumotlarni aniqlash va ko'rsatma sifatida olish uchun erkin so'zlab berish imkoniyatini yaratish juda muhim, so'roq qiluvchining so'zini bo'lmazdan eshitish maqsadga muvofiq, agarda u fikrini ifodalashga qiynalib to'xtab qolsa, uni qo'llovchi so'z aytib yana so'zlashga undash kerak. So'roq qilinayotgan shaxs ishga oid bo'lmagan va ahamiyatsiz holatlar haqida gapira boshlasa, unga aynan ishga aloqador holatlar haqida bilganlarini aytishini eslatish joiz. Erkin so'zlab berayotgan paytda holatlar noaniq ifodalansa, uning fikrini bo'lmazdan alohida qog'ozga savollar qisqacha yozib borilishi va erkin so'zlash tugaganidan so'ng ushbu holatlarga oydinlik kiritishini so'rash maqsadga muvofiq.

So'roq o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

- 1) jinoyat ish materiallarini yaxshilab o'rganib chiqishi lozim va olingan ma'lumotlar asosida so'roqqa chaqirilgan shaxsning protsessual maqomini belgilashi yoki aniqlashtirishi;

2) so‘roqqa chaqiriladigan shaxsning ko‘rsatuvlar berish predmetini aniqlash. Agarda surishtiruvchida so‘roq paytida qanday hollarni aniqlash bilan bog‘liq savol to‘g‘risida aniq tasavvur bo‘lmasa, buning natijasida ish bo‘yicha isbotlanishi lozim bo‘lgan muhim holatlar aniqlanmay qolishi mumkin va ayni paytda so‘roq qilingan shaxsning ko‘rsatuvlarida jinoyat ishiga aloqador bo‘lmagan ma‘lumotlar bayon etilgan bo‘ladi. Shuning uchun jinoyat ish materiallarini puxta o‘rganib tahlil etish va so‘roqqa chaqiriladigan shaxsdan nimani aniqlash lozimligini, ya‘ni so‘roq qilish predmetini aniqlab olish zarur. Agarda so‘roq predmetini belgilash uchun maxsus bilimlar zarur bo‘lsa, maxsus adabiyotlar bilan tanishib chiqish, mutaxassislar bilan maslahatlashish, ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishish lozim va hokazo;

3) so‘roqqa chaqirilgan shaxsning ijtimoiy-demografik, psixologik, psixofiziologik xususiyatlari va holatini o‘rganish. So‘zsiz mazkur sifat-larning qay biri so‘roq qilishda zarur bo‘lib qolishini oldindan chamalash qiyin, lekin har qanday holda so‘roq qilinuvchi shaxsning jinsi, yoshi, ma‘lumoti, ixtisosligi (mutaxassisligi), qiziqishlari, madaniy saviyasi, huquqiy ongi, dunyoqarashi, psixologik sifat-lari (xarakteri, temperamenti, irodasi, emotsional qiyofasi), so‘roq paytida ehtimolli psixologik holat-lari (o‘zini yo‘qotib qo‘yishi, tazyiqqa uchragandek bo‘lishi, qo‘rquvda bo‘lishi, o‘ziga ishonch bilan qarashi va hokazo) e‘tiborga olinishi shart.

So‘roq qilinuvchi shaxsni o‘rganish so‘roq qilishning eng samarali usullarini qo‘llash, shaxsga nisbatan maqsadli ta‘sir qilish imkonini yaratadi, natijada so‘roq qilinuvchi tergovchiga ish bo‘yicha noma‘lum, lekin muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni bayon qilishi mumkin.

Shaxsni o‘rganishda tizimli-tuzilmaviy yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq, shaxsning barcha sifat-lari va xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlik va bir biridan kelib chiquvchi maqomga ega bo‘ladi. Shu bilan birga shaxsni o‘rganish uning so‘roq paytida o‘zini qanday tutishini bashorat qilish imkoniyatini yaratib berishi mumkin.

Shaxsni o‘rganishni ikki farazli bosqichga bo‘lish mumkin: so‘roqdan avvalgi o‘rganish va so‘roq paytida o‘rganish. Birinchi bosqichda o‘rganish tergovchi tomonidan bevosita emas balki uchinchi shaxslar orqali amalga oshiriladi va bu erda protsessual imkoniyatlardan foydalaniladi (so‘roq, tintuv, ko‘zdan kechirish, ekspertiza va hokazo) hamda noprotsessual shakllar ham qo‘llaniladi (tezkor-qidiruv tadbirlari, jamoatchilik yordamidan foydalanish va hokazo).

4) So‘roq o‘tkazishga etarlicha tayyorgarlik ko‘rilganidan so‘ng JPK talablari asosida uni o‘tkazish lozim. So‘roq qilishda ishga oid

ma'lumotlarni aniqlash va ko'rsatma sifatida olish uchun erkin so'zlab berish imkoniyatini yaratish juda muhim hisoblanadi, so'roq qiluvchining so'zini bo'lmasdan eshitish maqsadga muvofiq.

So'roq qilishda jinoyatning turi (JK tegishli moddasi)dan kelib chiqqan holda JPK 82-moddasi (83-moddasi)da va 119-moddasida keltirilgan holatlar haqida ko'rsatmalar olinishi lozim, shuningdek ular (ma'lumotlar)ni tekshirish maqsadida yurituvidagi jinoyat ishidagi boshqa dalillar mazmunidan kelib chiqib qo'shimcha savollar berishi hamda ashyoviy dalillarni ko'rsatish, oldingi ko'rsatuvlarini o'qib eshittirish orqali tekshirish ham mumkin;

Taftish o'tkazish uchun tayinlangan shaxslar tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxslarini yoki vakillarini taftish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlar bilan taftish o'tkazish boshlanguniga qadar tanishtirishi, shuningdek tekshiruvlarni ro'yxatdan o'tkazish kitobiga yozuv kiritishi shart.

Taftish tayinlash to'g'risidagi qarorning yoki ajrimning va vakolatli organning taftish o'tkazish haqidagi buyrug'ining ko'chirma nusxalari tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsiga yoki vakiliga imzo qo'ydirib topshirilgan, shuningdek ular xizmat guvohnomasi va taftishga ruxsat berish to'g'risidagi maxsus guvohnoma bilan tanishtirilgan payt taftish o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yoki vakilining taftish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarni olish va ular bilan tanishishdan bosh tortishi taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili tegishli hujjatlarni olish va ular bilan tanishishdan bosh tortgan taqdirda, taftish o'tkazish uchun tayinlangan shaxs tomonidan uning o'zi va tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili imzolaydigan bayonnoma tuziladi. Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili mazkur bayonnomaning imzolashdan bosh tortgan taqdirda, unga tegishli yozuv yozib qo'yiladi. Mazkur holda bayonnoma imzolangan payt taftish o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili taftish o'tkazish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, axborotni va materiallarni taftish o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlar olinganidan va ular bilan tanishib chiqilganidan keyin taqdim etishi shart.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili hujjatlarni, axborot va materiallarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs bundan buyonggi protsessual harakatlarni

o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladigan surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga bu haqda darhol xabar qiladi.

Hujjatlarni olib qo'yish zarur bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi yoki prokuror olib qo'yish to'g'risida qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Olib qo'yish Jinoyat-protsessual kodeksning olib qo'yish tartibi belgilangan 20-bobidagi qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxs zarur bo'lgan taqdirda, tekshirilayotgan subyektning hududi va binolarini tekshiruvdan, shuningdek mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazishi mumkin.

Taftish tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan masalalarni o'rganish soliq, valyutaga oid, buxgalteriya to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxsning tekshirilayotgan subyektning hududiga va binolariga (turar joylar bundan mustasno) kirishiga to'sqinlik qilingan, shuningdek taftishni amalga oshirish uchun uning mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazish rad qilingan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxsning o'zi va tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili tomonidan imzolanadigan bayonnoma tuziladi. Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili bayonnomanini imzolashdan bosh tortgan taqdirda, unga tegishli yozuv yozib qo'yiladi. Bayonnoma bundan buyong protsessual harakatlarni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladigan surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etiladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxsning tekshirilayotgan subyektning hududiga va binolariga (turar joylar bundan mustasno) kirishiga to'sqinlik qilinganligi, shu jumladan ushbu subyektning mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazish rad etilganligi, shuningdek taftish o'tkazuvchi shaxsning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilinganligi qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Taftish o'tkazuvchi shaxslarning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilinganligi uchun javobgarlikka tortish taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsiga yoki vakiliga taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma topshirilgan kun taftish o'tkazish tugallangan kun deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomani olishdan bo'yin tovlagan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga bu haqda tegishli yozuv kiritadi va shu paytdan e'tiboran taftish tugallangan deb hisoblanadi. Mazkur holda taftish natijalari to'g'risidagi dalolat-

nomaning bir nusxasi tekshirilayotgan subyektga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi.

Tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsi yoki vakili turgan joy noma'lum bo'lgan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorning yoki ajrimning va vakolatli organning taftish o'tkazish haqidagi buyrug'ining ko'chirma nusxalarini tekshirilayotgan subyektning yuridik manziliga va uning mansabdor shaxsining yashash joyi manziliga uch ish kuni ichida buyurtma xat bilan yuboradi. Bunday holda buyurtma xat yuborilgan sana taftish o'tkazish boshlangan sana deb hisoblanadi.

Tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yoki vakilining yo'qligi taftishni bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Bunday holda taftish tekshirilayotgan subyektning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi, ishda mavjud bo'lgan hujjatlar, axborot va materiallar asosida o'tkaziladi.

Tekshirilayotgan subyektning hujjatlari, axboroti va materiallari yo'qotilgan, yo'q qilingan yoki mavjud bo'lmagan taqdirda, taftish o'tkazuvchi shaxs taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan masalalarni o'rganishni soliq, valyutaga oid, buxgalteriya to'g'risidagi qonun hujjatlariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazishi mumkin.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma tekshirilayotgan subyektning yuridik manziliga va dalolatnomaning ko'chirma nusxasi tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yashash joyiga buyurtma xatlar bilan yuborilgan kun taftish o'tkazish tugallangan kun deb hisoblanadi.

Taftish o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan iboratdir.

Zarur bo'lgan hollarda, tekshirilayotgan subyektning hujjatlari hajmi, faoliyatining turi va ko'lamlari hisobga olingan holda, taftish muddati taftish o'tkazuvchi shaxsning asoslantirilgan iltimosnomasiga ko'ra tergovchining, prokurorning qarori yoki sudning ajrimi bilan uzaytirilishi mumkin.

Taftishning umumiy muddati uni o'tkazish muddatlari uzaytirilishi inobatga olingan holda, dastlabki tergov va sud majlisida jinoyat ishini muhokama qilishning Jinoyat-protsessual kodeksda belgilangan muddatlaridan oshmasligi kerak.

Taftish o'tkazuvchi shaxslar o'tkazilgan taftish natijalariga ko'ra dalolatnoma tuzadi.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

- 1) taftish o'tkazilgan joy, dalolatnoma tuzilgan sana;
- 2) taftish o'tkazish uchun asoslar;
- 3) taftish o'tkazilgan muddat;

- 4) taftish o'tkazgan shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- 5) yuridik shaxsning to'liq nomi, tekshirilayotgan davrda uning rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirgan mansabdor shaxslarining familiyasi, ismi, otasining ismi (yakka tartibdagi tadbirkorning familiyasi, ismi, otasining ismi);
- 6) tekshirilayotgan subyektning joylashgan eri (pochta manzili), bank rekvizitlari, shuningdek uning soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- 7) tekshirilayotgan subyekt moliya-xo'jalik faoliyatining ilgarigi tekshiruvlari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 8) tekshirilayotgan davr hamda taftish o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlar, axborot va materiallar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar;
- 9) qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlarining (ular mavjud bo'lgan taqdirda) batafsil tavsifi qonun hujjatlarining buzilgan normalariga havola qilingan holda;
- 10) o'tkazilgan taftish natijalariga doir, shu jumladan qonun hujjatlarining buzilishlari mavjud emasligi to'g'risidagi xulosalar.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnoma kamida uch nusxada tuziladi.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning barcha nusxalari taftish o'tkazuvchi shaxslar tomonidan imzolanadi. Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan subyektning mansabdor shaxsiga yoki vakiliga topshiriladi, u dalolatnomaning barcha nusxalariga olganligi to'g'risida olish sanasini ko'rsatgan holda imzo qo'yishi shart. Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning qolgan nusxalari taftish materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Tekshirilayotgan subyekt mansabdor shaxsining yoki vakilining taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomadagi imzosi uning taftish natijalaridan rozi ekanligini bildirmaydi.

Taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaga taftishni tayinlash to'g'risidagi qarorning yoki ajrimning va vakolatli organning taftish o'tkazish haqidagi buyrug'ining ko'chirma nusxalari, taftish doirasida sodir etilgan harakatlar to'g'risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, taftish o'tkazish chog'ida olingan materiallar, shuningdek taftish doirasida sodir etilgan harakatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qo'shib qo'yilishi kerak.

Taftish tugallangan kundan e'tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmay taftish materiallari taftish o'tkazish vakolatiga ega bo'lgan organda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi va taftish-

ni tayinlagan surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga yoki sudga taqdim etilishi kerak.

Taftish o'tkazgan organ taftish natijalari to'g'risidagi dalolatnomaning tasdiqlangan ko'chirma nusxasini qonuniy choralar ko'rilishi uchun tegishli vakolatli organga ham yuboradi.

Tadbirkorlik subyektlarini taftish qilish yuridik xizmat vakillari va (yoki) jalb etilgan advokatlar albatta ishtirok etgan holda (tadbirkorlik subyekti mazkur huquqdan voz kechgan hollar bundan mustasno) o'tkaziladi.

Yuridik xizmat vakilining ishtirokidan va (yoki) advokatning yuridik yordamidan voz kechish taftishning keyingi bosqichlarida tadbirkorlik subyekti tomonidan ularni jalb etish uchun to'siq bo'lmaydi.

Taftish o'tkazuvchi shaxs tadbirkorlik subyektining vakolatli vakiliga uning taftish o'tkazishda ishtirok etishga yuridik xizmat vakilini va (yoki) advokatni jalb etishga yoxud ularning ishtirokidan voz kechishga bo'lgan huquqini taftish o'tkazish boshlanguniga qadar yozma shaklda tushuntiradi va bu haqda bayonnoma tuziladi.

Agar tadbirkorlik subyektining mansabdor shaxsi yoki vakili tomonidan yuridik xizmat vakilini va (yoki) advokatni jalb etish niyati bildirilsa, taftish o'tkazishning boshlanishi yuridik xizmat vakili va (yoki) advokat etib kelguniga qadar, biroq ko'pi bilan yigirma to'rt soatga to'xtatib turiladi.

Yuridik xizmat vakilining va (yoki) advokatning yigirma to'rt soat ichida etib kelish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, taftish ularning ishtirokisiz boshlanadi.

Taftish o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi quyidagi hujjatlarning mavjud bo'lishi tadbirkorlik subyektini taftishdan o'tkazishning majburiy shartidir:

- taftish tayinlash to'g'risidagi qaror yoki ajrim;
- vakolatli organning taftish o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i;
- taftish o'tkazuvchi shaxsning xizmat guvohnomasi;
- taftishga ruxsat berish to'g'risidagi maxsus guvohnoma.

Ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazishda quyidagilarga rioya etilishi lozim:

- xolislarning ishtiroki shartliligi;
- o'lchovlar o'tkazish, fotosuratga va videoyozuvga tushirilishi;
- rejalar, sxemalar va chizmalar tuzilishi,
- izlardan qoliplar va nusxalar olinishi mumkinligi;
- topilgan va olingan narsalar xolislariga va boshqa ishtirokchilarga ko'rsatilishi lozimligi.

– jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan oldin o‘tkazish mumkinligi, tergov-tezkor guruh ishtirokida o‘tkazilishi.

Ko‘zdan kechirish jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo‘lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish jinoyat ishi qo‘zg‘atilguniga qadar o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan tergov harakatlariga kiradi. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo‘lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko‘zdan kechiradi.

Surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida ko‘zdan kechirish xolislari ishtirokida o‘tkaziladi. Agar sud majlisini o‘tkazish vaqtida ko‘zdan kechirishga zarurat tug‘ilsa, sud bu haqda ajrim chiqaradi va ko‘zdan kechirishni taraflar ishtirokida o‘tkazadi.

Zarur hollarda surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ko‘zdan kechirish chog‘ida o‘lchov o‘tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi. Bu ishlarni bajarishga yordam berish uchun ko‘zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Ko‘zdan kechirish chog‘ida topilgan va olib qo‘yilgan barcha narsalar xolislarga, taraflarga va ko‘zdan kechirishning boshqa ishtirokchilariga ko‘rsatilishi lozim. Bunda ko‘zdan kechirishda ishtirok etayotgan shaxslar surishtiruvchi, tergovchi va sudning e‘tiborini o‘zlarining fikricha ish holatlarini oydinlashtirishga yordam berishi mumkin bo‘lgan barcha hollarga qaratishga haqlidirlar (JPK 136-m.).

Narsalarni olib qo‘yish va tintuv o‘tkazish chog‘ida topilgan narsa va hujjatlar shu tergov harakatlarini o‘tkazish uchun belgilangan qoidalarga rioya qilgan holda ko‘zdan kechiriladi (JPK 135-m.).

Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish uchun aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligidan dalolat beruvchi ma’lumotlar bo‘lishi kerak. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishdan asosiy maqsad hodisaning kelib chiqish holatini bevosita ko‘rish bilan mavjud iz, ashyoviy dalillarni topishdan iborat.

Hodisa sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirish hodisaning mexanizmini o‘rganishga, jinoyatchi faoliyatining izlarini aniqlash, saqlash va keyinchalik o‘rganish uchun qayd etishga hamda sodir etilgan hodisa holatlarini aniqlash maqsadida turli obyektlar, predmetlar, hujjatlar va boshqa ish uchun ahamiyatli bo‘lgan dalillarning qayd etilishiga qaratilgan tergov harakati hisoblanadi. «Hodisa joyini ko‘zdan kechirish» tushunchasi o‘z ichiga jinoyatning izlari, ashyoviy dalillarni topish va to‘g‘rili-

gini isbotlash, jinoyat motivi va mexanizmini aniqlash, koʻzdan kechirish maʼlumotlarini «issiq izlar» boʻyicha qidiruv oʻtkazish uchun foydalalanishga qaratilgan kompleks tergov va qidiruv tadbirlarini qamrab oladi.

Hodisa sodir etilgan joyni koʻzdan kechirish - ish uchun ahamiyatli boʻlgan holatlarni aniqlashga qaratilgan va kechiktirib boʻlmaydigan tergov harakati boʻlib hisoblanadi. U oʻz ichiga sodir etilgan hodisaning xarakteri, jinoyatchi(lar) shaxsi, jinoyat motivlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan hodisa joyining holatini oʻrganishi, har xil izlar va boshqa ashyoviy dalillarni topish, qayd etish va qoʻlga kiritish kabi harakatlarni qamrab oladi.

Tadqiq etilayotgan hodisada jinoyat tarkibi bor yoki yoʻqligini mumkin qadar aniqlashga imkon beradigan haqiqiy maʼlumotlarni topish va mustahkamlash, shuningdek tadqiq etilayotgan hodisa holatlari va uning ishtirokchilari haqida taxminlar qilish va ularni tekshirish uchun hodisaning holatini toʻlaligicha hamda uning ayrim obyektlarini bevosita tadqiq etishdan iboratdir. Hodisa sodir boʻlgan joyni koʻzdan kechirish aynan ana shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida maʼlumotlar boʻlgan taqdirda oʻtkaziladi (JPK 137-m.).

Koʻzdan kechirish natijalarining isbotlovchi ahamiyati koʻp jihatdan uning oʻz vaqtida oʻtkazilganligi darajasiga bogʻliqdir. Hodisa joyini koʻzdan kechirishning asosiy prinsiplaridan uning oʻz vaqtida va atroflicha, batafsil oʻtkazilishini alohida ajratib koʻrsatish lozimki, ular mumkin qadar koʻproq axborot toʻplashni taʼmin etadi. Oʻz vaqtida, toʻla va toʻgʻri koʻzdan kechirish yordamida quyidagilarni aniqlash mumkin:

- sodir etilgan hodisaning mazmuni;
- sodir etilish joyi va vaqti;
- hodisada qatnashgan shaxslar soni;
- jinoyatning motiv va maqsadi;
- jinoyatning sodir etish turi;
- jinoyat sodir etilishiga taʼsir etgan shart-sharoitlar;
- hodisa joyida jinoyatchilarning xatti-harakatlari, kelish va ketish yoʻllari;
- jinoiy harakat nimaga qaratilganligi;
- oʻlgan shaxsning jismoniy va ruhiy holati;
- jabrlanuvchining oʻlimidan oldingi harakatlari;

Yuqorida koʻrsatilgan masalalar faqat surishtiruvchi (tergovchi) tomonidan koʻzdan kechirish yakunida koʻzdan kechirish oldiga qoʻyilgan tub savollarga javob olingandan keyingina echilishi mumkin.

Sodir etilgan jinoyat haqida xabar olgach, basharti uning ochilishi hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni talab qilsa, surishtiruvchi (tergovchi) zudlik bilan hodisa sodir bo'lgan joyga borishi va uni ko'zdan kechirishni amalga oshirishi kerak. Bu hol tergov harakatining aynan kechiktirib bo'lmazligi sababli, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishni keyinga qoldirish mumkin bo'lmagan hollarda jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Bunday vaziyatlarda ko'zdan kechirishdan keyin ko'pi bilan o'n sutka ichida, alohida hollarda esa prokurorning ruxsati bilan bir oy davomida jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uning qo'zg'atilishini rad etish haqida qaror chiqarilishi kerak.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish ishdan manfaatdor bo'lmagan fuqarolarni jalb qilgan holda, albatta, xolislarning ishtirokida amalga oshiriladi. Agar ko'zdan kechirish hududida davlat sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlar aniqlanishi mumkin bo'lsa, bunday xolislar sifatida o'z mashg'ulot turi yoki xizmat faoliyati bo'yicha bunday ma'lumotlardan foydalanishga ruxsati bo'lgan shaxslar taklif qilinadi.

Ko'zdan kechirish boshlanishidan oldin xolislariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish kerak. Ko'zdan kechirish o'tkazilganda surishtiruvchi (tergovchi) xolislarning e'tiborini ishni tergov qilishda ahamiyatli bo'lgan barcha holatlarga qaratadi. O'z navbatida xolislar ham surishtiruvchining e'tiborini o'zlarining fikriga ko'ra ish uchun ahamiyatli bo'lishi mumkin bo'lgan u yoki bu faktlarga qaratishga haqlidir. Zarurat tug'ilganda kelgusi tergov qilish yoki sud muhokamasi borasida xolislar ko'zdan kechirish natijasida ularga ma'lum bo'lgan holatlar yuzasidan guvohlar sifatida so'roq qilinishlari mumkin.

Zarur hollarda ko'zdan kechirish chog'ida o'lchov o'tkaziladi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga olinadi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuziladi, izlardan qoliplar va nusxalar olinadi. Bu ishlarni bajarishda yordam berish uchun ko'zdan kechirishga mutaxassislar jalb qilinishi mumkin.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish chog'ida mutaxassis ko'zdan kechirishda paydo bo'ladigan u yoki bu masalalarda surishtiruvchi (tergovchi)ga maslahat beradi, shuningdek izlarni topish va qayd etishda, ulardan qoliplar va nusxalar olishda, hodisa sodir bo'lgan joyni fotosuratga tushirishda, reja va chizmalar tuzishda texnik yordam ko'rsatadi. Ko'zdan kechirishning quyidagi turlarini amalga oshirishda malakali mutaxassislarni taklif etishga alohida e'tibor berish lozim: maxfiy joylarni aniqlash maqsadida narsalarni ko'zdan kechirish, maxfiy yozuvlarni aniqlash maqsadida hujjatlarni ko'zdan kechirish va hokazo. Ayrim hollarda ko'zdan kechirishda qatnashayotgan mutaxassislar jinoiy maq-

sadlarni amalga oshirishga mo'ljallangan maxfiy moslamalarni aniqlashga yordam beradilar.

Katta hudud va binolarni ko'zdan kechirish bir nechta surishtiruvchi yoki tergovchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ular har birining harakati kamida ikki nafar xolis ishtirokida o'tkazilishi kerak.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan narsalar, hujjatlar va izlar o'raladi va muhrlanadi. Katta hajmdagi narsalar olinmaydi va muhrlanmaydi, lekin surishtiruvchi yoki tergovchi ularni saqlash choralari ko'rish lozim (JPKning 137-m.).

Ko'p hollarda hodisa joyini ko'zdan kechirish natijalari asosida jinoyatning yasamaligi yoki jinoyat tarkibining mavjud emasligi yoxud jinoyat izlari bo'yicha muvaffaqiyatli qidiruv ishlari olib borish borasida xulosalar chiqariladi. Biz hodisa joyini ko'zdan kechirishda foydalana-digan bilish yoki tekshirish o'tkazishning uslublari, ushbu tergov harakatining tashkiliy, nazariy va amaliy muammolariga to'xtalmaymiz. Biz bu erda ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha tasmollarni shakllantirish va bo'lib o'tgan voqea holatini tiklash, ko'zdan kechirish bilan bir vaqtda amalga oshirish lozim bo'lgan boshqa tergov va tezkor-qidiruv choratadbirlari, ularning o'tkazish natijasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, shuningdek hodisa joyini ko'zdan kechirishning huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolar to'g'risida to'xtalib o'tish lozim.

Katta maydonlarni va binolarni ko'zdan kechirish bir necha surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin, bunda ularning har biri kamida ikki nafar xolis ishtirokida ko'zdan kechirishi lozim.

Murdani ko'zdan kechirish ayrim o'ziga xos jihatlarga ega. Murdani tashqi ko'rinishini surishtiruvchi yoki tergovchi u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko'zdan kechiradi. Bunday mutaxassis shifokor ishtirok etishiga imkoniyat bo'lmagan taqdirda, boshqa shifokor ishtirok etadi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirish uchun boshqa mutaxassislar, shuningdek ekspertlar jalb qilinadi. Murdani ko'zdan kechirish bilan bir paytda uning yonidan topilgan shaxsiy buyumlar, narsalar, kiyim va poyabzal ko'zdan kechiriladi. Zarur hollarda murdani ko'zdan kechirishda nafaqat shifokor, balki boshqa mutaxassislar - suratkash, kriminalist, kimyogar va shu kabilar ishtirok etishi mumkin.

Tevarak-atrof va binolar quyidagi qoidalarga rioya qilgan holda ko'zdan kechiriladi: fuqaroning uyi yoki xizmat joyini ko'zdan kechirish zarurati bo'lsa, surishtiruvchi yoki tergovchi bu haqda qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Turar joyi ko'zdan kechirilayotgan shaxs yoki tegishli

korxonada, muassasa, tashkilotning vakili chiqarilgan qaror yoki ajrim bilan tanishtirilib, bu haqda imzo chektiriladi.

Koʻzdan kechirish korxonada, muassasada, tashkilotda oʻtkazilsa – maʼmuriyat vakilining, harbiy qismda, shtabda va muassasada oʻtkazilsa – qoʻmondonlik vakilining, zarur hollarda esa, moddiy javobgar shaxsning qatnashishi shart (JPK 139-m.). Davlat sirlariga ega boʻlgan narsalar va hujjatlarni faqat maxsus ruxsatga ega boʻlgan surishtiruvchi, tergovchi xuddi shunday ruxsatga ega boʻlgan xolislar ishtirokida koʻzdan kechiradi.

Surishtiruvchi, tergovchi narsa va hujjatlarni ular topilgan joyda, basharti koʻzdan kechirish koʻp vaqt yoki qoʻshimcha texnik vositalar talab qilsa, keyinchalik surishtiruv, dastlabki tergov oʻtkazilayotgan joyda koʻzdan kechiradilar. Koʻzdan kechirish narsa yoki hujjatlarning yoʻqolishiga yoxud shikastlanishiga olib kelmasa, texnik vositalardan foydalangan holda oʻtkazilishi mumkin (JPK 140-m.).

Koʻzdan kechirish oʻtkazishga asos boʻladi:

- jinoyat haqidagi ariza va xabarlar, koʻrsatuvlar;
- narsa va hujjatlarning taqdim etilishi;
- tintuv va olib qoʻyish oʻtkazishda narsa va hujjatlar olinishi;
- xatlangan pochta va telegraf joʻnatmalarining ushlanganligi.

Koʻzdan kechirish aksariyat jinoyat ishlari boʻyicha dastlabki va kechiktirib boʻlmaydigan muhim protsessual harakatdir. Shu sababli hodisa joyini koʻzdan kechirish tergov harakati jinoyat ishi koʻzga atilishidan oldin oʻtkazilishiga yoʻl qoʻyiladi.

Koʻzdan kechirishning toʻliq va har tomonlama oʻtkazilishi hodisa joyi holatini toʻliq tekshirish, birorta ham ashyoviy dalillarning nazardan chetda qolmasligi va bayonnomada qayd etilishini taqozo qiladi.

Oʻz navbatida hodisa joyini koʻzdan kechirishning toʻla va har tomonlama oʻtkazilishi quyidagilar bilan taʼminlanadi:

- koʻzdan kechirishning toʻgʻri tashkil etilishi, koʻzdan kechirish ishtirokchilari oʻrtasida ish faoliyatini toʻgʻri taqsimlanishi hamda barcha harakatlarning tuzilgan rejaga asosan oʻtkazilishi;
- koʻzdan kechirish harakatiga faqat tergovchi boshchilik qilishi;
- kriminalistik vositalar va uslublarning toʻgʻri qoʻllanilishi;
- tergovchi va boshqa jalb qilingan mutaxassis ishtirokchilarda kasbiy tajriba va bilimlarning etarliligi;

Hodisa joyi holatini koʻzdan kechirish uchun tergovchiga murakkab vaziyatlarda maslahatlar beruvchi mutaxassis shaxslar jalb etiladi. Nihoyat koʻzdan kechirish jarayoni tergovchidan juda katta aqliy mehnat, vaziyatni tahlil qila olish va toʻgʻri xulosa chiqara olishni talab etadi.

Koʻzdan kechirishning maqsadi ish boʻyicha ahamiyatli haqiqiy maʼlumotlarni aniqlash va mustahkamlashdir. Koʻzdan kechirishda haqiqiy maʼlumotlarni aniqlash koʻzdan kechirilayotgan obyektlarda aks etgan sodir etilgan jinoyat holatlarini koʻzdan kechirish ishtirokchilari-ning (tergovchi va xolislarning) bevosita idrok qilishi orqali amalga oshiriladi.

Koʻzdan kechirishda qatnashishga ayblanuvchi, gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, guvoh jalb qilinishi mumkin. Koʻrsatilgan shaxslarning koʻzdan kechirishda qatnashishi koʻp hollarda ish uchun ahamiyati boʻlgan yangi holatlarni aniqlashda yordam beradi (masalan, xonadondagi oʻgʻrilik yuzasidan koʻzdan kechirishda jabrlanuvchi hodisa sodir boʻlgan joydan topgan muayyan narsa xonadonda yashovchilarning hech biriga tegishli emasligini koʻrsatadi). Koʻrsatilgan shaxslarning koʻzdan kechirishda qatnashishi ular oldin bergan koʻrsatuvlarini koʻzdan kechirish borasida aniqlangan maʼlumotlar bilan solishtirib tekshirish va aniqlash imkonini beradi.

Koʻzdan kechirish oʻtkazilganligi haqida JPKning 141-moddasida koʻrsatilgan talablarga binoan bayonnoma tuziladi. Koʻzdan kechirish bayonnomasi bu tergov harakatining oʻtkazilganligini va uning olib borilishida barcha aniqlanganlarni qayd qiluvchi asosiy, majburiy vosita hisoblanadi. Bayonnomaning yoʻqligi koʻzdan kechirish natijasini isbotlovchi kuchdan mahrum qiladi, chunki bayonnoma dalillarni mustahkamlovchi protsessual vosita, dalillar manbai hisoblanadi. Bayonnomada tergovchining barcha harakatlari bayon qilinadi, shuningdek koʻzdan kechirish davomida topilgan barcha narsalar, ular qanday tartibda koʻzdan kechirilgan boʻlsa, xuddi shu tartibda, koʻzdan kechirish paytida qanday holatda kuzatilgan boʻlsa, xuddi shu holatda qayd etiladi.

Koʻzdan kechirish bayonnomasida tergov harakatini oʻtkazish paytida topilgan narsalarning barchasi batafsil toʻliq qayd etilishi kerak. Bayonnomaga ish uchun ahamiyati boʻlgan barcha holatni qayd etish kerak, biroq bu borada obyektlarni oʻta maydalashtirib, chegaradan chiqib ketmaslik lozim.

Bayonnomada koʻzdan kechirish chogʻida topilgan va olingan barcha izlar, narsalar va hujjatlar sanab oʻtiladi. Olingan buyumning egasiga tegishli maʼlumotnoma yoki bayonnomaning nusxasi beriladi. Bundan tashqari, bayonnomada: koʻzdan kechirish qaysi vaqtda, qanday ob-havoda va qanday yorugʻlikda oʻtkazilganligi; qanday ilmiy-texnika vositalari qoʻllanilganligi va qanday natijalar olinganligi; koʻzdan kechirishda koʻmaklashish uchun kimlar jalb qilinganligi va koʻmaklashish

nimada o'z aksini topganligi; qanday narsalar va hujjatlar qanday tartibda va qanday muhr bilan muhrlanganligi; ko'zdan kechirilganidan keyin murda va ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsalarning qaerga yuborilganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Agar ko'zdan kechirishda mutaxassis ishtirok etgan bo'lsa, bayonnomada uning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi va lavozimi ko'rsatiladi. Bayonnomada mutaxassis qaysi harakatlarni bajargani, qaysi ilmiy-texnika vositalaridan foydalangani va qanday natijalarga erishgani ko'rsatilishi kerak.

Bayonnomaga fotosurat rasmlari, rejalar, chizmalar, izlarning qoliplari va nusxalari ilova qilinib, bu haqda unda qayd etiladi.

Bayonnoma tuzilganidan keyin u ko'zdan kechirishni o'tkazishda ishtirok etgan shaxslarga o'qib eshittiriladi, ular esa o'tkazilgan harakatlarni bo'yicha o'z mulohazalarini unga kiritishni talab qilishga haqlidirlar. Bu huquq ularga tushuntirilganligi to'g'risida bayonnomada qayd etiladi. Barcha mulohazalar albatta bayonnomaga kiritilishi lozim. Bayonnoma tergovchi (surishtiruvchi) hamda ko'zdan kechirishni o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi.

Kechiktirib bo'lmas holatlarda ko'zdan kechirishni o'tkazishning xususiyatlari bayon etiladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga etib kelgan surishtiruvchi (tergovchi):

– dastlabki ravishda hodisa sodir bo'lgan joyda jinoyatni o'z ko'zi bilan ko'rgan va hodisani birinchi bo'lib aniqlagan shaxslardan bo'lib o'tgan voqea va uni sodir qilgan shaxslar to'g'risida ma'lumotlarni oladi. Surishtiruv idoralari xodimlaridan ular tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot oladi, ular aybdorlarni aniqlash uchun nima qilganliklari, ularning qidiruvi va ushlab turilishi bilan bog'liq choralar to'g'risida axborotlar oladi;

– surishtiruv idoralari xodimlariga hodisa sodir bo'lgan joyda bo'lgan guvoh va hodisaning bevosita guvohi bo'lgan shohidlarni aniqlash vazifasi qo'yiladi (zarur bo'lsa kvartirama-kvartira yoki hovlima-hovli kirib chiqish harakatlari amalga oshiriladi);

– surishtiruv idorasi xodimlariga shohid va boshqa guvohlardan bo'lib o'tgan hodisa to'g'risida dastlabki malumotlarni olish maqsadlarida ulardan tushuntiruv xatlarini olishni tavsiya qiladi, shu maqsadlarda kriminalistik hisoblardan foydalanish talabini ham qo'yishi mumkin;

– hodisa oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilganligiga ishonch hosil qiladi, jumladan jabrlanganlarga zaruriy tibbiy yoki boshqa yordam ko'rsatilganligi bo'yicha, agar bu choralar

amalga oshirilmagan bo'lsa tegishli yordam choralari amalga oshirilishiga rahbarlik qiladi;

– hodisa sodir bo'lgan joyning holatiga jabrlanganlarga yordam berishda va jinoyat oqibatlarini bartaraf etish maqsadlarida voqea joyida bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi;

– isbotlovchi ahamiyatga ega bo'lgan izlar va obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi;

– hodisa sodir bo'lgan joyda ishtirok etuvchi shaxslarning doirasini belgilab, ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Ko'zdan kechirish paytida ishtirok etuvchi xolislar JPKning 74-moddasi asosida ularning huquq va majburiyatlari tushuntiriladi. Zaruriy hollarda tergovchi xolislardan dastlabki tergovda ularga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni JPKning 353-moddasiga binoan oshkor qilmaslik to'g'risida yozma tilxat olishi mumkin.

Ko'zdan kechirish paytida xolislar tergovchi bilan birgalikda bir joyda bo'lib, u bilan birgalikda harakat qilishi kerak. Ammo har qanday hollarda ham xolislar bevosita va shaxsan o'zlari ushbu tergov harakati jarayonida aniqlangan, tadqiq etilayotgan va bayonnomada aks ettirilgan narsa va obyektlar bilan ishlash jarayonini kuzatib borishlari lozim.

Tergovchining rejasiga ko'ra ko'zdan kechirish paytida mutaxassis, tarjimon, jinoiy qilmishdan jabr ko'rgan shaxs, jinoyatni o'z ko'zi bilan ko'rgan va birinchi bo'lib jinoyatni sodir etilishini aniqlagan shaxslar, guvohlar, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va uning himoyachisi ishtirok etishlari mumkin.

Ko'zdan kechirish bevosita quyidagi tartibda amalga oshiriladi: avval umumiy ko'zdan kechirish amalga oshiriladi, shundan so'ng hodisa sodir bo'lgan joyning sinchkovlik bilan birma bir ko'zdan kechirilishi amalga oshiriladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni umumiy ko'zdan kechirish paytida tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyni aylanib chiqadi, hodisa bilan bog'liq obyektlarni aniqlaydi va olingan ma'lumotlarga ko'ra bo'lib o'tgan hodisa to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'ladi, hodisa sodir bo'lgan joyning umumiy chegaralarini belgilaydi va unga tutashgan hudud bilan bo'lgan nisbatini aniqlaydi, tegishli izlarni borligini aniqlaydi va ularni ob-havo noqulayliklaridan muhofaza qilish uchun chora-tadbirlarni ko'rishi kerak bo'ladi. Zarur hollarda kinolog-mutaxassisning fikriga ko'ra qidiruv xizmat itini qo'llash to'g'risidagi to'htamga keladi va buning natijasida jinoyatni sodir etgan shaxs, jinoyatga aloqador va muhim bo'lgan boshqa predmetlarni aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

Agarda jinoyatchini aniqlash imkoniyati yuzaga kelsa surishtiruv hodi- miga jinoyatning izidan ta'qib etish to'g'risida topshiriq beradi, hodisa sodir bo'lgan joyni qaysi joydan ko'zdan kechirishni boshlanishini belgilaydi, shuningdek yo'nalishli va joyning umumiy ko'rinishi bilan bog'liq fotosuratga olish joylarini belgilab chiqadi.

Keyin tergovchi hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirilishi paytida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan mazkur joy bilan bog'liq bo'lgan barcha umumiy masalalarni birgalikda tadqiq etadi, ya'ni obyektlarning joylanishi, ularning o'zaro bir biriga bo'lgan masofasi, ularning tashqi ko'rinishi, holatini o'rganadi va tegishli foto, video, plan, sxema, chizmalar asosida qayd etadi va ko'zdan kechirish bayonnomasi uchun zaruriy belgilarni qayd etadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni umumiy ko'zdan kechirish paytida statik usul qo'llaniladi, uning mazmuni shundan iboratki hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirilishi ularda bo'lgan obyektlarni joyni buzmasdan ko'rikdan o'tkazish bilan bog'liq bo'ladi. Bu usulni qo'llanilishi hodisa sodir bo'lgan joyni o'zgarmas dastlabki ko'rinishida qayd etilishini kafolatlaydi.

Umumiy ko'zdan kechirishdan so'ng tergovchi batafsil ko'zdan kechirishga o'tadi, va buning natijasida hodisa sodir bo'lgan joyda mavjud bo'lgan barcha obyektlarni mufassal ko'zdan kechirib chiqadi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirishning chetdan markaz- ga qarab (konsentrik) usuli hodisa sodir bo'lgan joyning chetidan uning markaziga qarab spiralsimon yurish qilib ko'zdan kechirishdan iborat bo'ladi. Markaz asosida eng muhim bo'lgan obyekt tushunilishi mumkin (masalan, jasad, buzib ochilgan seyf, jinoyatchi tomonidan qoldirilgan predmet) yoki farazli nuqta bo'lishi mumkin.

Chetdan markazga (konsentrik) usulini quyidagi hollarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi: 1) qachonki hodisa sodir bo'lgan joyning markazini aniqlash qiyin bo'lsa (masalan, katta to'polon urush bo'lgan uzun xonada yoki ochiq atrof-joyda); 2) qachonki hodisa sodir bo'lgan joyga yurishda chetda qolgan izlar buzilib qolishi mumkin (masalan, koridor ingichka bo'lsa, uning oxirida esa olov izlari va jasad yotgan bo'lsa); 3) agar chetda bo'lgan izlar umuman yo'q bo'lib ketish xavfiga ega bo'lsa va markazdagi izlarni saqlab qolish hech qanday shubha uyg'otmasa. Masalan, jinoyatchi tomonidan xonadonda qoldirilgan izlar saqlanib qolishi mumkin, lekin tashqarida bo'lgan poyafzal izlari, trans- port vositalarining izlari, otib tashlangan narsalar va boshqa predmetlar har qanday vaqtda yo'q qilinishi mumkin.

Markazdan chetga (ekssentrik) usuli markazdan chetga qarab spiralsimon yurish asosida amalga oshiriladi va hodisa sodir bo'lgan joyning markazidan uning chetiga qarab amalga oshiriladi. Bu usul, odatda, ochiq joyda amalga oshiriladi, agarda hodisa sodir bo'lgan joyning chegaralarini aniqlash mumkin bo'lmasa.

Bir chiziq bo'ylab (frontal) ko'zdan kechirish maydonlarni bir chizik asosida ko'zdan kechirishdan iborat bo'ladi va ularning yaqinda bo'lgan chegaralaridan uzoq chegaralariga qarab amalga oshiriladi. Bu usul ko'zdan kechiriladigan joyning katta bo'lganligi uchun va uni ma'lum chiziq'larga bo'lib chiqish imkoniyati mavjud bo'lganida amalga oshiriladi.

Birma bir ko'zdan kechirish paytida hodisa sodir bo'lgan joy mufassal ravishda tadqiq etilgan bo'lishi kerak, nima uchun? Jinoyat-chining poyafzal izlarini aniqlash maqsadida, u tomonidan qoldirilgan predmetlarni aniqlash maqsadida, jinoyat qurolini aniqlash maqsadlarida, jinoyatchi qiyimidagi mikroizlarni aniqlash maqsadlarida, to'siqlarni sindirish qurollarini aniqlash maqsadlarida. Buning uchun tergovchi va mutaxassis ko'zdan kechirish paytida dinamik usulni qo'llashlari mumkin bo'ladi (obyektlar bunda bir joydan ikkinchi joyga olib o'tiladi, ag'darib ko'zdan kechiriladi, suriladi).

Jinoyatning izlarini aniqlash maqsadlarida tergovchi yoki mutaxassis tergovchining topshirig'iga binoan tergov jomadonida bo'lgan zaruriy texnik vositalarini qo'llashlari yoki kriminalistik transport laboratoriyasida bo'lgan texnik-kriminalistik vositalardan foydalanishlari mumkin.

Barcha ko'zdan kechiriladigan obyektlar xolislariga ko'rsatilishi kerak. Agarda jinoyat izlari aniqlansa bu holatni xolislariga ta'kidlab ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd qilish kerak bo'ladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyda sun'iy koordinat usulidan foydalanish mumkin bo'ladi. Uning mazmuni shundan iboratki hodisa sodir bo'lgan joyda jasadni, ashyoviy dalillarni va boshqa obyektlarni aniqlash joylarida tergovchi (surishtiruvchi) ma'lumotnomani tuzadi va unda obyektning qaysi tergov harakatini o'tkazish davrida va qachon, qaerda aniqlanganligi qayd etiladi. Ma'lumotnoma ikki nusxada tuziladi. Uning bir nusxasini tergovchi va xolislar tomonidan imzolangan bo'lib, polietilen paketiga solinib, yaxshilab yopiladi (termik usulda) va ma'lum joylarga ko'mib qo'yiladi (masalan: jasadning boshi, qo'llari, oyoqlari topilgan joyga kumiladi). Ikkinchi nusxasi esa tergovchi va xolislar tomonidan imzolanadi va ular ko'zdan kechirish bayonnomasiga ilova qilinadi. Keyinchalik hodisa sodir bo'lgan joyda qoldirilgan ma'lumotnomalar

o'tkaziladigan eksperimentning natijalari ishonchli bo'lishini tekshirish vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Agarda hodisa sodir bo'lgan joydan uning chegaralaridan tashqarisida, sodir etilgan jinoyatga nisbatan tegishli obyektlar aniqlanadigan bo'lsa (jinoyat qurollari, o'g'irlangan narsalar va hokazo), tergovchi obyektlar topilgan joyni ko'zdan kechirish to'g'risidagi to'xtamga keladi. Buni hududni qarab chiqish deyiladi (huddi sochni taragandek) va u hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bilan birga o'tkazilishi mumkin. Hududni qarab chiqish oldidan tergovchi uning ishtirokchilari oldida tegishli vazifalarni qo'yishi mumkin va biron obyekt topilganida uni qo'l bilan ushlab, bir joydan ikkinchi joyga o'tkazish, holatini o'zgartirish mumkin emasligi to'g'risida ogohlantiradi. Hududni tekshirishda ishtirok etuvchi shaxs tegishli obyektlarni aniqlab bu to'g'risida albatta tergovchiga habar qiladi. Tergovchi aniqlangan obyektning jinoyatga aloqadorligini tekshirib, shu zahotiyok xolislar ishtirokida uni ko'zdan kechiradi, zarur hollarda ko'zdan kechirish paytida mutaxassis ishtirok etadi va bu to'g'risida hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etiladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyda aniqlangan obyektlar, tergovchining fikriga ko'ra hodisaga aloqador bo'lsa, hodisa sodir bo'lgan joyda ko'zdan kechiriladi. Ko'zdan kechirish natijalari hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasida qayd etiladi. Agarda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish paytida tegishli narsa va hujjatlarni ko'zdan kechirish uchun vaqt etishmasa va imkoniyat bo'lmasa, bu holda tergovchi olingan narsa va hujjatlarni dastlabki tergovni o'tkazish joyda ko'zdan kechirishi mumkin bo'ladi.

Obyektlar yoki ularning qismlari, agar ularda jinoyat izlari aniqlansa bevosita fotosuratga olinadi uzviy va detal usullarda, shundan so'ng zaruriy ravishda olinishi shart. Agarda bu obyektlar yoki qismlarni olish imkoniyati bo'lmasa ulardan qoliplar va izlarning qoliplari olinadi.

Hodisa sodir bo'lgan joydan olingan obyektlar o'raladi va muhrlanadi. Ishning natijalari va oqibatlariga manfaatdor bo'lgan shaxslar ba'zi bir hollarda tergovchini (surishtiruvchini) hodisa sodir bo'lgan joydan olingan obyektlarning almashtirganligida ayblashadi. Buni bartaraf etish maqsadlarida quyidagi holda harakat qilish zarur. Qadoqlanadigan obyektlarni qadoqlash jarayonini bevosita xolislar ishtirokida o'tkazish kerak. Har bir qadoqlangan paket undagi bo'lgan obyektlar bilan tegishli yorliq yordamida muhrlangan bo'lishi lozim va yorliqda tergovchi (surishtiruvchi) va xolislarining imzolari bo'lishi kerak. Agar paketni

ochish zaruriyati tug'lsa u xolislar ishtirokida ochilishi lozim. Agarda bu xolislarining ishtirok etish imkoniyati biror-bir sabablarga ko'ra tatbiq etilmasa, bu hollarda qadoqlovchi birka xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilib, bayonnomada qayd etilib, shundan so'ng paketni ochish mumkin bo'ladi, ochilgandan so'ng narsani ko'zdan kechirish bayonnomasiga ilova qilinishi kerak.

Agarda hodisa sodir bo'lgan joyni to'la ravishda ko'zdan kechirish mumkin bo'lmasa va kech tushib atrof qorong'u og'ushida bo'lib qolsa va sun'iy yoritg'ichlar ko'zdan kechirish imkoniyatini to'la ravishda ta'minlay olmasa, bu holda ko'zdan kechirish harakati tamomlanib, JPKning 141-moddasining talablariga binoan bayonnoma tuzilishi shart. Turli texnika vositalari taraqqiy etgan bugungi zamonda hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasini yozishdan oldin, aniqrog'i hodisa joyiga tergov-tezkor guruhi kelishi bilan hodisa sodir bo'lgan joy mukammal tarzda videotasvirga olinishi muhim ahamiyatga egadir. Hodisa sodir bo'lgan joyni tark etishdan avval tergovchi bu joyni quriqlash choralari ko'rishi lozim. Ertasi kuni tabiiy yorug'lik sharoitlarida ko'zdan kechirish davom ettirilishi lozim va bunda qo'shimcha yoki qayta ko'zdan kechirish harakati amalga oshiriladi. Qo'shimcha yoki qayta ko'zdan kechirishni o'tkazish masalasini tergovchi avvalgi ko'zdan kechirishning to'liqligi va sifatiga qarab amalga oshiradi.

Olib qo'yish va tintuvning jinoyat-protsessual xususiyatlari:

- qaror asosida o'tkaziladi;
- prokuror ruxsati (olib qo'yishda ba'zan) talab etiladi;
- kechiktirib bo'lmas holatlarda tintuv prokuror sanktsiyasiz ham o'tkaziladi, bu haqda 24 soat ichida prokurorga xabar berish shart;
- ikki nafar xolis, xona yoki bino egasi yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs qatnashishi shart;

Tintuv tergov harakatini o'tkazish xususiyatlari. Tintuvga tayyorgarlik ko'rish – tashkiliy ta'rifga ega bo'lgan chora-tadbirlar tizimi bo'lib, tintuvning maqsadlariga etishish uchun amalga oshiriladi. Mazkur tizimga quyidagi tadbirlar kiradi.

1. Zarur malumotlarni to'plash. Malumotlarni to'plash bu muayyan harakatlarning kompleksi bo'lib, uning yo'nalishi sifatida tintuv qilinadigan obyektlar to'g'risida ma'lumotlar olish, tintuv o'tkaziladigan joyning sharoitlari, qanday obyektlarni qidirish lozimligi, tintuv qilinadigan shaxslar nima bilan shug'ullanishi va ular to'g'risidagi tergovni qiziqtiradigan boshqa ma'lumotlarni olishdan iborat bo'ladi.

Tintuv o'tkaziladigan joyning sharoitlari va holati to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun quyidagilarni aniqlash lozim: tintuv qilinadigan joyning aniq manzilini aniqlash; tintuv qilinadigan xonadonning joylashish sxemasini aniqlash; (tintuv qilinadigan joy ko'p qavatli uydami yoki alohida xonadonmi yoxud xususiy mulk hisoblangan hovlimi yoki hovlida joylashgan xususiy uymi, mazkur obyektida qanday imoratlar mavjud, agarda uy er uchastkasida joylashgan bo'lsa, uning ichida erto'las bormi yoki omborxonasi mavjudmi yoki boshqa xizmat uchun mo'ljallangan xonadonlar qurilganmi, ularning saqlanish, ta'mirlash holati qanday xususiyatlarga ega, bu imoratlarga olib boriladigan yo'llar, ularning ichiga kirish yo'llari, shu xonadonlarda mebellarning mavjudligi, mexanizmlarning borligi, qo'shimcha chiqish joylarini mavjudligi va qancha oynaklardan iboratligi e'tiborga olinadi).

Tintuvni amalga oshirishdan avval qidirilishi lozim bo'lgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar ham o'rganilishi lozim: qidiriladigan obyektlarning ta'rifi va belgilari, ularning soni, ularning tashqi ko'rinishi, shakli, kattaligi va o'ziga xos xususiyatlari. Izlanishi lozim bo'lgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar ularni ehtimoliy yashirib qo'yish joylarini aniqlashga yordam beradi.

Bunday ma'lumotlarning manbalari sifatida: hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish bayonnomasi, shuningdek ko'zdan kechirish paytida topilgan izlardan tayyorlangan qoliplar, jabrlanuvchilarning va guvohlarning ko'rsatuvlari, fuqaroviy da'vogarlarning arizalari, tashkilot, korxonalar va muassasalardan, mansabdor shaxslar va fuqarolardan olingan ma'lumotlar, ekspertlarning xulosalari, taftish va hujjatli tekshiruvlarning dalolatnomalari, mutaxassislarining tushuntirishlari, o'g'irlangan narsalardan qolgan va ularni tasdiqlovchi texnik pasport hujjatlari yoki o'g'irlangan narsalarning jabrlanuvchida qolib ketgan qismlari va hokazo.

Tintuv qilinadigan xonada yashovchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar yashirilgan obyektlarning qaerda bo'lishini aniqlashga yordam beradi va bu borada mazkur shaxslarning ixtisosligiga ham katta ahamiyat berish zarur, shuningdek tintuv bo'ladigan joyda yashaydigan shaxslarning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni olinishi tintuvni qanday sharoitlarda o'tkazish kerakligi haqidagi tasavvur shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu shaxslarning qo'lida o'q otar qurol borligi yoki ular tomonidan jismoniy yoki namoyishkorona qarshilik ko'rsatish (shallaqilik, baqir-chaqir, shovqin solish) harakatlarini qilish xavfi bor yoki yo'qligiga ham e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, muayyan vaziyatda tintuv

o'tkazish paytida muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqa ma'lumotlar ham to'plash kerak.

2. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va tintuvni amalga oshirish rejasini tuzish. Olingan ma'lumotlarni tergovchi chuqur tahlil qilishi va unda quyidagilarni belgilab olishi zarur: a) tintuv o'tkazish uchun qulay vaqt (tintuvni muvaffaqiyatli o'tkazilishi bilan bog'liq vaqt va kun belgilanadi va qidiriladigan obyektlarni tez topish uchun qulay sharoitlar tayyorlanadi va hokazo); b) tintuvga chiqadigan guruhning tarkibi to'g'risida; v) tintuvni o'tkazishda talab qilinadigan texnik va texnik-kriminalistik vositalarni aniqlashtirish.

Tintuvni o'tkazish uchun zarur ma'lumotlar tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi surishtiruv organlari tomonidan o'z tashabbusi yoki tergovchining topshirig'iga binoan olinishi mumkin. Shu bilan birga tezkor-qidiruv faoliyati natijasida olingan ma'lumotlarni ovoza bo'lmasligi uchun tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab qilinadi.

3. Tintuvni boshlash uchun tashkiliy harakatlarni bajarish, ya'ni joyga bildirmasdan kelish (hech kimni e'tiborini tortmasdan va shubha uyg'otmasdan), tintuv joyiga tutash joylarda tashqi postlarni qo'yish maqsadga muvofiq, (chunki qidirilayotgan shaxslar yashirin yo'llar orqali tintuv joyidan qochishga harakat qilishlari mumkin), tintuv ishtirokchilari belgilangan joylarni egallashlarini ta'minlash, tintuvga to'sqinlik qiluvchi boshqa holatlarni bartaraf etish va h.k.

Olib qo'yish va tintuv bayonnomasini rasmiylashtirish xususiyatlari. Bayonnomada narsa va hujjatlarning aynan qaerda va qanday sharoitda topilganligi, ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki majburiy ravishda olinganligi ko'rsatilishi lozim. Barcha olingan narsa va hujjatlar bayonnomada birma-bir qayd qilinib, ularning miqdori, o'lchovi, og'irligi, har qaysisining o'ziga xos belgilari ko'rsatilishi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralishi va muhrlanishi lozim.

Olib qo'yish yoki tintuv vaqtida izlanayotgan narsa va hujjatlarni yo'q qilishga yoki yashirishga urinish hollari sodir bo'lgan taqdirda, bu hol surishtiruvchi yoki tergovchi tomonidan ko'rilgan choralar ham ko'rsatilib bayonnomada aks ettirilishi lozim. Shuningdek, bayonnoma qachon va qaerda tuzilganligi; tintuv (olib qo'yish)ning boshlanish va yakunlanish vaqti; tintuv (olib qo'yish)ni o'tkazgan mansabdor shaxsning lavozimi, unvoni, FIO; xolislarning familiyalari, ismi, sharifi, turar joyi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar; tergov harakatida ishtirok etgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar – ularning protsessual maqomi, familiyasi, ismi, otasining ismi; kimning qaroriga (uning nomlanishi,

sanasi, kim tomonidan sanksiya berilganligi) va JPKning qaysi moddalariga asosan tergov harakati o'tkazilganligi; tergov harakatining maqsadi va qanday qimmatbaho narsalar, hujjatlar va predmetlarni topilishi ko'rsatilishi va olib qo'yilishi qayd etilishi; ishtirokchilarning huquq, majburiyatlari va javobgarligi to'g'risida tushuntirilganligi; ishtirokchilarga texnik vositalarni qo'llanilishi to'g'risida ogohlantirilganligi, kim va qanday vositalar qo'llanilganligi ko'rsatilishi kerak. Bular tasdiqlovchi ishtirokchilarning imzolari qayd etilgan bo'lishi zarur.

Bayonnomaning tavsif qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

– tintuv (olib qo'yish) to'g'risidagi qarorni o'qib eshittirilganligi;
– tintuv qilinadigan joyning egasidan uni ixtiyoriy ravishda jinoyat ishi bo'yicha ahamiyatga ega bo'lgan predmetlar, hujjatlar va qimmatbaho narsalarni taqdim etilishini so'raganligi;

– qidirilayotgan obyektlarni ixtiyoriy berilganligi yoki majburiy ravishda topib olinganligi;

– obyektlar qaerda topilib, qanday holatda bo'lganligi;

– obyektlarni yashirilgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar;

– obyektlarni aniqlanishida qanday vositalar qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar va tergov harakatining jarayoni va natijalarini qayd etilishi;

– qanday xonadon va yopilgan xonalar majburiy ochilganligi, qanday sabablarga ko'ra ularni majburiy ochish harakatlari o'tkazilganligi, ular qanday qilib ochilganligi, tintuv qilinayotgan shaxs shunda qarshilik ko'rsatgani yoki ko'rsatmagani qayd etiladi;

– qidirib topilgan obyektlar ustidan bo'lgan izlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

– topilgan obyektlarni xolislariga namoyish qilish harakatlari;

– saqlanishi taqiqlangan narslarning borligi yoki yo'qligi;

– topilgan obyektlarning o'ziga xos alomatlari, belgilari (tashqi ko'rinishi, rekvizitlari va hujjatlarning mazmuni, predmetlarning nomi, soni, vazni, hajmi, kattaligi, holati, nuqsonlari, qadoqlanganlik darajasi, markirovkasi, tovar belgilarining borligi va hokazo), qadoqlash usullari. Obyektlarning belgilari noaniq bo'lsa ularni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, masalan «gavhar ko'zli tilla uzuk» o'rniga «sariq rangli shaffof toshli uzuk» deb yozilsa to'g'ri bo'ladi, chunki keyinchalik tegishli mutaxassis uning aniq belgilarini tergovga belgilab beradi. Bu obyektlarni almashtirib qo'yilganligi to'g'risida shikoyatlar bo'lmasligi uchun ularni tegishli ravishda qadoqlab, mustahkam qadoq birkalarini o'rnatib, ularning ustida xolislar va tergovchining imzosi va muhri qo'yilgan bo'lishi shart;

– tergov harakatining boshlanishi yoki yakunlanishi paytida kimdan qanday shikoyat, arizalar tushganligi ko‘rsatilishi lozim;

– bayonnomaning yakunlovchi qismida bu hujjat bilan ishtirokchilarning tanishganligi va bo‘lib o‘tgan barcha harakatlar va ularning natijalarini tasdiqlovchi imzolar bilan yakunlanishi lozim;

– kimdan qanday ariza va shikoyat tushganligi va bu shaxslarning imzosi bo‘lishi shart, shundan so‘ng tergovchining imzosi qo‘yiladi va tintuv qilingan shaxsga tintuv bayonnomasining nusxasi berilganligi to‘g‘risidagi imzosi bo‘lishi lozim.

Ekspertiza mustaqil tergov harakati sifatida protsessual qoidalar talablariga mos ravishda o‘tkazilishi shart. Ekspertiza jinoyat ishi qo‘zg‘atilmasdan oldin ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza tayinlash uchun avvalo asos bo‘lishi zarur. Ushbu asos protsessual va tergov harakatlari natijasida olingan ma‘lumotlarni maxsus tekshiruv o‘tkazish orqali aniqlashtirish zarurligida ifodalanadi. Bunday zaruratning mavjudligi ekspertiza tayinlash haqidagi qaror (ajrim)da bayon etilishi orqali ekspert tomonidan tekshirish o‘tkazish majburiyati yuzaga keladi. Ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror (ajrim)da, JPK 180-moddasida belgilanganidek, ekspertiza tayinlash uchun asos bo‘lgan holatlar, yuborilayotgan ashyolar va boshqa obyektlar, ushbu obyektlarning qachon, qaerda va qaysi holatda topilganligi va olinganligi, obyekt sifatida jinoyat (tergovga qadar tekshiruv) ishi materiallari taqdim etilayotganda ekspert xulosasi asoslanishi kerak bo‘lgan ishdagi materiallar, ya‘ni tushuntirish xatlari, so‘roq va ko‘zdan kechirish bayonnomalari hamda ularning ilovalari, fotosurat va chizmalar, hal etish uchun qo‘yilayotgan savollar, ekspertizani o‘tkazuvchi muassasa yoki ekspertning familiyasi ko‘rsatilishi kerak. Ekspertiza tayinlash haqidagi qarorda ekspertning familiyasi ko‘rsatilayotgan bo‘lsa, ekspertning muomala layoqatiga egaligi, qasddan sodir etilgan jinoyati uchun sudlanganlik holati (JPK 174-modda), shuningdek JPK 76, 78-moddalarda belgilangan holatlar yo‘qligi tekshirilishi shart. Shuningdek, qarorda ekspert huquq va majburiyatlari tushuntirilganligi hamda javobgarlik haqida ogohlantirilganligi haqidagi qaydlar yozilishi mumkin. Ekspertiza tayinlayotganda bu haqda qaror (ajrim) chiqarayotgan mas‘ul shaxs ekspert bilan maslahatlashishi mumkin.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Tergov harakatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Tergov harakatlari tizimi va turlarini sanab bering.
3. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari deganda nimani tushunasiz?

4. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini sanab bering.
5. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarining surishtiruv faoliyatidagi ahamiyati nimadan iborat?
6. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakati sifatida hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish xususiyatlarini aytib bering.
7. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakati sifatida so‘roq qilish xususiyatlarini aytib bering.
8. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakati sifatida ekspertiza tayinlash va o‘tkazish xususiyatlarini aytib bering.
9. Kechiktirib bo‘lmas tergov harakati sifatida tintuv yoki olib qo‘yish o‘tkazish xususiyatlarini aytib bering.
10. Boshqa tergov harakatlarini kechiktirib bo‘lmas ravishda o‘tkazish o‘tkazish xususiyatlarini aytib bering.

VI bob. SURISHTIRUVNI TAMOMLASH

«Surishtiruvni tamomlash» tushunchasi. Surishtiruvni tamomlash asoslari va turlari

Surishtiruvni tamomlash deganda jinoyat haqidagi xabarni tekshirish natijasida to'plangan hujjatlar mazmuniga ko'ra mazkur materiallarni hal qilish, ya'ni jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoki qo'zg'atilgan ish bo'yicha kechiktirib tergov harakatlarini o'tkazib, muddat tugashi bilan yoki mavjud asoslarga ko'ra muddat tugamasdan jinoyat ishini tergovchi yoki prokurorga o'tkazish jarayoni tushuniladi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 342-moddasi surishtiruvni tamomlashga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra surishtiruv organlarining faoliyati jinoyat-protsessual va tezkor qidiruv funksiyalarini bajarishga qaratilgan. Surishtiruv organi birinchi turdagi faoliyat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilganidan keyin kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini bajarib, belgilangan muddatda ishni tergovchiga oshiradi yoki JPKda nazarda tutilgan qarorlardan birini qabul qilishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga binoan, surishtiruv organlarining faoliyatiga ancha aniqlik kiritildi, ya'ni ushbu kodeksning 345-modasida «Barcha ishlar yuzasidan dastlabki tergov o'tkazish shart» deb belgilab qo'yildi. Bu esa ilgari amalda bo'lgan JPKlari bilan belgilab qo'yilgan surishtiruv organlari tomonidan jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni to'liq o'tkazgan holda ishni ayblov xulosasi bilan sudga yuborish, ishlarni sudga qadar bayonnoma shaklida yuritish tartiblariga chek qo'ydi. Ammo O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi Farmoni talablariga ko'ra, 2017-yilning iyunidan surishtiruv organiga ishni soddalashtirilgan tartibda, ya'ni ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan tergov organiga o'tkazmasdan ishni ayblov hujjati bilan sudga yuborish imkoni yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 339-moddasida surishtiruvning vazifalari belgilab qo'yilgan bo'lib, surishtiruv organlari quyidagi maqsadlarda kechiktirib bo'lmas tergov harakatlarini amalga oshiradilar:

- 1) jinoyatning oldini olish yoki unga yo'l qo'ymaslik;
- 2) dalillarni to'plash va saqlash;
- 3) jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushlab va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish;
- 4) jinoyat tufayli etkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash.

Surishtiruv organlari zimmasiga jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, JPKning qoidalariga muvofiq tekshirib

chiqilganidan so'ng jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnik vositalarni qo'llagan holda zarur choralarni ko'rish yuklatilgan.

Shuningdek ushbu moddada surishtiruvni olib borishga ma'sul bo'lgan Ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati, davlat bojxona xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari bu maqsadda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishga haqlidir deb ko'rsatib o'tilgan.

Surishtiruvchi yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarib, 10 sutkadan oshmagan muddatda O'zbekiston Respublikasi JPKning 342-moddasida belgilab qo'yilgan tartibda surishtiruvni tamomlashi lozim.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 342-moddasining 1-qismiga ko'ra surishtiruvni tamomlash turlari quyidagilar:

1) jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergovni davom ettirish uchun ishni tergovchiga o'tkazish haqida qaror chiqarish bilan;

2) ishni taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to'g'risidagi qaror bilan;

3) amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to'g'risida taqdimnoma bilan prokurorga yuborish orqali.

Bundan tashqari, surishtiruv hali jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan turib surishtiruv harakatlari olib borilayotgan holatlar yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi qaror chiqarish yoki amnistiya aktini qo'llab ish qo'zg'atishni rad etish uchun sudga yuborish bilan tamomlanadi.

JPKning 342-moddasining 2-qismida surishtiruvchi qanday hollarda surishtiruv uchun belgilangan 10 kunlik muddati o'tishini kutmasdan, jinoyat ishini tergovchiga yoki prokurorga o'tkazish lozimligi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 342-moddasining 2-qismiga ko'ra surishtiruvchi quyidagi hollarda surishtiruv muddati o'tishini kutmasdan ishni darhol tergovchi yoki prokurorga o'tkazishi zarur:

1) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat aniqlangan bo'lsa;

2) gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yoki muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;

3) ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa;

4) tergovchi ishning o'z yurituviga berilishini talab qilgan bo'lsa.

Bulardan tashqari, surishtiruvni tamomlashga quyidagilar asos bo'ladi:

5) jinoyat ishi qo‘zg‘atishni rad etish asoslari mavjudligi;

6) surishtiruv muddatining tugashi;

Jinoyat ishini tomonlarni yarashganligi munosabati bilan ko‘rib chiqish uchun sudga yuborish haqida qaror bilan yoki shaxsga amnistiya aktini qo‘llagan holda jinoya ishini tugatish masalasini hal etish yuborilayotgan hollarda bu haqda manfaatdor tomonlarga xabar berilishi lozim.

Surishtiruvni muddatidan oldin tamomlash asoslari va protsessual tartibi

Surishtiruvchi O‘zbekiston Respublikasi JPKning 342-moddasining 2-qismiga muvofiq surishtiruv yuritish muddati o‘tishini kutmasdan ishni darhol tergovchiga yoki prokurorga o‘tkazishi lozim, bosharti:

1) og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat aniqlangan bo‘lsa;

2) gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo‘lsa;

3) ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo‘lsa;

4) tergovchi ishning o‘z yurituviga berilishini talab qilgan bo‘lsa.

Ushbu bandlarni har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1) og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat aniqlangan bo‘lsa -

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 15-moddasining to‘rtinchi va beshinchi qismida og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiruvchi jinoyatlar kursatilgan bo‘lib, unga muvofiq:

a) og‘ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda besh yildan ortiq lekin o‘n yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

b) o‘ta og‘ir jinoyatlarga esa, qasddan sodir etilib, qonunda o‘n yildan ortiq muddatga yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

Demak, surishtiruvni olib borish jarayonida, to‘plangan dalillarga ko‘ra sodir etilgan qilmish og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyat etilganligi ma‘lum bo‘lib qolgan taqdirda, surishtiruvchi surishtiruv davom ettirishga haqli emas.

2) gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki muayyan shaxsni ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo‘lsa –

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual Kodeksining 242-moddasida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashning asoslari ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu modda quyidagi mazmunda, ya‘ni:

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish Jinoyat kodeksida uch yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir hamda ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun Jinoyat kodeksida besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha qo'llaniladi.

Alohida hollarda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan qasddan sodir etilgan jinoyatlarga doir, shuningdek, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilib, buning uchun besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha quyidagi holatlardan biri mavjud bo'lgan taqdirda:

ayblanuvchi, sudlanuvchi tergov va suddan yashiringanida;

ushlab turilgan gumon qilinuvchining shaxsi aniqlanmaganida;

ilgari qo'llanilgan ehtiyot chorasi ayblanuvchi, sudlanuvchi tomonidan buzilganida;

ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi, sudlanuvchi O'zbekiston Respublikasida doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganida;

jinoyat qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash davrida sodir etilganida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu modda talabidan kelib chiqib, jinoyat sodir etganligi sababli jinoyat ishiga jalb qilingan shaxsga «Qamoqqa olish» tarzidagi ehtiyot chorasi tanlash zaruriyati tug'ilganda, surishtiruv tamomlanib, jinoyat ishi tergov organiga yuborilishi lozim.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeks mazkur moddasi ikkinchi qismi 2-bandi talablariga muvofiq agar surishtiruvchi tomonidan shaxsni aydlanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa ham jinoyat ishi tergov organi ixtiyoriga o'tkazilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 361-moddasiga asosan shaxsni jinoyat ishiga ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish haqida tergovchi va prokuror qaror chiqaradi, unda 1) ayblanuvchi tariqasida jalb etilayotgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan kuni, oyi va yili; 2) ayblovning mazmuni, ya'ni shaxsning zimmasiga qo'yilayotgan jinoyat hodisasi, u sodir etilgan joy, vaqt va boshqa muhim holatlar bayoni; 3) Jinoyat kodeksining ushbu jinoyatni nazarda tutgan moddasi, qismi, bandi aks ettirilishi, shuningdek Jinoyat kodeksining turli moddalari, qismlari yoki bandlarida nazarda tutilgan bir necha jinoyatni sodir etishda ayblaganda, bu jinoyatlardan har birining mohiyati va

yuridik tavsifi alohida ko'rsatilishi lozim. Qarorning xulosa qismida mazkur shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risida to'xtamga kelinganligi ifodalanishi kerak.

3) *ishni tugatish uchun asoslar aniqlangan bo'lsa* –

JPKning 373-moddasi jinoyat ishini tugatish asoslari sanab o'tilgan, unga ko'ra jinoyat ishi JPKning 83 va 84-moddalarida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda tugatiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 83-moddasi – Reabilitatsiya uchun asoslar.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi quyidagi hollarda aybsiz deb topiladi va reabilitatsiya etilishi lozim:

1) ish qo'zg'atilgan va tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilgan ish bo'yicha jinoiy hodisa yuz bermagan bo'lsa;

2) uning qilmishida jinoyat tarkibi bo'lmasa;

3) uning sodir etilgan jinoyatga daxli bo'lmasa.

84-modda. Ayblilik to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishini tugatish uchun asoslar

Quyidagi hollarda shaxsning jinoyat sodir etilishida aybliligi to'g'risidagi masalani hal qilmay turib jinoyat ishi tugatilishi lozim, basharti:

1) shaxsni javobgarlikka tortish muddati o'tgan bo'lsa;

2) e'lon qilingan amnistiya akti sodir etilgan jinoyat yoki shaxsga daxldor bo'lsa;

3) ayblanuvchi, sudlanuvchi vafot etgan bo'lsa;

4) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bo'lsa;

5) shaxsga nisbatan aynan shu ayblov bo'yicha ishni tugatish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan ajrimi (qarori) yoki vakolatli mansabdor shaxsning jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish yoxud ishni tugatish haqida bekor qilinmagan qarori bo'lsa;

6) ish faqat jabrlanuvchining shikoyati bilan qo'zg'atiladigan hollarda uning shikoyati bo'lmasa, JPK 325-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

7) shaxs ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan paytda jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan bo'lsa;

8) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida shaxsning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi tufayli javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan bo'lsa.

Shaxsga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llash, tomonlarni yarashganligi munosabati bilan, hamda shaxsga amnistiya

aktini qoʻllagan holda jinoyat ishini tugatish tartiblari Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 61-63 boblarida koʻrsatib oʻtilgan.

Jinoyat ishi quyidagi hollarda shaxsning roziligi bilan uning aybliligi haqidagi masalani hal qilmay turib tugatilishi mumkin, basharti:

1) ishni tergov qilish yoki sudga koʻrib chiqish paytiga kelib, qilmish ijtimoiy xavflilik xususiyatini yoʻqotgan yoxud vaziyat oʻzgarishi oqibatida bu shaxs ijtimoiy jihatdan xavfli boʻlmay qolgan deb eʼtirof etilsa;

2) ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan yoki uncha ogʻir boʻlmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs aybini boʻyniga olish toʻgʻrisida arz qilgan, chin koʻngildan pushaymon boʻlgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan boʻlsa;

3) sodir etilgan qilmishning xususiyatini, birinchi marta ijtimoiy xavfi katta boʻlmagan jinoyat sodir etganning shaxsini hisobga olib, materiallarni voyaga etmaganlar ishlari boʻyicha komissiyaga qarab chiqish uchun berish maqsadga muvofiq boʻlsa.

4) *Tergovchi ishning oʻz yurituviga berilishini talab qilgan boʻlsa* – Oʻzbekiston Respublikasi JPKda qanday hollarda tergovchi jinoyat ishini oʻz yurituviga berishni talab qilishi belgilab qoʻyilmagan. Shunday ekani tergovchi biror-bir zaruriyat tufayli jinoyat ishini unga berilishini ogʻzaki yoki yozma ravishda talb qilgan taqdirda surishtiruvchi jinoyat ishini tergovchiga oʻtkazishi lozim.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan har qanday holatlarda ham surishtiruvchi ishni tergovchiga oʻtkazish haqida qaror chiqaradi va qarorda asoslardan tegishlilarini koʻrsatib oʻtishi lozim.

Surishtiruvni taraflarning yarashuvi yoki amnistiya aktiga asosan tamomlashning protsessual tartibi

Oʻzbekiston Respublikasida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlaridan biri sud-huquq sohasini isloh etish tashkil qiladi. Bu yoʻnalishdagi islohotlarning asosiy mazmunini inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida tan olish, jazo choralarini liberalashtirish, davlat organlari xalq irodasini ifoda etishi, sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga buysinishi, jamiyatda shaxs erkinligi prinsiplaridan kelib chiqadi.

Jinoyat-protsessini liberallashtirish tarixiy shart-sharoit bilan uzviy bogʻliq. Inson taqdirini va haq-huquqlarini belgilovchi qonunlarni takomillashtirish va uni inson manfaatlarini himoya qilishga qaratish liberallashtirishning asosiy maqsadi xisoblanadi.

Umuman jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida bir qator sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Jumladan, jinoyat qonunidagi jazo choralari engillashtirildi, o'lim jazosini bekor qilindi, shuningdek 2001-yil 29-avgustda «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida» qonun qabul qilindi. Bu qonunning qabul qilinishi bilan Jinoyat kodeksiga yangi 66¹-modda (Yarashganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish) va Jinoyat-protsessual kodeksga 62-bob (Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish) kiritildi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrdagi O'RQ-193-son Qonuniga muvofiq Jinoyat-protsessual kodeksga yangi 63-bob (Ishni sudga qadar yuritish bosqichida amnistiya aktini qo'llash) kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, «...jabrlanuvchi bilan yarashuv to'g'risidagi alohida toifadagi ishlarni yuritish tartibining joriy etilishi jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishda muhim qadam bo'ldi. Buning zamirida sharqona qadriyatlar, milliy urf-odatlar, adolat hamda kechirimlik va albatta qonun ustuvorligi mavjud».

Yarashuv to'g'risidagi ishlar JPKning 62-bobi (Yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish)da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

JPKning 583-moddasiga asosan yarashuv to'g'risidagi ariza jabrlanuvchi (fuqaroviy da'vogar) yoxud uning qonuniy vakili tomonidan surishtiruv va dastlabki tergovning, shuningdek sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud maslahatxonaga kirishidan oldin berilishi mumkin.

Arizada etkazilgan ziyon bartaraf etilgani, shuningdek yarashilganligi munosabati bilan jinoyat ishi bo'yicha ish yuritilishini tugatish to'g'risidagi iltimos ko'rsatilgan bo'lishi shart.

Agar yarashuv to'g'risidagi ariza ish birinchi instansiya sudida sud muhokamasidan o'tkazilayotganda berilgan bo'lsa, sud uni darhol ko'rib chiqishga kirishadi.

Agar ish bo'yicha bir necha jabrlanuvchi bo'lsa, faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuvga erishilgan taqdirda, yarashuv to'g'risidagi ishni yuritish mumkin.

Arizani qabul qilish paytida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud jabrlanuvchiga yoki uning qonuniy vakiliga sud yarashuvni tasdiqlasa, u mazkur ish bo'yicha ish yuritishni qayta tiklash to'g'risida iltimosnoma berish huquqini yo'qotishini tushuntirishi shart.

JPKning 584-moddasiga asosan jinoyat ishini sudga yuborish tartibi qayd etilgan. Unga asosan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jabrlanuvchining (fuqaroviy da'vogarning) yoki uning qonuniy vakilining yarashuv to'g'risidagi arizasini olgach, etti sutkadan ortiq bo'lmagan muddatda gumon qilinuvchining, ayblanuvchining roziligi bilan ishni sudga yuborish to'g'risida qaror chiqaradi.

Qarorning tavsif qismida quyidagilar ko'rsatiladi: jinoyat ishi qo'zg'atilishining asoslari, ishda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etishga jalb qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, ular ayblanayotgan qilmishlar va ularga nisbatan qo'llanilgan ehtiyot choralari, shuningdek yarashuv to'g'risidagi arizaning mazmuni hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchining arizaga munosabati.

Qarorning qaror qismida:

- 1) ishni sudga yuborish to'g'risidagi;
- 2) ehtiyot chorasi to'g'risidagi, shuningdek fuqaroviy da'voni ta'minlash choralari to'g'risidagi;
- 3) ashyoviy dalillar to'g'risidagi qaror ko'rsatiladi.

Agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida ishtirok etish uchun bir necha shaxs jalb qilingan bo'lib, barchasi bilan ham yarashuvga erishilgan bo'lmasa, yarashuvga erishilmagan gumon qilinuvchilarga, ayblanuvchilarga taalluqli materiallar ajratiladi va ular bo'yicha ish yuritish umumiy qoidalarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi, bu haqda qarorda ko'rsatiladi.

Ish qaror chiqarilganidan keyin uch sutka ichida prokurorning roziligi bilan sudga yuboriladi.

Surishtiruv tamomlanganligi haqida jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar xabardor qilinishi mumkin.

Jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv olib borish davrida amnistiya aktini qo'llash, Amnistiya aktini qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, surishtiruvchi tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini qaysi shaxsga nisbatan amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi masala ko'yilayotgan bo'lsa, o'sha shaxsning, gumon qilinuvchining arizasi hamda amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish haqida yoxud jinoyat ishini tugatish to'g'risida sudga iltimosnoma kiritish haqidagi taqdimnoma bilan prokurorga yuboradi.

Agar bir nechta shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo'yicha ulardan loaqal bittasi amnistiya aktining ta'sir doirasiga tushsa, unga nisbatan jinoyat ishining qismi amnistiya aktini qo'llash to'g'risida sudga iltimosnoma

kiritish uchun JPKning 332-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan alohida ish yuritishga ajratilishi mumkin.

Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza tergovga qadar tekshiruv qaysi shaxsga nisbatan o'tkazilayotgan bo'lsa, usha shaxs yoki gumon qilinuvchi tomonidan, tegishincha tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruvning yoki surishtiruvning va istalgan bosqichida berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 589-moddasida «Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani sudga kiritish to'g'risidagi masalaning prokuror tomonidan ko'rib chiqish tartibi» ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra:

Prokuror surishtiruvchining, tergovchining taqdimnomasi asosliligini tekshirib unga rozi bo'lgan taqdirda, amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish haqidagi iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoxud jinoyat ishi bilan birga sudga yuboradi. Prokuror iltimosnomani tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallari yoki jinoyat ishi unga kelib tushgan kundan e'tiboran besh sutkadan kechiktirmay sudga yuborishi lozim.

Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi yoki jinoyat ishini tugatish to'g'risidagi iltimosnomani sudga yuborish uchun asoslar bo'lmagan taqdirda, prokuror tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchiga yoxud tergovchiga qaytarish haqida asoslantirilgan qaror chiqaradi. Prokurorning qarori ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Surishtiruvni tamomlash deganda nimani tushunasiz?
2. Surishtiruvni tamomlash asoslarini sanab bering
3. Surishtiruvni tamomlashning qanday turlarini bilasiz?
4. Surishtiruvni muddatidan oldin tamomlash asoslarini sanab bering.
5. Surishtiruvni tamomlashning protsessual tartibi qanday?
6. Surishtiruvni taraflarning yarashuvi asosida tamomlash shartlari nimalardan iborat?
7. Surishtiruvni taraflarning yarashuvi asosida tamomlash tartibi qanday?
8. Surishtiruvni amnistiya aktiga asosan tamomlashning shartlarini aytib bering.
9. Surishtiruvni amnistiya aktiga asosan tamomlashning protsessual tartibini tushuntiring.

VII bob. SURISHTIRUVCHI TOMONIDAN TERGOVCHI TOPSHIRIQLARINING BAJARILISHI

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish vazifasining mazmuni va ahamiyati

Sodir bo'lgan jinoyatlarni ochish va tergov harakatlarini o'tkazishda, tergovchi surishtiruv organlariga topshiriqlar, ko'rsatmalar berishi va ularning bajarilishini talab qilish huquqiga ega.

Tergovchi o'z ish yurituvida bo'lgan jinoyat ishlari, shuningdek tekshiruvdagi jinoyat haqidagi ariza va boshqa xabarlar bo'yicha surishtiruv organiga tergov harakatlarini va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish to'g'risida topshiriqlar berishga haqli. Surishtiruvchi tomonidan bu kabi topshiriqlarni bajarish majburiyati Jinoyat-protsessual kodeksi 39-moddasi talablaridan kelib chiqadi.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish majburiyati jinoyat-protsessining vazifalarini samarali ijro etishga sharoit yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, sudga qadar ish yurituvida jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi kuchlarni bir maqsad sari birlashtirishga va ular faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish deganda, tergovchi tomonidan yozma yoki og'zaki shaklda, jinoyat-protsessual qonunga asosan o'z yurituvdagi jinoyat ishidan kelib chiqqan holda beriladigan, dastlabki tergovning vazifalari ijrosiga qaratilgan, jinoyatni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh etish maqsadida muayyan tergov harakatini bajarish, tezkor-qidiruv tadbirini o'tkazish yoki tergov harakatini bajarishga ko'maklashish haqidagi topshiriqni belgilangan muddatda ado etish, amalga oshirish va uning natijalari haqida tergovchiga xabar qilish tushuniladi.

Tergovchining o'z ish yurituvida bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv organlariga beradigan topshiriqlari, ko'rsatmalari va talablarini protsessual jihatdan quyidagilarga ajratish mumkin:

- 1) tergov harakatlarini o'tkazish haqidagi;
- 2) tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish haqidagi;
- 3) tergov harakatini o'tkazishga ko'maklashish haqidagi.

Tergovchining topshiriq, ko'rsatma va talablari yozma va og'zaki shakllarda bo'lishi mumkin. Shu o'rinda topshiriq, ko'rsatma va talabning mazmunini yoritib o'tish, ularni bir biridan ajratgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilishicha, *topshiriq* deganda, kimsaning zimmasiga yuklatilgan ish, vazifa ma‘nosi tushuniladi. *Ko‘rsatma* deganda, qanday harakat qilish, ishlash lozimligini ko‘rsatuvchi yo‘l-yo‘riq; qo‘llanma ma‘nosi tushuniladi. *Talab* deganda esa qat‘iyat bilan qilingan so‘rov, iltimos yoki bajarilishi shart va taqozo etiladigan narsa ma‘nosi tushuniladi.

Shunga ko‘ra tergovchining topshirig‘i, tergovchining ko‘rsatmasi va tergovchining talabi mazmuni ham bir biridan farq qiladi.

Tergovchining topshirig‘i deganda, surishtiruvchi zimmasiga yuklanadigan, asosan natijaga erishish, aniq maqsadga qaratilgan umumiy mazmundagi chora-tadbirlarni amalga oshirish aks etgan yozma hujjat yoki og‘zaki munosabat (qaror) tushuniladi. Masalan, jinoyatni ochish yoki qidiruvdagi shaxsni topish uchun kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazish haqidagi topshiriqlar.

Tergovchining ko‘rsatmasi deganda, muayyan tergov harakati yoki tezkor-qidiruv tadbirini aniq ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riq asosida bajarish zarurligi aks etgan hujjat yoki og‘zaki qaror tushuniladi. Masalan, aniq manzilda tintuv, ko‘zdan kechirish, aniq shaxslarni guvoh tariqasida so‘roq qilish tergov harakatlarini muayyan izchillikda amalga oshirish haqidagi ko‘rsatmalar.

Tergovchining talabi deganda, muayyan harakat yoki shartni bajarish qat‘iy so‘ralgan hujjat yoki og‘zaki qaror tushuniladi. Masalan, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishga ko‘maklashish yoki mavjud ma‘lumotlarni taqdim etish haqidagi talab, shuningdek yo‘l qo‘yilgan yoki aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish haqidagi talab.

Tergovchi tergov harakatlarini o‘tkazish haqida surishtiruv organlariga topshiriq berishiga ushbu tergov harakatini tergovchining shaxsan o‘zi o‘tkazish imkoniyati etarli bo‘lmagan hollarda zarurat seziladi.

Ichki ishlar organlari amaliy faoliyatida bu kabi topshiriqlar ko‘zdan kechirish, tintuv, olib quyish, mol-mulkni xatlash, ekspertiza uchun namunalar olish va boshqa tergov harakatlarini o‘tkazish uchun topshiriqlar beradi. Bunday hollarda tergovchi JPKda talab qilinadigan hollarda qaror chiqarishi shart.

Tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha tergovchi surishtiruv organiga jinoyat sodir etgan shaxsni topish, ayblanuvchining yashiringan joyini aniqlash, uni ushlash choralari ko‘rish hamda jabrlanuvchilarni, guvohlarni, ashyoviy dalillar va boshqa surishtiruv ishlarini bajarish uchun topshiriqlar beradi.

Ayrim tergov harakatlarini o'tkazish ba'zida katta kuch va ko'p vaqt talab qiladi. Bu kabi vaziyatlarda tergovchi yordam olish maqsadida surishtiruvchilardan ushbu tergov harakatlarini o'tkazishda ko'maklashishni talab qilishi mumkin.

Umuman olganda surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish vazifasi jinoyat-protsessida muayyan ahamiyat kasb etadi. Jumladan, jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa fosh etilmagan jinoyatlarni ochish, jinoyat sodir etgan shaxsni aniqlash kompleks faoliyat ekanligi, bir vaqtda bir necha organlar tomonidan amalga oshirilishi, ushbu organlar o'zaro muvofiqlashgan va hamkorlikda ishni tashkil etishi zarurligi, shuningdek faoliyatning samaradorligini ta'minlash uchun ham mazkur vazifa surishtiruvchining zimmasiga jinoyat-protsessual qonunchilikda majburiyat sifatida belgilangan.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish vazifasining protsessual ahamiyati quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

1) jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish va samarali tashkil etish;

2) jinoyatlarni tez va to'la ochish, aybdorlarni fosh etish samaradorligini ta'minlash;

3) jinoyat ishlari bo'yicha sudga qadar ish yuritishda tergovchi va surishtiruvchilarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish;

4) jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi organlar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni ta'minlash;

5) tergovchining jinoyatlarni tergov qilishdagi rahbarligi va mas'uliyatli o'ringa egaligini ta'minlash;

6) jinoyat-protsessining vazifalarini tezkor-qidiruv organlarining kuch, vosita va usullaridan foydalangan holda amalga oshirish imkoniyatini yaratish;

7) tergovchi va surishtiruv organlari zimmasidagi umumiy vazifani bajarishda izchillik, tashkiliylik, tezkorlik, samarali boshqaruvni ta'minlash va boshqalar.

Shu bilan birga qayd etish joizki, surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish vazifasi jinoyat-protsessining ayblov, tergov, jinoyatlarning oldini olish va boshqa funksiyalari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish majburiyligi, shartlari, tartibi va muddatlari

O'zbekiston Respublikasi JPKning 343-moddasida tergovchining surishtiruv organlariga tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishni topshirishi, topshiriqni bajarish tartibi va muddatlari ko'rsatilgan.

Tergovchining topshirig'i surishtiruv organi boshlig'iga yozma ravishda beriladi. Bunda surishtiruv organi boshlig'i tergovchining topshirig'ini ijro etish uchun surishtiruv xodimiga topshiradi va uni nazorat qilib boradi.

Og'zaki beriladigan topshiriqlar amaliyotda surishtiruvchi tergov-tezkor guruh tarkibida bo'lganda, jinoyat ishi bo'yicha tuzilgan reja asosida beriladi va uning ijrosi tergov-tezkor guruhi rahbari tomonidan nazorat qilinadi.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish majburiyligi amaldagi qonun va boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan belgilangan. Jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksi 36, 39, 343, 347-moddalari talablariga ko'ra surishtiruvchi tergovchi tomonidan o'z ish yurituvidagi jinoyat ishi yuzasidan bergan topshiriq, ko'rsatma va talablarini bajarishi majburiyligi qayd etilgan. Topshiriqni ijro etish majburiyligi mazmunan tergovchi tomonidan qonun doirasida berilgan har bir topshiriq belgilangan muddatlarda hech qanday istisnosiz bajarilishi zarurligi, surishtiruvchi topshiriqni bajarishmasligi mumkin emasligi, shu bilan birga topshiriq bajarilganda ham ijro natijalari bilan birga, qo'shimcha to'plagan materiallarini ham taqdim etishi shart.

Agarda topshiriq o'z vaqtida bajarilmaydigan bo'lsa yoki ijroga to'sqinlik qiluvchi holatlar vujudga kelsa, yoxud muddat kamlik qilsa, surishtiruvchi bu haqda darhol tergovchini xabardor qilishi va uning ko'rsatmasiga asosan harakatlanishi shart.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish shartlari deganda tergovchi tomonidan belgilanadigan topshiriqda aks etgan harakat yoki tadbirni o'tkazishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan holatlar, harakatni bajarish usullari, ijro natijalarini taqdim etish oid tavsiyalar, umuman olganda harakatlanish yo'riqlari tushuniladi. Topshiriqni ijro etish shartlari surishtiruvchiga tergov harakati yoki tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda muayyan yo'nalish sifatida xizmat qiladi.

Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish tartibi va muddatlari deganda, tergovchining topshirig'ida bajarish talab etilayotgan harakatlar yoki tadbirlarni o'tkazish tartibiga oid amaldagi qonunda aks etmagan, tergovchi o'zi belgilaydigan topshiriq ijrosini osonlashtirish yoki samarali bo'lishiga xizmat qiladigan qo'shimcha qoidalar tushuniladi.

Surishtiruv organlariga berilgan topshiriqni bajarish muddati qonunda ko'rsatilmagan, ammo amaliyotda tergovchining o'z topshiriqlarini, ya'ni amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlar, tezkor-qidiruv tadbirlarining soni, amalga oshirish jarayoni uchun ketadigan vaqt va boshqa holatlarni hisobga olgan holda ma'xlum bir muddatni belgilaydi, misol uchun 10, 15, 20 sutkalik yoki bir oy. Muhimi surishtiruvchi topshiriqdagi ko'rsatilgan muddatda uni bajarish chorasini ko'rishi shart.

Ko'rsatilgan muddatda topshiriqni bajarishning imkoni bo'lmasa surishtiruvchi, topshiriq bergan tergovchidan muddatni uzaytirishni so'rashi mumkin. Bundan tashqari, surishtiruvchi tergovchidan topshiriq buyicha qo'shimcha ma'lumotlar so'rash, tergovchida mavjud ma'lumotlar bilan tanishish huquqiga ega.

Surishtiruv organi jinoyat ishi bo'yicha bergan topshiriqlari, ko'rsatmalari bajarilganligi haqida tergovchiga yozma ravishda javob berishi zarur.

Tergovchining topshirig'i bo'yicha o'tkazilgan tergov harakatlari natijasida to'plangan ma'lumotlar tergovchi tomonidan baholanadi va dalil sifatida e'tirof etilib ishga qo'shiladi.

Tergovchining jinoyat ishlari buyicha berilgan topshiriqlarini to'la, qonunga asoslangan va o'z vaqtida bajarilishida tergov va surishtiruv organlari rahbarlarining hamkorligi, o'zaro munosabatlari muhim o'rin tutadi.

Tergovchining topshiriqlarini bajarish natijalarini protsessual rasmiylashtirish tartibi

Tergovchining topshiriqlari, ko'rsatmalari surishtiruv organining boshlig'i nomiga yoziladi va kotibiyatda ro'yxatdan o'tkazilib surishtiruvchiga beriladi. Jinoyat ishlari buyicha tergovchining surishtiruv organlariga yuboradigan topshiriqlari, ko'rsatmalari Jinoyat-protsessual kodeksning va O'zbekiston Respublikasi IIV tomonidan qabul qilingan buyruqlar talablariga to'la mos holda bo'lishi kerak va uning ijrosi ham qonunga asoslangan bo'lishi lozim. Bu jinoyatni ochish, jinoyat sodir etgan

shaxsni aniqlash va uning aybini fosh etishda, dalillarni to'plash va haqiqatni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tergov amaliyotda ochilmagan jinoyatlar buyicha tergovchi tomonidan surishtiruv organlariga beriladigan topshiriqlar va ko'rsatmalar ko'pincha bir xil shaklda, o'xshash mazmunda bo'ladi, ushbu topshiriq va ko'rsatmalarning ijrosi ham qonunda belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

Tergovchining topshiriqlarini bajarish natijalari jinoyat-protsessual qonun talablari asosida rasmiylashtirilishi topshiriqlarni bajarishning zaruriy shartidir. Topshiriqlarni bajarish natijalarini rasmiylashtirish topshiriqda aks etgan muayyan tergov harakatini o'tkazish, uning jarayoni va natijalarini tegishli protsessual hujjatda (bayonnomada) qayd etish, o'tkazilgan tergov harakati natijasida olingan ashyolar, hujjatlar, namunalari Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan tartibda olib uralishi va muhrlanishini, olingan narsalar bayonnomada batafsil aks etishini ta'minlash va tergovchiga taqdim etishda ifodalanadi. Tergovchining topshiriqlarini bajarish natijalari tergov harakati bayonnomasi, qaror, rejalar, sxemalar, chizmalar, ma'lumotnomalar, audio-video yozuvlar, fotosuratlarida qayd etilishi mumkin. Rasmiylashtirishda eng ko'p qo'llaniladigan bayonnoma, ma'lumotnoma, qarorni rasmiylashtirish haqida kengroq yoritish orqali tergovchining topshiriqlarini bajarish natijalarini rasmiylashtirish xususiyatlarini bayon etish maqsadga muvofiq.

Qaror – sudga qadar ish yurituvi jarayonida chiqariladigan muayyan harakatni bajarish haqida vazifa yuklangan, harakatni bajarish asoslantirilgan protsessual hujjat. Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini o'rganish jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergov va surishtiruv davomida yuzaga keladigan masalalar yuzasidan (jinoyat ishini qo'zg'atish, ishni o'z yurituviga olish, ishni tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish, shaxsni jinoyat ishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ehtiyot chorasini tanlash, ekspertiza tayinlash, tintuv o'tkazish, olib qo'yish va boshqalar to'g'risida) oltmishdan ortiq turli qarorlar chiqarilishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Qaror uch qismdan iborat bo'ladi: kirish, tavsif-asoslantirish va xulosa.

Kirish qismida hujjat nomi, u tuzilgan joy va sana, uni kim (egallab turgan lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi va ismi-sharifi) va qaysi ish bo'yicha tuzganligi ko'rsatiladi.

Tavsif-asoslantirish qismi qarorda markaziy o'rin tutadi. Aynan unda nima aniqlanganligiga doir aniq holatlar keltiriladi; ushbu holatlardan qanday xulosa kelib chiqayotganligi ko'rsatiladi; birga olinganda

chiqarilgan qarorning asoslanganligi haqida fikr yuritish imkonini beradigan motivlar keltiriladi; shaxs ushbu qarorni chiqarayotganda asoslangan qonunga havola qilinadi.

Xulosa qismida chiqarilgan qaror bayon etiladi. Ushbu qaror uning kirish va tavsiflovchi qismidan mantiqan kelib chiqishi kerak. Xulosa qismida boshqa ko'rsatuvlar ham berilishi mumkin, masalan, ishning bundan keyingi yo'nalishi (jinoiyat ishi qo'zg'atish haqida qaror chiqarilganda), qarorning nusxasini ijro etish uchun yuborish haqida (ehtiyot chorasini tanlash haqidagi qarorda – qamoqqa olish uchun), qarorning nusxasini prokurorga yuborish haqida va b.

Qarorni uni chiqargan shaxs imzolaydi. U tergov yuritilayotgan tilda tuziladi va u taalluqli bo'lgan barcha fuqarolar hamda mansabdor shaxslar uchun majburiydir. Ba'zi qarorlar prokuror ruxsati (sanksiya)-dan so'ng yoki tasdiqlaganidan keyin yoxud roziligi olingandan so'ng-gina yuridik kuchga ega bo'ladi.

Bayonnoma – tergovchi yoki surishtiruvchi tergov harakatlarning tartibi va natijalarini qayd etadigan protsessual hujjat. Bayonnomani tergovchi yoki surishtiruvchi bajaradigan har bir protsessual harakatni amalga oshirish jarayoni va natijalarini ifodalaydigan protsessual hujjat deb ta'riflash ham mumkin. Jinoiyat-protsessual qonun hujjatlarida tergov harakatlarini o'tkazish bilan aloqador qirqdan ortiq bayonnomalarni tuzilishi haqida qoidalar belgilangan. Tergov harakatlarning xususiyatlaridan kelib chiqib bayonnomalarning uchta asosiy turi farqlanadi:

1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohni so'roq qilish va yuzlashtirish bayonnomalari;

2) ko'zdan kechirish, guvohlantirish, tintuv, olib qo'yish, ushlab turish, eksperiment o'tkazish vaqtida hamda tanib olish uchun ko'rsatish chog'ida aniqlangan dalillar tasdiqlanadigan bayonnomalar – dalillarning mustaqil manbai bo'ladi;

3) ba'zi bayonnomalar jinoiyat-protsessual qonun hujjatlarining bajarilganligini qayd etish uchun tuziladi. Ularga ayblanuvchining ekspertiza tayinlash haqidagi qaror bilan tanishtirilganligi haqidagi; korxonalar, muassasa, tashkilotlarning mansabdor shaxslariga jinoiyat tufayli ularga moddiy zarar etkazilgan bo'lsa, ular fuqarolik da'vosi qo'zg'atish huquqiga ega ekanliklari tushuntirilganligi haqidagi; yarashuv instituti yoki amnistiya akti mazmuni, shartlari va huquqiy oqibatlari tushuntirilganligi haqidagi; dastlabki tergov tamomlanganligi haqidagi; ayblanuvchiga yoki uning himoyachisiga ish materiallari tanishtirilganligi haqidagi bayonnomalar kiradi.

Bayonnomalarda tergov harakati bajarilgan joy va sana; ushbu harakat boshlangan va tamomlangan vaqt; bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, maxsus unvoni, familiyasi va ismi-sharifi; tergov harakatida ishtirok etgan har bir shaxsning familiyasi va ismi-sharifi, zarur hollarda esa – ularning manzili; tergov harakatining mazmuni va uni amalga oshirish chogʻida aniqlangan ish uchun muhim boʻlgan holatlar koʻrsatiladi.

Agar tergov davomida fotosuratga, kinoga olish, ovoz yoki videoyozuv usullaridan foydalanilgan yoki izlardan koʻchirmalar olingan boʻlsa, bayonnomada tegishli tergov harakatini amalga oshirish davomida qoʻllanilgan texnika vositalari, ulardan foydalanish sharoitlari, ushbu vositalar qaysi obyektlarga nisbatan qoʻllanilganligi koʻrsatiladi. Bayonnomada, shuningdek, tergov harakatini amalga oshirishda ishtirok etgan shaxslar texnika vositalarini qoʻllashdan avval bu toʻgʻrida xabardor qilinganliklari taʼkidlanishi kerak.

Bayonnomada u tergov harakatida ishtirok etgan barcha shaxslarga oʻqib eshittirilganligi yoki har bir ishtirokchiga uning mazmuni bilan shaxsan tanishish imkoni berilganligi; ularga bayonnomaga kiritilishi lozim boʻlgan fikr-mulohazalar bildirish huquqi tushuntirib berilganligi koʻrsatiladi. Ushbu hujjatni uning xususiyatidan kelib chiqib, tergovchi va tergov harakatida ishtirok etgan boshqa shaxslar (soʻroq qilingan shaxs, tarjimon, xolis va h.k.) imzolaydilar. Unga tergov davomida bajarilgan fotonegativlar va suratlar, diapozitivlar, fonogrammalar, videoyozuv kasseta yoki disklari, reja, chizma, qaydnoma, iz nusxalari va qoliplari ilova qilinadi.

Bayonnoma tergov harakati (masalan, soʻroq qilish) vaqtida yoki bevosita u tugaganidan keyin (masalan, tergov tamomlanganligi toʻgʻrisidagi va ayblanuvchi va uning himoyachisiga ish materiallari taqdim etilganligi haqidagi bayonnoma) tuziladi.

Tergov harakati qatnashchisi tergov harakati bayonnomasini imzolashdan bosh tortgan taqdirda bayonnomada bu qayd etiladi va buni tergov harakatini bajargan shaxs oʻz imzosi bilan tasdiqlaydi. Shaxsning imzolashdan voz kechishining sabablari haqidagi tushuntirishlari ham bayonnomaga yozib qoʻyiladi. Agar mazkur shaxslar jismoniy kamchiliklari tufayli bayonnomani imzolay olmasalar (soʻroq qilish bayonnoma-si bundan mustasno), bu toʻgʻrida yozib qoʻyiladi hamda tergovchi va xolislarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Bayonnoma qoʻlda yoki kompyuterda yoziladi. Tergov harakatlari toʻla qayd etilishini taʼminlash uchun stenografiya qoʻllanilishi mumkin.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etishi deganda nimani tushunasiz?
2. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etish vazifasining mazmunini tushuntiring.
3. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini ijro etishining ahamiyati nimalardan iborat?
4. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov va qidiruv harakatlari bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish majburiyligi deganda nimani tushunasiz?
5. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov va qidiruv harakatlari bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish, shartlariga nimalar kiradi?
6. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov va qidiruv harakatlari bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini ijro etish tartibi qanday?
7. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining tergov va qidiruv harakatlari bajarish to'g'risidagi topshiriqlarini qanday muddatda ijro etishi shart?
8. Surishtiruvchi tomonidan tergovchining topshiriqlarini bajarish natijalari qanday rasmiylashtiriladi?

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI.....	3
<i>I bob.</i> ICHKI ISHLAR ORGANLARINING SURISHTIRUV ORGANI SIFATIDA MAQOMI.....	5
<i>II bob.</i> JINOYAT HAQIDAGI ARIZA VA XABARLARNI QABUL QILISH, KO‘RIB CHIQISH VA HAL ETISH TARTIBI	26
<i>III bob.</i> TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV O‘TKAZISH TARTIBI. SURISHTIRUVCHINING TERGOV-TEZKOR GURUHI TARKIBIDAGI FAOLIYATI	39
<i>IV bob.</i> JINOYAT ISHINI QO‘ZG‘ATISH VA SURISHTIRUVNING BOSHLANISHI	58
<i>V bob.</i> SURISHTIRUV JARAYONIDA KECHIKTIRIB BO‘LMAS TERGOV HARAKATLARINI O‘TKAZISH	77
<i>VI bob.</i> SURISHTIRUVNI TAMOMLASH.....	110
<i>VII bob.</i> SURISHTIRUVCHI TOMONIDAN TERGOVCHI TOPSHIRIQLARINING BAJARILISHI.....	119

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA SURISHTIRUV

Ma'ruzalar kursi

Muharrir S.S.Qosimov
Texnik muharrir D. R. Djalilov

Bosishga ruxsat etildi 01.06. 2017. Nashriyot hisob tabag'i 5,5.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № . Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent shahri, Intizor ko'chasi, 68.